

Journal of New Century Innovations

VOLUME

19

ISSUE-3



Journal of new
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical
sciences

Social sciences
and humanities

Engineering and
Medical Sciences

AREAS

ISSN (p): 2181-3671
ISSN (e): 2181-368X



Google
Scholar



newjournal.org



**JOURNAL OF NEW CENTURY
INNOVATIONS**

VOLUME - 19 | ISSUE - 3

DECEMBER - 2022



TERMINALOGIYA SOHASI VA GISTOLOGIK TERMINLARNING O'ZBEK TILIDA IFODALANISHI

Babajanova Poshshajon G'anijon qizi

Xorazm viloyati Urganch shahar 3-son maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada terminalogiya sohasi va gistologik terminlarning o'zbek tilida ifodalanishi xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, gistologiya, gistologik terminologiya.

KIRISH

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. "XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir" [1]. Yangi asr mutaxassisini tayyorlashda uning pedagogik - psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadali, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bugun til va tibbiyot tizimi rivojida amalga oshirilayotgan ishlar o'z ahamiyati bilan barchaning e'tiborida va o'z yechimini kutayotgan vazifalarni belgilab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi olimlarining dunyoning rivojlangan mamlakatlari yetakchi muassasalari ilm ahli bilan o'rnatgan ilmiy-texnik munosabatlarining jadallashuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borishning yo'lga qo'yilishi, yosh iste'dod egalarining nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi, yoxud malaka oshirishi terminlar sistemasining yaqinlashuvi, boyishiga ko'mak beradi. Hozirgi o'zbek terminologiyasi uchun G'arb tillari, ayniqsa, ingliz tilidan ko'plab terminlarning bevosita kirib kelishi diqqatga sazovordir. Shu bilan bir qatorda, o'zbek tili terminlarining boshqa tillar tomonidan o'zlashtirilayotgani ajablanarli hol emas) Zero, so'z o'zlashtirish hodisasining ikki tomonlama sodir bo'lishi tilshunoslikda allaqachon tasdig'ini topgan.

Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm - fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deb izohlanadi.

Hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga terminologiya ham turibdi. Aynan shu davrda zamonaviy tilshunoslik fanida yanada keng ma'no kasb etgan va chuqurroq o'rganilayotgan "terminologiya"ni topish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi.

Terminalogiya har bir til so'z boyligining juda kata qismini tashkil etadi. Uning juda tez rivojlanishi ham bejiz emas, chunki u yangi so'zlar yasash imkonini beradi. Biror tilning terminologiyasi ko'p terminlar tizimidan tashkil topgan. Bilim, sanoat yoki madaniyatning biror maxsus sohasidagi biror so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so'zning mazmuni mavzuli biror adabiyotda izohlash orqali talqin qilinadi. So'z ifodasi lingvistik termin deb hisoblanishi mumkin deb yozgan edi Z.Xarris va I.F.Frizyslar. Ular deskriptiv lingvistika tarafdorlaridan bo'lib, so'z ifodasini quyidagicha ta'riflaydilar: "So'z ifodasi insonning har qanday nutqi bo'lib, u sukutdan oldin yoki keyin ifoda etilishi mumkin". [2] Fanning har bir bo'limi yoki maktabi o'z tabiati va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo'lib, o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Natijada, barcha sohalar terminologiyasiga juda ko'plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda.

ASOSIY QISM

Terminologiya (termin - atama va logos - fan, tushuncha) — leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog'ining, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmui hamda tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasidir. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika hisoblanadi. O'z navbatida u umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi. Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular sal'biy hodisa hisoblanadi. Masalan birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich—chalao'tkazgich

— nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu o'z navbatida, o'qish-o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Terminologiya voqelikni tushunishning ma'lum bir belgilangan sitemasini ifodalab, intellektual aloqa kanalining biri hisoblanadi. Vinogradovning fikriga ko'ra "Terminlarni yaratish va belgilashning ikki tomoni, ikki nuqtai nazari mavjud: til strukturasi va tushunish, semantik shartli ravishda ilimdagi u yoki bu tushunish sistemasining rivojlanishi" [3] deya izoh beradilar. Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta'kidlaydi: «Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi» [4]. Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. D.S.Lotte qanday kategoriyadagi so'zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: "texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblari, detallar va h.k.); xossalar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik obrazlar va h.k.); o'lchov birliklari" [5], A.V.Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so'zlarining bir-biridan farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intiladi: "termin – bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, kasb-hunar so'zlari esa – biror kasb, mutaxassislik o'rtasida ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir" [6].

Terminologik lug'atni ikki qatlamga bo'lish mumkin: umumiy terminologiya va yuqori ixtisoslashgan. Umumiy terminologik lug'at fanning turli sohalarida qo'llaniladigan so'zlar, atamalar, masalan, dori, asbob, element bilan tavsiflanadi. Muayyan fan sohasida qo'llaniladigan atamalar yuqori ixtisoslashgan terminologiyaga tegishli. Yuqori ixtisoslashgan terminologiya - bu bilimning har bir sohasiga xos voqeliklarni, tushunchalarni, kategoriyalarni nomlaydigan maxsus atamalarning eng

vakillik qatlami. Yuqori darajada ixtisoslashgan atamalar uchun tashkiliy tamoyil - bu atamalarning har bir tizimida va terminologiyada (maxsus so'zlarning umumiy to'plami sifatida) tipik toifadagi tushunchalarning mavjudligi, unga ko'ra atamalarning asosiy korpusi taqsimlanadi.

Gistologiya (yunoncha. histos — to'qima va logos — ta'limot) — to'qimalarning tuzilishi, rivojlanishi va hayotiy faoliyati haqidagi fan — inson va hayvon organizmini hayotni tashkil etishning to'qima darajasida o'rganadi. Gistologiya inson morfologiyasi tubida vujudga kelgan. Uning asoschisi fransuz anatomi va fiziologi Mari Fransua K. Bichat (1771-1802) hisoblanadi. O'zining anatomik tadqiqotlarida u inson tanasining organlar va tuzilmalarining turli qatlamlarining xilma-xil tuzilishiga e'tibor qaratdi. O'sha paytda mikroskop hali ham nomukammal asbob edi va Bisha o'z tadqiqotida undan foydalanmadi. Shunga qaramay, bu ajoyib yosh olim haqli ravishda birinchi gistolog hisoblanadi, chunki u "to'qimalar" tushunchasini kiritdi, to'qimalarni aniqladi, ularning yigirmadan ortiq turlarini tavsifladi va nomladi.

Gistologik atamalar kolposkopik atamalardan farq qilishi mumkin. Gistologik terminologiya to'qimalarning tarkibi va sifatini tavsiflaydi, kolposkopik terminologiya esa ularning tashqi ko'rinishini tavsiflaydi. Kolposkopiya tarixida juda ko'p turli xil aralash gistokolposkopik atamalar qo'llanilgan, ularning ko'pchiligi hozirgi vaqtda adabiyotda topilishi mumkin, bu har doim ham amaliyotda shifokor uchun tushunarli emas. Masalan, skuamoz metaplaziya, skuamoz prosoplaziya va epidermidizatsiya transformatsiya zonasida kuzatilgan bir xil gistologik naqshga murojaat qilish uchun ishlatiladi, bu esa ushbu tushunchalarni ma'lum bir standartlashtirishni talab qiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar nuqtai nazaridan, kolposkopik tashxisda qo'llanilmasligi kerak bo'lgan gistologik tushunchalar quyidagi atamalarning ba'zilarini o'z ichiga oladi. Gistologiyada qo'llaniladigan terminologiya ko'p jihatdan anatomikga o'xshaydi, ammo tashkilotning faqat mikroskopik va ultramikroskopik darajasiga mos keladigan ko'plab atamalar "sof gistologik" hisoblanadi. Ushbu atamalar boshqa tibbiyot fanlari tomonidan keng qo'llaniladi, masalan fundamental, nazariy va klinik.

XULOSA

Hozirgi vaqtda fan va texnika sohlarida yuz berayotgan shiddatli rivojlanish, innovatsiya respublika aholisi faoliyatining turli qirralariga samarali ta'sir o'tkazmoqda. Fan va texnika qo'lga kiritgan eng oxirgi muvaffaqiyat va yutuqlar asosidagi yangi texnika vositalariga egalik qilinmoqda. Ushbu texnika va texnologiya vositalari nomlarini anglatuvchi terminologik leksika o'zbek tili lug'at tarkibining kundan kunga boyib, kengayib borishida munosib ulush bo'lib qo'shilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi o'z qaror topish yo'lining boshlanish nuqtasida turibdi. U o'zbek tilshunosligining muhim

sohasi sifatida yillar davomida yig'ilgan tajribalar zaminida taraqqiy etmoqda, takomillashmoqda va kengaymoqda

O'zbek terminologiyasi haqidagi professor U.Tursunovning fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsada, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi. Ma'lumki, terminlar oddiy so'zlar singari umumadaniy va maxsus leksikada bor bo'lgan so'z va o'zaklardan yasaladi. O'zbek tili terminlari sistemasi o'zga qarindosh turkiy tillardagi singari mavjud struktur turlar, ya'ni sodda, yasama, qo'shma, qisqartma va so'z birikmalarini qamrab oladi. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar yetarlicha. Bugungi kunda o'zbek tili soha terminologiyasi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Terminlarning ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqea-hodisa tushunchasi, ma'no-mazmuniga mutanosib, mos tushishi, struktur (shakl) jihatdan ixcham bo'lishi, yakka ma'noni ifodalashi, ma'nodoshlik (sinonimik) qatorlariga kirmasligi kabi talablar terminshunoslar diqqat markazidan joy olganligi yangilik emas. Ayniqsa, chet tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan ilm, fan, texnika, texnologiyaga doir terminlarni qanday tarzda qabul qilish, o'zlashtirish xususida har xil 58 yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Istiqloldan keyin o'zbek terminologiyasi nafaqat miqdor, shuningdek, sifat o'zgarishlarga ham yuz qo'ydi. O'zbek tili imkoniyatlaridan foydalangan tarzda terminlar tizimini tartibga solish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilamoqda va tilning qaysi sohasi bo'lishidan qat'iy nazar uning rivojiga salmoqli hissa qo'shishni talab qilmoqda. Zero, ona tilini sevish, uni ardoqlash millatni sevish va uni ardoqlash bilan teng hisoblanadi. Zotan, muhtaram Prezidentimiz aytib o'tganlaridek: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qadrlashni hayotimiz qoidasiga

aylantirishimiz kerak”. Til sohasi rivoji boshqa barcha sohalar uchun keng imkoniyatlarni ochib beradiga kalitdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug` va kelajagi farovon bo`ladi. T.: “O`zbekiston”, 2019.
2. В.Виноградов, «Вопросы языкознания»1961, стр.3-10.
- 3.Воджно Л.И. Научнотехническая терминология из обектов изучение закономерностей развитие языка // Филологическая наука. 1971. – с. 103.
4. (Лотте Д.С. Основы построения научнотехнической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961. – с. 29.
5. Калинин А.В. Лексика русского языка:, 1971. – с. 141.
6. Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. -с.163
7. Dadaboyev.H. O`zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent – 2019 – yil.
8. Komila Dekanovna Alimova. Interviews of in uzbeklanguage problems and objectives. Internatsional journal on integrated Education Indoneziya 2020 йил.
9. Гистологическая терминология. <https://medbe.ru/materials/diagnostika-v-ginekologii/gistologicheskaya-terminologiya/>.
10. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т.,2009.
11. Komila Dekanovna Alimova. Significance and use of expression in medical terminography. “**COGNITIVE RESEARCN IN EDUCATION**” Jurnal INX F Multidisciplinary Peer Reviewed Journal journa;nx.com. Jurnal impact factor: 7.223Rossiya–2021yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ FAOLIYATI TURI SIFATIDA TINGLASHNI O'RGATISH

Sariqboyeva Zulfiya Yashnarbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti 2 kurs magistranti.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq faoliyati turi sifatida tinglashni o'rgatish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, nutq faoliyati, bolalar tinglash qobiliyati.

"Nima uchun tinglashni o'rgatish kerak?" degan savolga Eshitish xuddi nutq faoliyati kabi tinglovchiga yordam beradi. Insonlar hayotida tinglash juda muhim ahamiyatga ega ekanligini antik davr vakillari buyuk olim Aristotel, Tsiron nutq va tinglash haqida bir qator izohlar keltirib o'tgan. Rus xalq og'zaki ijodi an'analari ma'lum bo'lib: ular, maqollar, iboralar, turli xil so'z qochirimlari bilan boy va qiziq ular shunday fikrlarini bildirgan. "Aqilli nutq yaxshi va tinglash yanada yaxshi", "Chiroyli nutq yaxshi va uni tinglash sabr qanoatidir", "Dala bug'doyi bilan, nutq tinglovchisi bilan go'zal". kabi so'zlar bilan tariflar keltiriladi.

Uslubiy fan asoschilarining asarlarida tinglashni o'rganishning ahamiyati masalasi ko'tarildi. F. I. Buslaev bolalarda "og'zaki nutq shakllarini tushunish" qobiliyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. K. D. Ushinskiy o'qituvchilarga "bolalarni diqqat bilan tinglash, o'rganish va keyin eshitganlarini etkazish" ni tavsiya qildi.

Inson hayotidagi tinglashning ahamiyati metodistlar asarlarida aks ettirilgan (T. V. Atapina, E. G. Begunova, L. N. Vyushkova, T. A. Ladyzhenskaya, L. E. Tumina). Shuni ta'kidlash kerakki, inson tug'ilganida nutq faoliyati sifatida tinglashni boshqaradi; Bunday nutq faoliyati boshqa nutq faoliyatini rivojlantirish uchun asos yaratadi. Tinglash qobiliyati barcha fanlardan bilim olish, insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish, madaniyat va qadriyatlariga qo'shilish vositasidir.

Zamonaviy tadqiqotchilar M. T. Baranov, A. D. Deikina, T. A. Ladyzhenskaya va boshqalar hozirgi kunda maktabga kirgan bir nechta bolalar tinglash qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidlashadi, ularning aksariyati eshitilgan narsalarining ma'nolariga e'tibor berishni bilishmaydi, Eshitilgan so'zlarning ma'nosini tushunishadi, aytilgan narsalarning mohiyatini o'rganishadi. Shu bilan birga, tinglash qobiliyati suhbatdoshning pozitsiyasini to'g'ri tushunish, mavjud kelishmovchiliklarni to'g'ri baholash, suhbatni muvaffaqiyatli o'tkazishning garovidir.

Faoliyat turi sifatida tinglash maktabgacha yoshdagi bolaning ta'lim va bilim faoliyatida muhim o'rin tutadi. Axborotni boyitish, madaniy darajani oshirish uchun

axborot olish manbai bo'lib xizmat qiladi; estetik va madaniy ehtiyojlarni qondirish vositasi, shuningdek, tartibga solish vazifasini bajaradi, chunki tinglash jarayonida olingan ko'rsatmalar inson harakatlarini aniqlaydi.

Eshitish-maktabga kiradigan bolalar uchun muhim nutq faoliyati, chunki uyushgan faoliyatning katta qismi axborot orqali tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim dasturlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ular nutq faoliyatida bolalarning nutq qobiliyatlari uchun maxsus ta'lim bermaydilar. Ko'pincha, bolalarning ta'lim faoliyati uchun nutq tayyorgarligini shakllantirish bo'yicha ishlar til birliklarini (nutq madaniyati, lug'at ishi, nutqning grammatik tuzilishi), ushbu til birliklari bilan ishlash usullarini o'rganishga qaratilgan. Hech bir dasturda nutq faoliyatining barcha tarkibiy qismlari (tinglash) bo'yicha ishlarning mazmunini tizimli ravishda ifodalash mumkin emas. Ko'pgina dasturlar og'zaki nutq (tinglash) yozma nutqni (o'qish va yozish) assimilyatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qilmasligini hisobga olmagan holda, o'qish va yozishni o'rganish uchun nutq tayyorligini birlashtiradi. Ushbu vazifalar boshqa faoliyat turlarida yordamchi, yordamchi sifatida amalga oshiriladi, bu bizni tinglash kabi bunday nutq faoliyatiga yanada ko'proq e'tibor berishga majbur qiladi.

Tinglashni o'rganish jarayoni turli usullar bilan amalga oshiriladi.

Bolalarni tinglashga o'rgatishda og'zaki usul (suhbat) faol ishlatiladi. Suhbat-bu ma'lumot emas, balki yangi materialni tushunish uchun ishning savol-javob usuli. Shunday qilib, suhbatda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi: gapirish uchun eshitish, tushunish uchun eshitish.

Qo'llab - quvvatlash bosqichida tushunish uchun eshitishni o'rnatish amalga oshirishda tushuntirish savollar ishlatiladi, va sharhlab bosqichida-parafraz, qaysi nuqtai uning nuqtasi (i to'g'ri tushundim.... Boshqacha aytganda..., Deb o'ylayman...) Parafraz, tushuntirish masalalari bilan birga, o'zaro tushunishga erishish uchun bir usuldir. Suhbatlarning muvaffaqiyati asosan savollarning to'g'riligiga bog'liq. Savollar barcha bolalarga o'qituvchi tomonidan beriladi, shuning uchun barcha bolalar javob berishga tayyor. Savollarni qabul qilishdan tashqari, suhbatda bolalarning javoblari va fikrlarini muhokama qilish mumkin.

Eshitishni o'rgatishning muhim usuli-bu hikoya. Ushbu usul bolalarning savollariga javob bermaydigan materialning og'zaki tushuntirish ekspozitsiyasini o'z ichiga oladi. Eshitilgan hikoyaning mazmuni bo'yicha "isustny" hikoyasi va suhbat K. D. Ushinskiy eshitish in'ikosini rivojlantirishni taklif qilgan usullardir. Suhbat K. D. Ushinskiy birinchi navbatda savollarga javob beradigan tarzda qurishni tavsiya qiladi, bolalar asosiy narsani topshirishadi, keyin esa savollar tafsilotlarni aniqlab olishni talab qiladi. Tinglangan matnning mazmuni haqida suhbat qurishning ushbu qoidalari bugungi kunda ham dolzarbdir.

Badiiy asarlarni o'qish va aytish, suhbat bilan birga, tinglash qobiliyati namoyon bo'ladigan muhim usuldir. Maktabgacha ta'limda badiiy asarlarni o'qish bolalarda san'at asarini idrok etish va tushunish qobiliyatini shakllantiradi. Matnni tushunish bilan bog'liq maqsadli ish tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi va quyidagicha: matnning mazmunini tushunish, matnning asosiy g'oyasini aniqlash, matnning mazmunini sarlavha (sarlavha) bilan aniq qilish, matn mazmuniga bo'lgan munosabatini ifodalash.

Nazorat qilish usuli bolalar uchun O'qilgan materialni qayta tarjima qilishi mumkin. Retelling paytida bola tayyor tarkibni taqdim etadi va muallif va o'quvchining tayyor nutq shaklidan foydalanadi. San'at asarining tarjimasi maktabgacha yoshdagi bolalarga tanish va yaqindir, chunki bola o'z his-tuyg'ulariga ta'sir qiladigan tayyor namunani oladi, empati qiladi va shu bilan eshitilganlarni eslab qolish va qayta tarjima qilish istagi paydo bo'ladi.

Ushbu usullarning barchasida umume'tirof etilgan uslubiy metodlar, masalan, tabiatni aniqlash va qidirish (hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishni talab qiladigan), tushuntirish(qoidalar, bolalarning harakatlarini tushuntirish), Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq holda, audio yozuvlar va video yozuvlar juda mashhur. Shu bilan birga, o'qituvchining tinglash uchun ijobiy munosabati muhim ahamiyatga ega. Audio treklarni tinglashni yanada qiziqarli qilish uchun siz ertak terapiyasi usullaridan birini qo'llashingiz mumkin-ertakni chizish. Olti yoshga kelib, yangi eshitilgan ma'lumotni muntazam ravishda tinglaydigan va takrorlaydigan bolalar retelling, chizma, ilovalar va boshqalar shaklida eshitilgan narsalarni tinglash, tushunish va talqin qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshda etakchi faoliyat o'yin bo'lgani uchun, tinglashni o'rganishda o'yin uslublarini qo'llashning maqsadga muvofiqligi aniq bo'ladi. O. ya Goychmanning fikriga ko'ra, o'yin uslublarini qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quv jarayonini kuchaytiradi va faollashtiradi, uni yanada ijodiy va qiziqarli qiladi. Bolalarni tinglash qobiliyatini o'rgatish orqali biz bolani maktabda keyingi ta'lim olish uchun tayyorlaymiz, bu erda axborotni eshitish va tushunish qobiliyati - o'rganish jarayoni mumkin bo'lmagan muhim mahorat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anufriev Av, Kostromina S. N. bolalarni tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni qanday engish kerak. O'tish: Saytda Harakatlanish, Qidiruv
2. Axutina T. V., Pylaeva N. M. e'tibor maktabi. 5-7 yoshdagi bolalarda e'tiborni rivojlantirish va tuzatish usuli. O'tish: Saytda Harakatlanish, Qidiruv
3. Goyhman O. ya, Nadeina T. M. nutq kommunikatsiyalari asoslari : universitetlar uchun darslik / Ed. prof. O'tish: saytda harakatlanish, qidiruv — 272 bilan.
4. Qishki Ia, nutq faoliyatining Lingvopsikologiyasi.
5. Ushinskiy K. D. Oliy pedagogik ta'lim.- Moskva: rus maktabi, 2005
6. Nashr etildi: 11.08.2017

TENDER SAVDOLARINING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI

*TFI, Magistratura bo'li I, DMXM-3 guruhi
Xalikulova Shirin*

Annotatsiya: Tender kontseptsiya eng istiqbolli mijozlarni jalb qilish maqsadida tovar va xizmatlarni etkazib beruvchilar o'rtasida ma'lum shartli raqobatni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ushbu musobaqa uni tashkil etuvchi kompaniya qoidalarida ko'rsatilgan qoidalarni hisobga olgan holda bo'lib o'tadi. Ushbu maqolada tenderlarning qanday ijobiy va salbiy tomonlari mavjudligini ko'rib chiqishimiz mumkun.

Kalit so'zlar: tender, tovar, xizmatlar, davlat xaridlari, biznes, savdo, tanlov

Аннотация: Понятие тендер предполагает определенную условную конкуренцию между поставщиками товаров и услуг с целью привлечения наиболее перспективных заказчиков. Кроме того, данный конкурс будет проходить в соответствии с правилами компании-организатора. В данной статье мы можем рассмотреть положительные и отрицательные стороны тендеров.

Ключевые слова: тендер, товары, услуги, государственные закупки, бизнес, торговля, конкуренция.

Tender deganda davlat xaridini ikki bosqichda amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili orqali ijrochini aniqlash usuli tushuniladi. Bunda shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tender ishtirokchisi ushbu tartib-taomil natijalari bo'yicha g'olib deb topiladi. Davlat xaridi haqidagi axborotni davlat buyurtmachisi tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni va tender hujjatlarini maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali shaxslarning cheklanmagan doirasiga ma'lum qiladi. Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g'olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;

- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorni tashkil etadi.

Tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi (bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno).

Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi. Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Elektron tanlov yoki tender o'tkazish tartibi amalda umumbelgilanganidan farqlanmaydi, o'sha-o'sha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: xarid komissiyasi tuziladi, so'ng hujjatlar ishlab chiqilib, tanlov (tender) o'tkazilishi haqida e'lon beriladi, shundan keyin ishtirokchilardan takliflar qabul qilinadi, yakunlar chiqariladi va g'olib bilan shartnoma tuziladi.

Farqlanuvchi jihatlaridan biri – elektron tanlov va tender ishtirokchilarining zakalatlari haqidagi normalar kiritildi. Korporativ buyurtmachilar ishtirokchilar tomonidan zakalat kiritish zaruratini va uning miqdorini o'zlari belgilaydilar, u tovar (ish, xizmat) qiymatining 3%idan oshmasligi kerak. Byudjet buyurtmachilari bilan bo'lgan holatda, matndan kelib chiqilsa, zakalat kiritish majburiy. Elektron tanlov yoki tender g'olibi aniqlanmaguncha kiritilgan zakalat operator tomonidan xatlanadi.

Tabiiyki, xarid komissiyasi a'zolarining o'zaro va ishtirokchilar bilan muloqoti, shu jumladan hujjatlar aylanmasi elektron shaklda amalga oshiriladi. Buning uchun xarid komissiyasining har bir a'zosi va mas'ul kotibi, shuningdek xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi uchun shaxsiy kabinet ochiladi. Elektron tizim komissiya a'zolariga yopiq chatda, ishtirokchilar bilan esa ochiq chatda muloqot qilish imkonini beradi.

Tanlov yoki tender yakunlariga ko'ra qabul qilinadigan qarorlar elektron bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi. Xarid komissiyasi a'zolari ERI dan foydalangan holda uni imzolaydilar. Ko'chirma portalda avtomatik ravishda e'lon qilinadi. G'olib bilan shartnoma ham elektron shaklda tuzilib, taraflarning ERI bilan imzolanadi va shartnomalar reyestriga kiritiladi.

Tenderning O'zbekistonda keng qo'llanilishiga qaramasdan, u barcha ijobiy va salbiy tomonlari mavjud oddiy xarid hisoblanadi.

Boshqa tomondan, poraxo'rlik xavfi xaridor va hisobni sotish bo'yicha menejerning ishonchi bilan ortadi va sotib olingandan keyin menejerga yuk ortadi, ikkinchisi esa xaridorlar va yetkazib beruvchilarning fikrlari bilan ishlash qobiliyatidir.

Xaridorlar uchun tenderlarni tashkil etish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Xaridorlar taqdim etilgan barcha takliflardan eng foydali takliflarni tanlaydilar, takliflar soni juda ko'p bo'lishi mumkin.

Takliflarni izlash va baholash minimal vaqt va moddiy resurslar bilan amalga oshiriladi.

Tovar sotib olish to'g'risida qaror qabul qiluvchi shaxslarga pora berish ehtimoli keskin kamayadi.

Tenderlarda ishtirok etish yetkazib beruvchilarga bundan kam bo'lmagan afzalliklarni beradi:

Potensial mijozlar bazasi sezilarli darajada kengaymoqda.

Yetkazib beruvchilar davlat xaridlari uchun ochiq.

Agar firma o'z bozor hududida hukmronlik qilsa yoki etkazib berishning eksklyuziv shartlarini ta'minlay olsa, u o'z mijozlar bazasini keskin kengaytiradi.

Ikkala tomon uchun ham ijobiy tomonlar:

Sotish va sotib olish tizimi yanada shaffof bo'ladi.

Eng yaxshi etkazib berish shartlariga ega bo'lgan firma tenderda g'olib chiqadi.

"Inson omili"ning ta'siri kamayadi.

Tomonlardan biri tomonidan pora olish ehtimoli kamayadi.

Salbiy tomonlari:

Yo'q. Biroq, bu mantiqiy. Axir biz tender tizimi tashkilotchilarining nuqtai nazarini ko'rib chiqamiz.

Tender tizimining xaridorlar nuqtai nazaridan qaralsa:

Ijobiy tomonlari:

Poraxo'rlik xavfi minimallashtiriladi.

Kerakli tovarlarni sotib olish eng yaxshi sharoitlarda eng past narxlarda amalga oshiriladi.

Salbiy tomonlari: Ular yo'q. Kompaniya o'z ehtiyojlarini aniqlaydi, tender e'lon qiladi va eng yaxshi taklifni tanlaydi.

Yetkazib beruvchilar nuqtai nazaridan tender tizimining ko'rinishi:

Ijobiy tomonlari:

Potensial mijozlarning yangi guruhlari paydo bo'ladi: yirik biznes, davlat kompaniyalari.

Savdo menejerlarining professionalligining ta'siri minimallashtiriladi. Bu nuance, ayniqsa, menejerlar etarli darajada tayyor bo'lmagan taqdirda juda muhimdir.

Hech qanday savdo yo'qolmaydi, chunki mijoz vakili raqobatchi tomon tomonidan pora oladi.

Salbiy tomonlari:

Savdo menejerining professionalligi aslida sotib olish jarayoniga ta'sir qilmaydi. Savdo bo'limi yaxshi tayyorlangan bo'lsa va bozor raqobatchilar bilan to'yingan bo'lsa, bu ayniqsa yoqimsiz.

Klassik ma'noda sotishni boshqarish mavjud emas va imkonsizdir.

Muzokaralar jarayoni ustidan nazorat yo'q.

Mijozning e'tirozlari bilan ishlash imkoniyati yo'q.

Yetkazib beruvchini tanlashda mijoz etkazib berishning minimal narxini qidiradi, boshqa omillar, qoida tariqasida, umuman hisobga olinmaydi. Muzokaralar jarayonini rejalashtirishning iloji yo'q. Agar ushbu aniq so'rov uchun sotib olish rad etilsa, aloqani davom ettirish va boshqa yo'nalishlarda ishlashga harakat qilishning iloji yo'q. Ko'rib turganimizdek, faqat yetkazib beruvchilar uchun juda ko'p salbiy tomonlar mavjud.

Shunday qilib, biz tenderning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqdik, jumladan tenderlarning ijobiy tomonlari salbiy tomonlaridan ustun ekanligiga amin bo'ldik mohiyatini aniqladik. Aytishimiz mumkinki, iqtisodiyotning tegishli sohalari hamda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar doirasida tovar, ish va xizmat yetkazuvchilarini saralash bo'yicha tender savdolarini idoralararo tender komissiyalari amalga oshiradi.

INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISHGA BO'LGAN YONDASHISHNING
FILOLOGIK VA NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA
FARQLANISHI

Isroilova J. Y.,

O'zDJTU talabasi

Ilmiy rahbar: Muxitdinova X. S.,

Pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada filologik hamda nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishga bo'lgan yondashuvning farqlanishi ko'rsatilgan hamda mazkur ta'lim muassasalarida qo'llanilishi tavsiya etiladigan qator ta'lim metodlari keltirilgan.

Tayanch so'z va birikmalar: umumiy metodika, xususiy metodika, kommunikativ yondashuv, grammatik-tarjima metodi, tabiiy metod, bevosita metod, bilvosita metod, audio-lingual metod, audio-vizual metod, ongli-qiyosiy metod, kommunikativ metod.

Ma'lumki, hozirgi jamiyatda raqobatbardosh kadrغا aylanish uchun kamida 2 ta chet tilini bilish davr taqozosiga aylandi. Bu tillarni o'qitishga yangicha yondashuv va metodikalarni qo'llash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Xorijiy til o'qitish metodikasini vazifaiy jihatdan umumiy hamda xususiy metodikalarga ajratish mumkin. **Umumiy metodikada**, qanday til o'rganilayotgan bo'lishidan qat'iy nazar barcha xorijiy tillarga xos bo'lgan umumiy qoidalar o'rganiladi. **Xususiy metodika** esa o'rganilayotgan tilning o'ziga xos jihatlari alohida to'xtaladi. Misol uchun, ingliz tilidagi uch zamon: past, present va future dagi "Simple tense" lar umumiy metodikada o'rganilsa, Past Continuous, Present Continuous va Future Continuous kabilar ingliz tilining o'ziga xos jihati sifatida xususiy metodikada o'rganiladi. [1, 7] Mazkur ikki metodika bir-biridan farq qilsa ham, bir tangananing ikki tarafidek, til o'qitish metodikasining bir-birini taqozo qiladigan ajralmas qismidir. Shu tufayli, har qanday til o'qitiladigan muassasada ularning har ikkalasi ham qo'llaniladi.

Yurtimizning aksariyat ta'lim muassasalarida xorijiy tillar orasida aynan ingliz tili ta'limiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda qator oliy ta'lim dargohlari, misol uchun, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, Samarqand chet tillari universiteti va shu kabi qator oliygohlar mazkur til mutaxassislarini yetishtirib chiqarishga yo'naltirilgan. Ayni vaqtda, til o'rgatishga ixtisoslashtirilmagan boshqa oliygohlarda ham ingliz tili barcha guruhlarda o'qitiladi. Tilga aloqador bo'lmagan soha talabalariga ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuv eng keng tarqalgan uslub sanaladi. A.E. Chekanova fikricha, kommunikativ kompetensiya bugungi kunda oliygohlardagi eng muhim professional

tayyorlov metodlari orasidan o'rin olgan. [2, 23-26] Kommunikativ yondashuvda talaba, asosan, nutq salohiyatini oshirish, informatsiyani qabul qilish va yetkazib bera olish qobiliyatlari ustida ishlash kabi vazifalarga jalb etiladi. Verbal fikrlash kommunikativ kompetensiyadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Albatta, ushbu oliygohlarda til o'rganishdagi eng muhim omil bu dastlabki qo'yilgan "o'rganishdan maqsad"dir. E.N. Sololovning fikricha, "aynan noto'g'ri tanlangan maqsad ta'lim jarayonidagi yanglishmovchiliklarni keltirib chiqaradi." [3, 4] Til o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad uning metodikasini aniqlab beruvchi muhim omil sanaladi.

Jahon standartlarida ingliz tilini o'rganish maqsadlari quyidagi umumiy bir nechta spektrlarda ko'rib chiqiladi:

- EGP (English for General Purposes) – ingliz tilini umumiy maqsadlar uchun o'rganish;
- EAP (English for Academic Purposes) – ingliz tilini akademik maqsadlar uchun o'rganish;
- ESP (English for Specific Purposes) – ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o'rganish.

Ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan oliy ta'lim muassasalarida yuqoridagi maqsadlar o'zaro farqlanadi: ixtisoslashtirilmagan oliygohlar uchun EGP metodikasi qo'llanilsa, ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim rejaları EAP ga ko'ra tuziladi. Demak, nofilologik o'quv yurtlari talabaları maktab darajasidagi, professional yoki akademik orientatsiyalar talab qilinmaydigan sharoitda ingliz tilini o'rgansa, filologik oliygoh talabaları obyektiv orientirlashgan yondashuv asosida ingliz tili ko'nikmasini hosil qiladilar. [4, 67-77] Maqsad turlligining o'ziyoq qo'llaniladigan metodikaning bir-biridan farqli bo'lishini keltirib chiqaradi.

Til o'qitishga ixtisoslashtirilmagan OTMlarda ingliz tili darslari talaba tahsil olayotgan sohaga aloqador ravishda o'tkaziladi. Misol uchun, iqtisodiyot sohasida o'quvchi talabalar ingliz tili darslari davomida ingliz tilidan xabardorlikning iqtisoddagi o'rni va ahamiyati haqida aniq tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

Til o'rgatishga ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida talabalarga mazkur tilning nafaqat kommunikatsiyada qo'llanilishi va adekvat anglanishi, balki uning tarixi, tilshunoslik nazariyasi, mazkur tilda so'zlashuvchi jamiyat va undagi ijtimoiy madaniyat ham o'qitiladi. Bu holda, ayniqsa, chet tili o'qitish metodikasining amaliy-traditsion usullaridan foydalanib kelinadi. J. Jalolov fikricha, "chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar 3 ta bo'lib, ular **tanishish, mashq qilish va qo'llash**dan iborat. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi til materiali bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida,

ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat." [5, 79] Shu bois chet tillarini o'qitishning 8 ta traditsion metodlari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

Grammatik-tarjima metodi – tilni bilish, ya'ni uning grammatikasi va lug'ati bilan to'liq tanishish. Ushbu metodda pedagog tomonidan aniq grammatik sxema asosida matnlar, gaplar ustida ishlanadi. Ushbu til materiali tarjima metodida o'zlashtiriladi: ingliz tilidan ona tiliga va ona tilidan ingliz tiliga. Mazkur metod ingliz tili grammatikasini chuqur o'rganishga yordam beradi.

Tabiiy metod – chaqaloqqa ona tili qanday o'rgatilsa, chet tili ham shunday o'rgatiladi. Tayyor namunalarga taqlid qilish, qayta-qayta takrorlash asosida kishida gapirish (speaking) va o'qib-tushunish (reading) ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

Bevosita metod – tabiiy metod asosida yaratilgan bo'lib, avvalo, speaking ko'nikmalari ustida ishlanadi va grammatikadan faqatgina nutq normalarga kerak bo'ladigan qoidalar o'rganiladi.

Bilvosita metod – til o'rganish maqsadlarining qandayligiga ko'ra keskin chegaralanadi. Unda til o'rganuvchilari orasida iloji boricha maksimal darajada ingliz tili muhiti yaratiladi hamda talaba ingliz tilida erkin gaplasha olishga tayyorlanadi.

Audio-lingval metod – mazkur metodda audio mashqlar bajarish davomida eshitilgan gaplardagi bo'shliqlarni to'ldirish, savollarga javob berish orqali lug'at boyligini oshirish hamda ingliz tilida so'zlovchilarning temp, intonatsiya va tonlari bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.

Audio-vizual metod – intensiv ta'lim, tilning sun'iy muhitini yaratish. Ushbu metodning asosiy maqsadi til o'rganuvchisini og'zaki nutqqa o'rgatish orqali gapirish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ongli-qiyosiy metod – ingliz tilidagi barcha 4 ko'nikmalarni (speaking, reading, listening and writing skills) baravariga rivojlantirishga qaratilgan.

Kommunikativ metod – eng keng tarqalgan o'qitish metodi bo'lib, o'z ichiga guruhlarda ishlash, sahnalashtirish, savol-javob, debatlar va shu kabi keng qamrovli interaktiv mashg'ulotlarni oladi. [1, 27-34]

Quyidagi jadvalda chet tilining o'qitilish metodikasidagi 8 ta traditsion metodlar tilga ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan OTMlarga mos kelish va/yoki tavsiya etilmasliklari keltirilgan:

Metodlar	Til o'qitishga ixtisoslashtirilgan OTMlar	Til o'qitishga ixtisoslashtirilmagan OTMlar
Grammatik-tarjima metodi	Mos keladi	Tavsiya etilmaydi
Tabiiy metod	Mos keladi	Tavsiya etiladi
Bevosita metod	Tavsiya etilmaydi	Tavsiya etiladi
Bilvosita metod	Mos keladi	Tavsiya etiladi
Audio-lingval metod	Tavsiya etiladi	Tavsiya etiladi

Audio-vizual metod	Tavsiya etiladi	Tavsiya etiladi
Ongli-qiyosiy metod	Tavsiya etiladi	Tavsiya etiladi
Kommunikativ metod	Mos keladi	Mos keladi

Demak, yuqorida sanab o'tilgan metodlar chet tilini o'rganish uchun juda qulay bo'lsa-da, bir vaqtning o'zida filologik hamda nofilologik sohalardagi talabalarga qo'llanilishi tavsiya etilmaydi. Masalan, grammatik-tarjima metodi tilni akademik maqsadlar uchun o'rganayotgan talabalarga mos bo'lgani uchun nofilologik OTM talabalariga qo'llanilishi tavsiya etilmaydi; tabiiy metod tilda boshlang'ich saviyaga ega talabalarga ko'proq mo'ljallangani tufayli nofilologik oliygohlarga tavsiya etiladi, ammo talabalarin saviyasiga ko'ra filologik OTM larda ham qo'llanilishi mumkin; bevosita metod tilning faqat nutq normalariga rioya qilgan holda tilni o'rgangani uchun filologik oliygohlarga tavsiya etilmaydi; bilvosita metod til o'rganish maqsadlarining qandayligiga ko'ra keskin chegaralanishi tufayli fiologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga mos kelsa-da, ko'proq nofilologik OTM talabalariga tavsiya etiladi; audio-lingual metod tinglab tushunish hamda so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga qulay bo'lgani uchun har ikkala oliygoh talabalariga tavsiya etiladi; audio-vizual metod til o'rganuvchisida gapirish ko'nikmalarini shakllantiradi, shu tufayli har ikkala OTM talabalariga tavsiya etiladi; ongli-qiyosiy metod tildagi barcha 4 ko'nikmalarni baravariga rivojlantirgani sababli har ikkala oliygoh talabalariga tavsiya etiladi; kommunikativ metod, asosan, kinestetik o'rganuvchilar uchun qulay bo'lganligi uchun talabalarga mos ravishda har ikkala turdagi universitetlarda qo'llanilishi mumkin.

Bizningcha, OTMlarda ingliz tilini o'qitishda qo'llanadigan metodlarni aynan ta'lim sohasiga mos kelish yoki kelmasligiga ko'ra tanlab ishlatish kerak. Shu maqsadda, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim rejaları EAP metodikasiga ko'ra tuzilishi, ingliz tiliga ixtisoslashtirilmagan oliygohlar uchun esa EGP metodikasi asosidagi metodlar qo'llanilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Л.Р. Сакаева & А.Р. Баранова. Казань, КФУ, 2016. С – 7; С – 27-34.
2. Чеканова А. Э. “Коммуникативный подход в методике развития словесно-логического мышления студентов при обучении английскому языку” // “Педагогическое образование в России”, 2012. С – 23-36.
3. Е.Н. Сололова. «Методики обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций». – Изд.: «Просвещение», 2005. с - 4.
4. Dr. Muhammad Islam, “The differences and Similarities between English Specific Purposes (ESP) and English for General Purposes (EGP) Teachers”// J. “Journal of research (Humanities)”, 2015, Volume – 51. P – 67-77.
5. J. Jalolov. “Chet til o'qitish metodikasi”(“Foreign language teaching methodology”). – Т.:“O'qituvchi”, 2012. – 79 - bet.

BIOLOGIYA DARSLARIDA O'YINLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

Mirzayeva Gulsora Otamirzayevna
Namangan viloyat Chortoq tumani
26-sonli o'rta ta'lim maktabi
biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiyada bugungi kundagi biologiya darslarini qiziqarli va yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkillash haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: O'yin, interfaol, didaktik, ta'lim samaradorligi, o'qituvchi, o'quvchi, "Kim ko'p biladi", "Xayoliy sayohat" o'yini.

Biologiya Yerdagi hayotning barcha ko'rinishlarini, uning turli darajadagi: molekula, hujayra, organizm, populatsiya (tur), biogeosenoz (ekosistema), biosfera darajasidagi tizimlarning barcha xossalarini o'rganadi. Biologiyaning asosiy maqsadi tirik mavjudotlarning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ko'payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiiy jamoalarda va yashash muhiti bilan o'zaro munosabatlarini o'rganishdir. Biologiya atamasi fransuz olimi J. B. Lamarck va nemis olimi G.R.Treviranus tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, «bios» – hayot, «logos» – fan degan ma'noni bildiradi.. Biologiya fanining tarmoqlari. Biologiya fundamental va kompleks fan hisoblanadi. Fundamental fan deyilishiga sabab, biologiya tibbiyot, psixologiya, agronomiya, oziq-ovqat sanoati, farmokologiya uchun nazariy asos bo'lsa, kompleks fan sifatida esa ko'plab tarmoq fanlarni o'z ichiga oladi. Tekshirish obyektiga ko'ra biologiya fani bir qancha sohalarga bo'linadi. Botanika – o'simliklar, zoologiya – hayvonlar, mikrobiologiya – mikroorganizmlar, mikologiya – zamburug'lar, gidrobiologiya – suv muhitidagi organizmlar, paleontologiya – qazilma holdagi organizmlar, ekologiya esa organizm va muhit orasidagi munosabat to'g'risidagi fan hisoblanadi. Biologiya tirik organizmlarning ayrim jihatlarini tekshirish bo'yicha ham turli fanlarga ajraladi.

Katta kishilar hayotida ish faoliyati qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bolalarda ham o'yin faoliyati shunday ahamiyatga ega. O'yin darslari biroz shovqin, tartibsizlik bilan kechgani uchun biz o'qituvchilar ko'pincha jim o'tirib tinglaydigan, shovqinsiz o'tadigan an'anaviy darslarni ma'qul ko'ramiz. Aslida esa o'yin faqat o'quvchilarning vaqtini choq qilish uchun o'tkazilmasligi kerak, balki o'yin didaktik bo'lishi, ya'ni darsda ma'lum ta'lim-tarbiyaviy masalani hal etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni bilim salohiyatining rivojlanishida interfaol usullardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Dars

jarayonida o'quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to'g'ri va maqsadli foydalanish, har bir o'tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta'riflarni o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida darslarda turli o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida darslarni tashkil etish o'quvchilar biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jarayonlarni o'rganish faoliyatini rivojlantiruvchi usullardan biridir. O'yinlar o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish qobiliyatini oshiradi, tez javob topish ko'nikmasini rivojlantiradi, ziyrakligini orttiradi. O'yin darslari o'qitishning faol shakllaridan biridir. O'yin darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarini orttirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir

Metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi. O'quvchilar ongida saqlanib qoladi, hamda ularning musatqil fikrlashga undaydi. Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham, asosan yosh avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir O'yin darsning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarni oshirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir.

Tashqaridan qaraganda oyin yengil, betashvish korinishda, aslida boldan maksimum energiya berilishini aql, sabr toqat, mustaqillik kabi jihatlarni ishga solishni talab etadi.

tinglashni yaxshilashning birinchi tamoyili bolalar uchun turli darajadagi va turli ehtiyojlariga ko'ra mos manbaalarni tanlashi kerak. Biz foydalanishimiz mumkin bo'lgan turli xil tinglash materiallari mavjud: videokassetalar, filmlar, BBC yangiliklari, qo'shiqlar, yozib olingan lentalar va hatto "jonli" materiallar. Bundan tashqari, o'qituvchilar darsga kelishidan oldin tinglovga yaxshi tayyorgarlik ko'rishlari oson. Ammo o'qituvchilar materiallarni sinfga olib kirishdan oldin ularni o'zlari tinglashlari kerak, chunki o'qituvchilar bolalar qayerda muammoga duch kelishi mumkinligini va qachon pauza qilish va tushuntirish kerakligini bilishlari kerak. Bundan tashqari, Andervudning aytishicha, tinglash paytida ma'ruzachini ko'rmasdan, bolalar aytilgan narsaning ma'nosini taxmin qilish uchun paralingvistik signallarga bog'lanish o'rniga, eshitgan narsalariga e'tibor qaratishlari kerak.

Tinglash ko'nikmalarini oshirishning ikkinchi tamoyili - bu bolalar uchun mos keladigan vazifalar, mashqlar yoki tadbirlarni qanday rejalashtirishdir. Tinglash mashqlarini loyihalashda biz quyidagi omillarni hisobga olishimiz kerak. Birinchidan, biz bolalar uchun qanday real hayotiy vaziyatni tayyorlayotganimizni, shuningdek, ular duch kelishi mumkin bo'lgan muayyan qiyinchiliklarni va ularni engish uchun amaliyotga muhtojligini yodda tuting va tinglashni o'rgatishda o'qituvchilarning maqsadlaridan biri bolalarni maqsadlar va umidlar bilan tinglashga o'rgatish bo'lishi kerak. Tinglash maqsadini qo'yish orqali o'quvchilar diqqat bilan tinglaydilar va shu tariqa muvaffaqiyatliroq tinglaydilar, chunki ular eshitgan har bir tafsilotini yodlab olishga majbur bo'lmasdan tanlab tinglashlari mumkin. Ikkinchidan, biz mashg'ulotlar yoki mashg'ulotlarni sinfning xususiyatiga qarab rejalashtirishimiz kerak, masalan,

sinfning kattaligi, o'quvchilar soni yoki jihozlarning mavjudligi. Uchinchi, eng muhimi, o'quvchilarning qiziqishini oshirishga harakat qilish va ularni rag'batlantirish. Bolalarning motivatsiyasi muvaffaqiyatli o'rganishning hal qiluvchi omilidir, shuning uchun agar o'quvchi oddiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarsa, u boshqa ko'nikmalarni mashq qilish uchun o'ziga ishonchi ko'proq bo'ladi. Aksincha, tushunish qiyin bo'lgan topshiriqlar berilgan o'quvchilar topshiriqlarni bajara olmagan uchun motivatsiyalari pasayadi. Vazifalarni bajarmaslik hatto passiv va muvaffaqiyatsiz tinglash odatlaridan birining shakllanishiga olib kelishi mumkin, bu yerda tinglovchilar "tinglash" ni orqa o'tirib, katta darajada ma'nosiz tovushlar ketma-ketligini yutib yuborishga tenglashtiradilar. Mavzularni tanlash juda qiyin yoki juda oson bo'lmasligi kerak. Agar o'qituvchilar tinglashdan oldin bolalarga etarlicha yordam bersalar, bolalar tegishli qismlarga tanlab qatnashishi va shu bilan ma'lumotni qayta ishlash va yodlash hajmini kamaytirishi mumkin. Bolalarga tinglashdan oldin ko'rsatilayotgan yordam o'quvchilarga yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishish va shu tariqa o'ziga ishonchni oshirish imkonini beradi. Tinglash mashqlari o'quvchilarda so'zlashuv nutqidan xabar ajratib olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun mo'ljallangan. O'qituvchilar tinglash mashqlaridan o'quvchilarga o'z tillarini tinglashda ega bo'lgan narsalarni bashorat qilish, taqqoslash va izohlash qobiliyatini mashq qilish imkoniyatini berishlari mumkin. Yaxshi tinglash faoliyati bolalarga tinglashdan oldingi taxminlar asosida tinglash matnida harakat qilishda yordam berishi mumkin, ammo ular qiziqarli bo'lishi kerak va bu ko'pchilik bolalar qila oladigan narsalar bo'lishi kerak, chunki topshiriqni bajarmaslik demotivatsiyaga olib keladi.

"Yozuvda hamma narsa tildan boshlanadi. Til tinglashdan boshlanadi". --Jianet Vinterson. Tinglash san'ati boshqalarning gaplarini tan olish va tushunishdan boshqa narsa emas. U uchta omil atrofida aylanadi:

1. So'zlovchining talaffuzi va urg'usini tushunish;
2. Sintaksis va lug'at o'rganish;
3. Ma'ruzachining niyatini tushunish.

Tinglash murakkab va kompleks ko'nikma bo'lganligi uchun, uni o'quvchilar amalda rivojlantirishlari kerak. Chet tilini o'rganish jarayonida tinglash asosiy hisoblanadi. Bu boshqa til ko'nikmalarini o'rganish va rivojlantirish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Olimlarning fikriga ko'ra tinglash qobiliyatlarini yaxshilash uchun quyidagi mashqlar maxsus ishlab chiqilgan:

1. Asosiy ma'nosini tinglash - nomidan ko'rinib turibdiki, bu faoliyatning asosiy mexanizmi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar (masalan, yig'ilishda qatnashish) sinfdagi 3-4 guruh o'rtasida taqsimlanadi. Har bir guruh yozib olingan materialni tinglaydi va mavjud ma'lumotlarni varaqqa yozadi. Keyin guruhlar o'zlarining ma'lumotlarini birlashtirish uchun birlashadilar.

2. Noaniq suhbatlar - bolalar qisqa suhbatni (yoki uzoq suhbatdan parcha) tinglashadi, bu esa ma'ruzachilar nima haqida gapirayotgani haqida juda kam ma'lumot beradi. Bolalar kim gapirayotganini, qaerdaligini, nima haqida gapirayotganini va, ehtimol, keyin nima bo'lishini o'zlari hal qilishlari kerak. Shunday qilib, tinglashning bu turi tabiiy ravishda munozaraga (va agar xohlasangiz, yozishga) olib keladi. 3. Qaror qabul qilish bolalarga ba'zi ma'lumotlar, masalan, shahar (yo'nalishlar, ob'ektlar va boshqalar) haqida suhbat yoki suhbat shaklida taqdim etiladi, ular asosida ular tashrifni rejalashtirishlari kerak. Rejalashtirish muhokama qilish va eslatma olishni o'z ichiga oladi. Qaror qabul qilish faoliyati shuningdek, masalan, asosiy ma'lumotlar yozib olingan shaklda mavjud bo'lgan joylar, hodisalar, tadbirlar o'rtasida tanlovni o'z ichiga olishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tinglash - bu amaliyot orqali rivojlantirilishi kerak bo'lgan murakkab mahorat. O'qituvchilar o'z bolalariga tinglash jarayonlari va amaliyotlari haqida fikr yuritish imkoniyatini berishlari kerak. O'qituvchining o'zni juda katta, chunki o'qituvchi nafaqat tinglash jarayonida o'quvchilarga yo'l- Yo'riq ko'rsatibgina qolmay, balki ularni rag'batlantiradi, o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Ko'pgina ingliz tilidagi dasturlarda tinglab tushunish e'tiborga olinmaydi. Tinglab tushunish qiyin jarayon. Tinglab tushunish strategiyalari bir vaqtning o'zida qo'llanilishi kerak. Biz matnni tinglayotganimizda tushunishimiz, ma'lumotni xotirada saqlashimiz, uni keyingisi bilan birlashtirishimiz va oldingi bilimlar va keyingi ma'lumotlar orqali eshitganimizni tushunishimiz kerak.

REFERENCES

1. H Douglas Brown, *Language Assessment Principles and Classroom Practice* (NY: Pearson Education, 2004), 118p.
2. I. S. P. Nation and J. Newton, *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking* (Routledge: New York, 2009), 37p.
3. Krishnaswamy, N., and Lalitha Krishnaswamy, N. *Teaching English: Approaches, Methods and Techniques*, Macmillan India Ltd.
4. Buck, G. (2001). *Assessing Listening*. Cambridge: Cambridge University Press. <http://dx.doi.org/10.1017/CBO9780511732959>
5. Goh, C. (1999). *Teaching Listening in the Language Classroom*. Singapore: SEAMEO Regional Language Centre.
6. Herbert J. Walberg, "Teaching speaking, listening and writing" (IAE Educational Practices Series, 2004), 14.
7. Hasan, A. (2000). Learners' Perceptions of Listening Comprehension Problems. *Language, Culture and Curriculum*, 13, 137-153. <http://dx.doi.org/10.1080/07908310008666595>

8. Vishwanath Bite, “Listening: An Important Skill and Its Various Aspects” (The Criterion: An International Journal in English, 2013), 1p.
9. Underwood, M. Teaching Listening. New York: Longman Limited.1997. 11p.
10. Brown, H. D., 1994. Principles of Language Learning and Teaching. 3rd edition. 104p.

**QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI QAYTA ISHLAB MOTOR
YOQILG'ILARINI OLIISH JARAYONINI O'RGANISH VA
TEXNOLOGIYASINI YARATISH.**

Amirqulov Nuriddin Sayfullayevich.,

Dotcent: « Neft va gaz»

Bo'riyev Alibek Pirmqulovich.

Magistir 2kurs: « Neft va gaz»

Annotatsiya


Chiqindilarni kauchuk va shinalarni qayta ishlashning termal usullari, jumladan piroliz va yoqish usullari keng qo'llaniladi. Piroliz natijasida neft krekingi mahsulotlariga o'xshash moddalar olinadi va shuning uchun neft-kimyo sanoati uchun qimmatli xom ashyo hisoblanadi.

Широко используются термические методы переработки отходов резины и шин, в том числе пиролиз и сжигание. В результате пиролиза получают вещества, аналогичные продуктам крекинга нефти, и поэтому являются ценным сырьем для нефтехимической промышленности.

Thermal methods of waste rubber and tire processing, including pyrolysis and incineration, are widely used. As a result of pyrolysis, substances similar to the products of petroleum cracking are obtained and therefore are valuable raw materials for the petrochemical industry.

Tabiiy muhitni muhofazalashda inson faoliyati ta'siridagi yer qobig'ining ustki qismini tashkil etgan tog' jinslarini, tuproqlarni va yer osti suvlarini zararli moddalar bilan ifloslanishidan, yer sathi tuzilishining o'zgarishidan, surilma, cho'kish, sel, tuproq eroziyasi yoki sho'rlanish, botqoklanish, yer qimirlash kabi salbiy jarayonlardan saqlash, chora-tadbirlar belgilash, hamda yer osti qazilma boyliklaridan omilkorlik bilan foydalanish tabiiy muhitni muhofazalashning geokologik asoslari hisoblanadi. Keyingi yillarda ekologik muhit yomonlashishiga qattiq maishi chiqindilar va boshqa turdagi chiqindilarning ortib borishi sabab bo'lmoqda. Hududlarda maxsus geokologik qidiruv va xaritalash ishlari o'tkazilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda tabiiy muhitni tashkil qiluvchi geologik komponentlarning vujudga kelishi, rivojlanishi va barham topishi qonuniyatlarini bilmasdan turib, biror bir chora-tadbir belgilash yoki ko'rish qiyin.shu sababli chiqindilarni qayta ishlash ustida izlanishlar olib borilmoqda shu qatorda kauchik chiqindilarni qayta ishlash. Kauchuk chiqindilarni qayta ishlashning termal usullari Chiqindilarni kauchuk va shinalarni qayta ishlashning termal usullari, jumladan piroliz va yoqish usullari keng qo'llanilib. Piroliz natijasida neft krekingi mahsulotlariga o'xshash moddalar olinadi va

shuning uchun neft-kimyo sanoati uchun qimmatli xom ashyo hisoblanadi. Texnologik asbob-uskunalarining dizayniga ko'ra, ezilgan kauchuk chiqindilari (metaldan ajratilgan) ham, butun shinalar ham pirolizlanishi mumkin. Piroliz kislorodsiz 500-1000 ° C haroratda sodir bo'ladi. Piroliz jarayonida hosil bo'lgan mahsulotlarning tarkibi va qattiq, suyuq va gazsimon fraksiyalarning nisbati haroratga bog'liq. Piroliz jarayonida hosil bo'lgan mahsulotlar va qattiq, suyuq va gazsimon fraksiyalarning nisbati. Piroliz jarayonida katta miqdordagi issiqlik ajralib chiqadi, shuning uchun uni tashqi tomondan reaktorga etkazib berish faqat jarayonning dastlabki bosqichida kerak bo'ladi. Piroliz uchun o'rnatish sxemasi rasmda ko'rsatilgan. Eskiirgan shinalarni piroliz qilish uchun o'rnatish sxemasi



1 - damper; 2 - vorteksli reaktor; 3 - kuydiruvchi tuzoq; 4 - sovutgich; 5 – distillash ustuni; 6 - issiqlik almashtirgich; 7 - kompressor

Turli haroratlarda shinalar piroliz jarayonining o'rtacha massa balansi Jadvalda keltirilgan.

Mahsulotlar, kaloriyali qiymati	Piroliz harorati, °C		
	500	700	800
Qattiq, % (massa bo'yicha)	60,5	52,0	44,0
Suyuqlik, % (massa bo'yicha)	30,3	27,9	17,7
Gazsimon, % (massa bo'yicha)	6,8	18,2	26,2
Yo'qotishlar, % (massa bo'yicha)	2,4	1,9	2,1

Energiya sarfi, MJ/kg	4,2	5,7	4,6
Mahsulotlarning yonish issiqligi, MJ/kg:			
gazsimon 3	34,018	44,095	37,768
suyuq	44,125	42,080	25,620
qattiq	35,350	33,390	31,080

jadval Shinalar piroliz mahsulotlarining rentabelligi va kalorifik qiymati.

Pirolizning gazsimon mahsulotlari 48-52% vodorod va 25-27% metanni o'z ichiga oladi va yuqori kaloriya qiymatiga ega (34-44 MJ / kg). Ular energiya manbai sifatida ishlatiladi. Qattiq piroliz mahsulotlari (shina koks deb ataladigan) oqava suvlarni og'ir metallar ionlari, fenol va neft mahsulotlaridan tozalashda ishlatiladi. Piroliz natijasida olingan uglerod qorasi rezina birikmalar, plastmassalar ishlab chiqarishda va bo'yoqlak sanoatida faol plomba sifatida ishlatiladi. Kauchuk chiqindilarining piroliz mahsulotlarining suyuq qismi ham yuqori sifatli yoqilg'i hisoblanadi, ammo uni qayta ishlash mahsuloti kauchuk aralashmaning bir qismi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Piroliz yo'li bilan shinalarni qayta ishlash uchun mavjud sanoat qurilmalari yuqori mahsuldorlikka ega (yiliga 30-50 ming tonna chiqindilar). Biroq, amortizatsiya qilingan shinalarni markazlashtirilgan holda utilizatsiya qilish joyiga etkazib berish bilan bog'liq transport xarajatlarining oshishini hisobga olgan holda, bunday chiqindilardan to'g'ridan-to'g'ri ular paydo bo'lgan joyda, ya'ni yirik avtouloularda oqilona foydalanishni ta'minlaydigan kichik quvvatli qurilmalar kerak bo'ladi. korxonalar. Qayta ishlangan shinalar ishlab chiqarish, rezina un, ko'mish, yoqish, yo'l qurilishida foydalanish, piroliz kabi chiqindilarni qayta ishlashning turli sohalarini qiyosiy iqtisodiy tahlil qilgan yapon mutaxassislari oxirgi usul eng samarali degan xulosaga kelishdi. . Ko'rinib turibdiki, shinalarni qayta ishlashda piroliz jarayonidan foydalanishni yanada kengaytirish uning mahsulotlarini ishlatishning eng oqilona usullarini ishlab chiqishga va kauchukni qayta ishlashning turli usullari bilan olingan mahsulotlar narxlarining nisbatiga bog'liq. Kauchuk chiqindilari yuqori kaloriya mahsulotidir, shuning uchun uni energiya manbai sifatida yoqish yo'li bilan utilizatsiya qilish ham juda samarali. Yaponiyada issiqlik energiyasini olish uchun yiliga 200 ming tonna shinalar yoqiladi. Buyuk Britaniyada shinalar ichki diametri 1,8 m bo'lgan vertikal siklonli pech yordamida yoqiladi, bu shinalarni statsionar o'choqqa uzluksiz oziqlantirish, yuqori yonish harorati (1900-2100 °C) bilan tavsiflanadi, bunda barcha po'lat mavjud. shinalarda eritmaga o'tadi, shuningdek suyuq ko'rufning granulyatsiyasi. Bunday pechning mahsuldorligi kamida 1 t / soat, shinaning o'choqda turish vaqti 2-5 minut, chiqindi issiqlik qozonining nominal bug' chiqishi 13,6 ming

tonna / yil. Shinalar tarkibidagi po'lat shunur eriydi, oksidlanadi va shinalarga aylanadi. Shinalar sement pechlarida muqobil yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Eskirgan shinalarni o'choqqa silliqlashsiz yuklash uchun avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqilgan. Jarayon kislorod va asosiy yoqilg'ining to'g'ri dozlash uchun zarur bo'lgan har bir shinning og'irligini aniqlaydigan og'irlik dispenser yordamida rolikli konveyer yordamida amalga oshiriladi, bu esa kompyuter yordamida avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Asosiy yoqilg'i massasining 25% gacha bo'lgan miqdorda shinalardan foydalanish deyarli karbon monoksit emissiyasiz yonish jarayonini tashkil qilish va shinalarning to'liq yonishini ta'minlash imkonini beradi. ishlab chiqarilgan klinkerda (yarim tayyor sement) oksidlar shaklida.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Gamburg D. Yu, Semyonov, V.P. proizvodstvo generatornogo gaza na baze tverdogo topliva // Ximicheskaya promyshlennost'. - 1983. - №5. - s. 4-10.
2. Ximicheskie veshchestva iz uglya. Per. s nem. / Pod red. Yu. Fal'be – M: Ximiya, 1980. – 616 s.
3. Bekaev L.S., Marchenko O.V., Pinegin S.P. i dr. Mirovaya energetika i perexod k ustoychivomu razvitiyu – Novosibirsk: Nauka, 2000. – 300 s.
4. Shilling G.-D., Bonn B., Kraus U. Gazifikatsiya uglya / Per. s nem. i red. S.R. Islamova – M: Nedra, 1986 – 175 s.
5. Glubokaya pererabotka bur'x ugley s polucheniem jidkix topliv i uglerodnix materialov. Otvetstvennyy redaktor chlen korrespondent RAN. G. I. Gritsko.
6. M., Burchakev A.S., Texnologiya i mexanizatsiya podzemnoy razrabotki. Plastovix mestorojdeniy M. 1989; Yermolov V. A. I dr. Mestorojeniya Poleznix iskoraemix 2001. Abdusattor Meliqulov.

SOME WAYS OF INTEGRATING COMPONENTS OF COMMUNICATIVE COMPETENCES IN TEACHING ENGLISH

Nusratullaeva Farzona Izzatullo kizi

Annotation: Teaching foreign languages is an integral part of modern higher education. A top-level specialist should be able to read original literature in the specialty, conduct a scientific conversation, master the skills of summarizing, annotating, independently searching for the necessary information in English. All this allows a person to be a successful and competent specialist in his profession, to be able to learn the latest important and interesting news in science and technology, using foreign websites and other foreign sources of information.

Keywords: ESP, learning, English language, competence, profession.

INTRODUCTION

A modern teacher of a foreign language, carrying out professional activities in a non-linguistic university, is in constant search of new ideas to improve the quality of foreign language training of a future graduate. The higher the student's level of preparation, the more difficult the task. Since the proven effectiveness in the development of foreign language professional communicative competence is shown by the professionalization of education, it is important to create the most realistic conditions for foreign language professional communication¹. The development and practical application of a textbook for special purposes (ESP) can be a relevant and effective tool in the process of training a specialist who has the ability and willingness to participate in a foreign language official/informal communication with adequate use of learned language tools and communication strategies in order to effectively solve professional problems.

MATERIALS AND METHODS

The purpose of the study involves the solution of the following tasks:

-conduct a theoretical analysis of scientific publications on the problem under study;

-propose to use the developed textbook of a foreign language for special purposes as a means of developing foreign language professional communicative competence of students;

-conduct an experimental verification of the results of the study.

RESULTS AND DISCUSSION

¹ Poskrebysheva t.a. Application of ESP as a means of developing foreign language professional communication competence of master students // modern problems of science and education. - 2020. - no. 6.;

Foreign language professional communicative competence is one of the key educational competences. Regarding the future graduate, this is a personal psychological neoplasm formed in accordance with educational programs, supplemented by specialized courses of professional and research activities in the process of higher foreign language education. The unity and interconnection of the communicative and professional components provide an opportunity for higher foreign language education in the process of preparing masters to successfully form their ability and readiness to conduct research and professional activities in a foreign language.

K.E. Bezukladnikov, M.N. Novoselov, B.A. Kruse in his work "Features of the formation of a foreign language professional communicative competence of a future teacher of a foreign language" presents a two-part structure of this competence: an invariant part and a variable part. The authors refer to the invariant part the components of the concept of readiness: motivational, emotional-volitional, attitudinal-behavioral, evaluative components, as well as abilities in cognitive and behavioral aspects².

The following principles were used as the basis for the development of the educational and methodological manual "English for students of special areas"³:

1. The principle of information. This principle was used in the selection of texts for the manual. Authentic modern scientific texts were selected, reflecting the current achievements in science (worldwide or in any particular country) with a description of the details necessary for this: the field of science of the described achievement; background and previous scientific experience in this field; scientists dealing with this issue, their research; description of the study (goals of the study, conducting experiments, obtaining and explaining the results, their evaluation); discussion of future prospects of the issue.

2. The principle of consistency. Topics, grammar block and various thematic and grammar applications are organized as interconnected elements of a coherent system.

3. The principle of creative activity and independence. The text material and tasks of the textbook are selected in such a way as to fully contribute to the development of creative independence and activity of students.

4. The principle of research orientation of lexical material. Working with texts and exercises should help students master the lexical material of the textbook, achieve mastering the thesaurus of the specialty. It is advisable to define the essential characteristics of the allowance. The textbook consists of chapters, which are divided into topics, and topics - into subtopics, sections and subsections. Each topic reflects the

² Klyoster A. M., Elkin V. V., Melnikova E. N. Project-based learning in the system of higher education. Astra Salvensis, 2018, supplement no. 1, pp. 691–698. URL: <https://astrasalva.files.wordpress.com/2018/04/as-suppl-1.pdf>

³ Menke M. R., Paesani K. Analysing foreign language instructional materials through the lens of the multiliteracies framework. Language, Culture and Curriculum, 2018. DOI: <http://dx.doi.org/10.1080/07908318.2018.1461898>

theme of professionally oriented teaching of the English language. Each scientific text is accompanied by a specially prepared list of terms and term combinations.

CONCLUSION

Therefore, using the ESP method, it is possible to achieve the development of foreign language professional communicative competence of undergraduates, the improvement of critical thinking, as well as the creation of favorable conditions for teaching a foreign language in a friendly creative atmosphere aimed at developing the skills to independently compose clear, reasoned statements, as well as participate in discussions. Students studying at a university are most interested in a successful start to their career. Moreover, many of them already work in their specialty at some enterprise, and since a technical university cooperates with very significant and well-known enterprises, the motivation and desire of students to start and develop professional activities at one of these enterprises is very high. Visiting companies, getting acquainted with the production process in practice, the student has the opportunity to find out in advance the features of the company's work, the requirements for candidates. This is a great chance to build a successful career in the near future.

REFERENCES

1. Poskrebysheva t.a. Application of ESP as a means of developing foreign language professional communication competence of master students // modern problems of science and education. - 2020. - no. 6.;
2. Klyoster A. M., Elkin V. V., Melnikova E. N. Project-based learning in the system of higher education. *Astra Salvensis*, 2018, supplement no. 1, pp. 691–698. URL: <https://astrasalva.files.wordpress.com/2018/04/as-supp-1.pdf>
3. Menke M. R., Paesani K. Analysing foreign language instructional materials through the lens of the multiliteracies framework. *Language, Culture and Curriculum*, 2018. DOI: <http://dx.doi.org/10.1080/07908318.2018.1461898>
4. Maiboroda S. V. The Communicative-gornitive Approach to Teaching Foreign Medical Students Coherent Speech. *Pedagogy of Higher School*, 2016, no. 1, pp. 66–68. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25673277>

TIL KOMPETENSIYALAR

Sariqboyeva Zulfiya Yashnarbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti 2 kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada til kompetensiyalarining muhim jihatlari muhokama qilindi. Jumladan, chet til o'quv predmetini nutqiy va til kompetensiyalarini shakllantirish orqali o'qitish masalasi yoritilgan. Shuningdek, mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda maqbul sanalgan samarali texnologiyalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: chet til o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv, nutqiy hamda til kompetensiyalari, samaradorlik, ta'lim bosqichlari, metodlar.

KIRISH

Globalashuv jarayoni dunyo miqyosida jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan sharoitda chet til ta'limi zimmasiga bir qancha muhim vazifalarni yukladi. Bugungi davr chet tildan amaliy foydalanish samaradorligini chet tili o'quv predmetining ham, ta'limning ham asosiy muammosiga aylantirdi. Chet til ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki bu bilimlar orqali ularning kommunikativ malakasini oshirishdir. Ayni damda chet til ta'limida ham tarkibiy bosqich amalga oshirildi: reproduktivlikdan kognitivlikka qadam qo'yildi. Bu degani reproduktiv ingliz tilini o'qitishda o'qituvchi kuzatuvchi, yo'naltiruvchi sifatida o'quvchi esa passiv emas, balki faol sub'ekt sifatida harakat qilmoqda.

ASOSIY QISM

Til kompetensiyasi – punktuatsiya va orfografiya qoidalarini o'rganish takomillashtiriladi. **Leksik kompetensiya** negizida mavzuga oid so'zlarni oddiy matnda to'g'ri ishlata olish, so'z tuzilishi (qo'shma so'zlar va affiksatsiya), boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar (baynalminimal so'zlar) haqida ilk tushunchalarni shakllantirish amal lari bajariladi. **Grammatik kompetensiya** bo'yicha 5-7 sinf o'quvchilari bir nechta grammatik hodisalarni kompetensiyalar negizida bosqichma bosqich sinflar kesimida o'rganishadi. **Fonetik kompetensiyaga** oid tovushlarni gapda va yakka holda tinglaganda farqlay olish, kommunikativ vaziyatlarda gapning kommunikativ turlari (darak, so'roq, buyruq gap)ga mos ravishda ritm va intonasiyadan to'g'ri foydalanish, til tovushlarini, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga nutqda ishlatishni mashq qilish bilimlar o'zlashtiriladi.

Nutqiy kompetensiyaga oid mustahkamlovchi mashqlar. Bunday mashqlar bir vaqtning o'zida til kompetensiyasini ham mustahkamlashda qo'llanilishi mumkin.

Mazkur mashqlarni kichik matnlarni o'qishda foydalanish tavsiya qilinadi. Masalan, "Read the following Passage and select 2 correct answers from 5 options (A-E)", "Match the beginning of each sentence (A-E) with the correct endings (1-7)", "Select the word in each group that does not have the same meaning", "Before you read the text you should ask yourself or from your partner a few questions:

Does the title give me/you a clear idea of the content? 2. Do I/you know anything about this topic? 3. What kind information can I/you expect to find from the text? 4. Can I/you predict the structure of the text from the title?, "Short answer questions. Read the passage on the following page and answer the questions (A-E) with the words from the text. Write NO MORE THAN TWO WORDS or A NUMBER".

Bunday mashqni bajarishda o'quvchi matndan foydalanib, so'ralgan ma'lumot asosida kerakli miqdordagi so'zlarni to'ldirishi kerak. Bu mashqni bajarishda javoblar matnda ketma-ketlikda joylashganligi hamda kerakli raqam yoki so'zlarni to'ldirib javob berish lozimligi o'quvchilarga tushuntiriladi.

Yuqoridagi fikrlarga hamda metodik tavsiyalarga tayanib, o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda kompetensiyalarni rivojlantirish kamarali mashqlar va texnologiyalardan hamda multimedial ta'lim dasturlaridan foydalanib tashkil qilinsa, amaldagi metodik ta'minotni takomillashtirish masalasi hal qilinadi, deb xisoblaymiz.

Chet tili darslaridagi dastlabki daqiqalardan, o'quvchilarga yuqoridagi berilgan mashqlar va texnologiyalardan foydalanilsa, o'quvchilarning xorijiy til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi va zerikishdan yiroqlashadilar. Natijada o'quvchilarning mustaqil, erkin, mantiqiy fikrlash imkoniyatlari kengayadi va kelajakda ularni madaniyatlararo muloqot dialogida ishtirok etish imkoniyati takomillashadi.

O'quvchilar ingliz tilini o'rganish orqali belgilangan kompetensiyalarni samarali egallash masalasi quyidagi amaliy tavsiyalarga binoan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar ma'lum intellektual, ijodiy va kommunikativ bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Bu degani, ular matn bilan ishlashni bilishlari kerak (asosiy fikrni belgilash va ajratish, chet tilidagi matndan kerakli va zarur ma'lumotlarni qidirib topa olishi), ma'lumotni tahlil qila olishlari, kerakli xulosalarni chiqarishni, diskussiya olib borishni bilishlari, suhbatdoshni tinglashni va tushunishni bilishlari kerak.

2. Uzlaksiz ta'lim bosqichlarida har qanday chet tili (ingliz, nemis, fransuz) ni o'qitish va o'rganishda tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini integratsiyalashgan holda tadbiq qilish lozim. Bu o'rinda, chet tilni o'rgatishdagi madaniyat, asosan, ma'lum bir millat, elat, xalqlar hamda milliy qadriyatlar

sivilizatsiyasidagi faoliyatga asoslanadi. Ingliz tilini umumta'lim maktablarida o'qitish, asosan, chet tilini o'qitish maqsadi hamda belgilangan ta'lim mazmunidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'rganiladigan lingvistik, leksik, grammatik, talaffuzdagi birliklarda o'quvchining e'tiborini nutqiy jarayonga qaratish lozim.

3. O'quv materiallarini (mashqlar va texnologiyalar) saralashda uzviylik prinsiplariga rioya qilish kerak. Demak, nutqiy va til komtetensiyani rivojlantirishga oid leksik, grammatik xodisalarga ham qo'shimcha mashqlar va texnologiyalar kiritib boriladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'z.Res. uzluksiz ta'lim tizimining DTS. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun chetillari o'quv dasturi: ingliz tili. DTS. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun chet tillari o'quv dasturi: ingliz til. // "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnal. 4-son (may-iyun) 2013-yil.

2. Matt Purland. Big resource book. Intermediate/level 1. First published in the UK by English Banana.com. 2015 y. 128 pages.

3. www.englishbanana.com online materials.

4. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktikai metodika. – Moskva: 2016. –335st.

АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИНИ ОШИРИШДА КИЧИК БИЗНЕСНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ

Ахмедов Азизбек Муроджон ўгли

*“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси ўқитувчиси,
Наманган муҳандислик-технология институти*

Аннотация. Мазкур мақолада мамлакатимизда фаолият олиб бораётган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолияти ҳамда аҳолининг даромадларини оширишдаги ўрни тўғрисида фикр юритилган. Шунингдек, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари орқали аҳолининг даромадларини оширишга таъсир этувчи омилларни бартараф этиш бўйича амалий тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, аҳоли даромадлари, хизматлар соҳаси, даромадлар, харажатлар, ижтимоий соҳа, прогнозлаштириш.

Мамлакатимизда олиб борилаётган ижтимоий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири, бу кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ҳисобига аҳоли даромадларини ва уларнинг турмуш даражасини оширишга еришиш ҳисобланади.

Бу борада амалаётган жорий қилинаётган чоралардан кўришиб турибдики бугунги кунда кам харажат қилган ҳолда ушбу соҳада қисқа муддатларда даромадлар олиш мумкин. Хусусан бугунги кунда хизматлар соҳасининг бир неча йўналишларини шу жумладан, алоқа, молия, транспорт, қурилиш, туризм хизматлари ва савдо соҳаларини мисол келтириш мумкин.

Бугунги кунда аҳолининг фаровон ва қулай шароитда ҳаёт кечиришлари учун хизматлар соҳасида бир қатор қулайликлар таъминлаб берилмоқда. Натижада мамлакатимизнинг қишлоқ жойларида сервис инфратузилмасининг ривожланиши евазига қишлоқ аҳолисининг яшаш тарзи шаҳар аҳолисининг яшаш тарзига яқинлашмоқда.

Бугунги кун замон талабларидан келиб чиқиб, соҳани ривожлантириш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ҳамда “Хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарорлари қабул қилинди. 2021-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳасини ривожлантириш дастурини амалга ошириш натижасида 2021 йилда хизматлар кўрсатиш ҳажми қарийб 20 фоизга ошди.

Шу билан бирга, хизматлар соҳасини ривожлантиришга янгича ёндашувларни жорий этиш орқали бозор хизматлари ҳажмини 2022 йилда 1,5

бараварга ошириш ҳамда қўшимча 1,5 миллион янги иш ўринларини яратиш имкониятлари мавжуд.

Худудларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, алоҳида ёндашувлар асосида хизматлар соҳасини ривожлантириш, тадбиркорлик субъектларини молиявий ресурслар ва инфратузилма билан таъминлаш ҳамда уларга қулай солиқ режимини жорий этиш мақсадида республика худудларининг аҳолиси сони ва зичлиги, географик жойлашуви, ихтисослашуви ва инфратузилма билан таъминланганлик даражасидан келиб чиқиб, хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг қуйидаги устувор йўналишлари белгиланган:

а) ҳарбир туман ва шаҳарларда:

- бюджет маблағлари ҳисобига 2021-2022 йилларда шаҳарсозлик лойиҳалари асосида мукамал таъмирланган, ташқиёритиш, суғориш ва дренаж тизимлари модернизация қилинган, пиёдава велосипед йўлаклари қурилган ҳамда аҳоли гавжум бўлган кўчалар ни савдо, хизмат кўрсатиш, сайилгоҳ ва кўнгилочар кўчаларга айлантириш;

- рақамли хизматлар улушини босқичма-босқич ошириш учун зарур инфратузилма билан таъминлаш ва сифатли алоқа ва интернет хизматлари қамровини, шунингдек, «Электрон ҳукумат» тизими хизматларидан фойдаланиш кўламини кескин кенгайтириш;

б) Тошкент, Нукус шаҳарлари, вилоятлар марказлари ҳамда бошқа шаҳарларда кўпи билан ҳар 3 — 5 та маҳалла учун аҳоли гавжум бўлган кўчани ободонлаштириб, пиёдалар йўлакчаларини кенгайтириш ва уларни ёритиш орқали маҳаллалараро савдо-хизмат кўчасини ташкил этиш;

в) аҳолиси 300 мингдан кам бўлган туманларда:

- саноат ва хизматлар соҳаси юқори суръатларда ривожланиб бораётган туманларда — савдо, меҳмонхона, овқатланиш ва логистика хизматларини, шунингдек, техник хизмат кўрсатиш ва кўнгилочар масканларни ташкил этишга устуворлик бериш;

- тоғли, тоғолди, рекреацион туризм салоҳияти юқори туманларда автомобиль йўллари, электрэнергияси ва ичимлик суви таъминоти ҳамда бошқа инфратузилмани яхшилаш ва тайёр лойиҳалара сосида туризм хизматларини ривожлантириш;

- чегара худудларда жойлашган ҳамда худудидан халқаро автомагистраль ва темирйўллар ўтган туманларни — савдо, туризм, логистика ҳамда йўлбўйи хизматларини кўрсатишга ихтисослаштириш;

- қишлоқ хўжалиги улуши юқори бўлган туманларда — замонавий агрохизматларни ривожлантириш;

г) ўрта ва йирик шаҳарлар ҳамда аҳолиси 300 мингдан кўп бўлган туманларда — замонавий бозор хизматлари, таълим, тиббиёт, санъат, туризм,

меҳмонхона ва умумий овқатланиш ҳамда транспорт хизматларини ривожлантириш;

д) Тошкент, Самарқанд ва Наманган шаҳарларида — юқоридаромадлихизматларни, айниқса, йирик савдо ва кўнгилочар хизмат кўрсатиш объектларини кўпайтириш, таълим ва тиббиёт муассасалари жойлашган ҳудудларда ихтисослашган кластерлар ташкил этиш.

Сўнги йилларда мамлакатимизда амалга оширалаётган чора-тадбирларнинг барчасини заминид аҳолининг фаровонлигини ошириш, турмуш даражасини яхшилаш бош мақсад бўлиб келмоқда. Мана шу натижаларга еришиш учун кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш муҳим омил вазифасини бажаради. Зеро, бу орқали аҳолининг даромадларини ошириш ва инсонларни рози қилиш бугунги куннинг долзарб вазифасидир.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори, 27.01.2022 йилдаги ПҚ-104-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони, 30.09.2021 йилдаги ПФ-6318-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, 11.05.2021 йилдаги ПҚ-5113-сон.
4. Ахмедов А.М. “Государственная поддержка услуг в Узбекистане” // Экономика и социум Россия, Саратов декабр 2021
5. Собиров О.О. Хўжалик юритувчи субъектларда бошқарув ҳисобини такомиллаштириш йўналишлари. / Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022 йил.
6. Ishimbayev R.N. “Criteria and princiole of capability”// Maista Przynslosci, November P 334-336
7. Султонов Ш.А. Хизмат кўрсатиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик самарадорлигини оширишга таъсир этувчи омиллар ва уларнинг таснифи. // Сервис. – Самарқанд, 2010. № 1. – Б. 49-55.

Интернет ва статистика маълумотлари

1. <http://www.stat.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.mineconomy.uz>

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТ ТУРЛАРИ БИЛАН АЛОҚАДОРЛИГИ

Ахмедов Азизбек Муроджон ўғли

*“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси ўқитувчиси,
Наманган муҳандислик технология институти*

Аннотация. Мазкур мақолада мамлакатимизда фаолият олиб бораётган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий фаолият турлари билан алоқадорлиги тўғрисида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, аҳоли даромадлари, хизматлар соҳаси, даромадлар, харажатлар, ижтимоий соҳа, прогнозлаштириш.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни иқтисодиётни ривожлантириш, аҳоли бандлиги ва даромадларини оширишда муҳим омилдир. Ушбу соҳа вакиллари ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш мақсадида сўнгги йилларда Президентимизнинг элликдан ортиқ фармон ва қарорлари қабул қилинди. Жумладан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини давлат рўйхатидан ўтказиш, турли рухсатномалар олиш ва бошқа кўплаб хизматлар тартиб-қоидалари соддалаштирилди. Бу борада қулайлик яратиш учун Давлат хизматлари агентлиги ва унинг жойлардаги марказлари ташкил этилди. Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил (Бизнес-омбудсман) лавозими жорий қилинди.

Бугунги кунда республикамиз ижтимоий-иқтисодий ҳаётида иқтисодиётни ислоҳ қилиш ва модернизациялаш жараёнлари кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик билан бир қаторда хизмат кўрсатиш соҳасининг янада ривожланишини таъминлашга қаратилган. Ушбу соҳанинг улуши ялпи ички маҳсулотда, иқтисодиётда банд бўлганларнинг таркибида, давлат бюджетига тўланадиган солиқларда, янги иш ўринларини яратиш, мамлакатимиз ички бозорини истеъмол моллари билан тўлдиришда кескин ошиб бормоқда ва келажакда ҳам бу жараённинг давом этишига қаратилган юридик-меъёрий асос яратилган.

Хизматлар соҳасининг мамлакатимиз иқтисодиётидаги улушини кўпайтириш, жойларда хизматлар соҳасидаги мавжуд имкониятларни тўлиқ ишга солиш, хизматлар турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш бўйича ўз ечимини кутаётган муаммоли масалаларни ҳал қилиш, мазкур йўналишда

тадбиркорлик субъектларини янада қўллаб-қувватлаш, уларнинг ғоя ва ташаббусларини рағбатлантириш мақсадида:

- иқтисодий ўсишни таъминлашда хизматлар соҳасини муҳим драйверга айлантириш ва 2023 йилга қадар хизматлар ҳажмини икки бараварга ошириш;

- аҳолига тайёр бизнес режалар ва лойиҳалар тақдим этиш, уларни касбга ўқитишдан тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйишгача бўлган босқичларни қамраб олувчи «комплекс хизматлар» кўрсатишни ташкил этиш;

- республикада хизматлар соҳасининг ривожланганлигини баҳолаш тизимини жорий этиш орқали давлат органлари ва ташкилотларининг бу борадаги фаолияти самарадорлигини ошириш ва мансабдор шахсларнинг масъулиятини кучайтириш;

- хизматлар соҳасида ортиқча бюрократик тўсиқларни бартараф этиш, ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб хизматлар турларини кенгайтириш, ҳудудларда, айниқса қишлоқ жойларда транспорт, молиявий, шунингдек, банк, туризм ҳамда савдо хизматлари қамровини кенгайтириш;

- республиканинг барча ҳудудларида мавжуд таълим ва соғлиқни сақлаш хизматлари салоҳиятини ошириш, уларнинг сифатини яхшилаш, бунда хусусий секторни жалб қилиш учун қулай иқтисодий ва инфратузилмавий шароитларни яратиш кабилар соҳани ривожлантиришдаги муҳим вазифлардандир.

Иқтисодиётни модернизациялаш ва аҳоли фаровонлигини ошириш шароитида хизмат кўрсатиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари самарадорлигини ошириш бугунги кунда мамлакат иқтисодиёти олдида турган муҳим масалалардан биридир.

Хусусан, мулкчиликнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи деб эътироф этилаётган хизмат кўрсатиш соҳасидаги кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари самарадорлигини оширишнинг истиқболини белгилаш, ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш ва шу соҳада илмий жиҳатдан асосланган таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқиш ўта муҳимдир. Чунки бозор муносабатларини такомиллаштиришда, иқтисодиётни янада эркинлаштиришда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, унинг натижасида мамлакат бюджети барқарорлигини таъминлаш, ялпи ички маҳсулотни (ЯИМ) ишлаб чиқариш, аҳоли бандлигини таъминлаш каби долзарб муаммоларни ҳал қилишга эришилмоқда.

2021 – 2022 йилларда Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг МАҚСАДЛИ ПАРАМЕТРЛАРИ

Т / р	Хизматларноми	2020 йил	2021 йил	Прогн оз (фоиз)
-------------	---------------	----------	----------	-----------------------

		ҳажми, млрд. сўм	Ўсиш суръа т, фоиз	ҳажми, млрд. сўм	Ўсиш суръа т, фоиз	2022 Йил
	Жами хизматлар	218 853,50	102,3	284 165,40	119,5	128,6
	шу жумладан асосий турлари бўйича:					
1	Алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари,	12 885,90	115,3	17 755,10	126,4	133,6
2	Молиявий хизматлар,	45 817,20	125,6	59733,3	128	135,2
3	Транспорт хизматлари,	53 772,50	91,6	67 238,60	115,7	125,9
4	Яшашваовқатланиш хизматлари	5 878,50	86,5	8375,4	132,3	136,3
5	Савдо хизматлари	56 553,90	101,7	72 483,30	112,3	125,8
6	Кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар	6 089,70	91,1	8081,1	123,1	125,4
7	Таълим соҳасидаги хизматлар	9 073,00	107,4	12 021,80	130,8	128,7
8	Соғлиқни сақлаш соҳасидаги хизматлар	3 209,40	89,9	5105,9	128,5	136
9	Ижара хизматлари	4 172,10	98,9	5 351,00	118,7	125,3
1 0	Компьютерлар ва маиший товарларни таъмирлаш бўйича хизматлар	3 407,40	96,1	4680,5	122,9	124,5
1 1	Шахсий хизматлар	4 983,30	92,1	6 764,10	114,4	124,5
1 2	Меъморчилик, муҳандислик изланишлари, техник синовлар ва таҳлил соҳасидаги хизматлар	4 925,70	93,7	6306,8	117,9	123,8
1 3	Бошқа хизматлар:	8 084,70	98,3	10 268,50	113	123,2

Ҳозирги кунда хизматлар соҳаси иқтисодийнинг энг истиқболли ва жадал ривожланаётган тармоқларидан бири ҳисобланади. Кўрсатилаётган бозор хизматлари турларининг рўйхати жуда хилма-хил бўлиб, булар савдо ва транспорт хизматларидан тортиб молиявий, суғурта ва турли хил воситачилик хизматларидан иборат. Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотлар доирасида чора-тадбирларнинг давом эттирилиши хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш имконини бермоқда. 1-жадвалда 2021 — 2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг мақсадли параметрлари берилган бўлиб, хизматлар соҳасининг турлари бўйича 2021-2023 йилларгача бўлган прогнозлари амалга оширилган. Унга кўра 2021-йилда жами хизматларнинг ўсиши 120,7 фоизга ўсиши кутилган. Яқунда еса бу кўрсаткич 284165,4 млрд. сўмни ташкил қилиб, 129,8 фоизга ошди. Бу еса ўз навбатида соҳани ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар ўз самарасини бераётганлигидан далолат беради.

Мазкур соҳани ривожлантириш учун маълум шарт-шароитларнинг яратилиши, солиқ, божхона ва бошқа тўловлар бўйича имтиёзларнинг белгиланиши, банк кредитларидан самарали фойдаланиш натижасида қисқа давр ичида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг сони тобора ошиб бормоқда. Лекин, бу борада айрим муаммолар мавжуд. Бунинг асосий сабаби кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг бугунги кун талабига мос иқтисодий механизмнинг яратилмаганлиги, улар фаолиятида иқтисодий воситалардан фойдаланиш, хўжалик юритувчи бошқа субъектлар билан иқтисодий алоқалари ва давлат ҳокимият органлари билан муносабатларининг такомиллашмаганлигидир.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори, 27.01.2022 йилдаги ПҚ-104-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони, 30.09.2021 йилдаги ПФ-6318-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, 11.05.2021 йилдаги ПҚ-5113-сон.
4. Ахмедов А.М. “Государственная поддержка услуг в Узбекистане” // Экономика и социум Россия, Саратов декабр 2021

5. Собиров О.О. Хўжалик юритувчи субъектларда бошқарув ҳисобини такомиллаштириш йўналишлари. / Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022 йил.
6. Ishimbayev R.N. “Criteria and princiole of carability”// Maista Przyslosci, November P 334-336
7. Султонов Ш.А. Хизмат кўрсатиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик самарадорлигини оширишга таъсир этувчи омиллар ва уларнинг таснифи. // Сервис. – Самарқанд, 2010. № 1. – Б. 49-55.

Интернет ва статистика маълумотлари

1. <http://www.stat.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.mineconomy.uz>

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING TUTGAN O'RNI

*Axmedov Azizbek Murodjon o'g'li,
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi o'qituvchisi,
Namangan muxandislik – texnologiya instituti.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tutgan o'zni hamda mazkur sohani yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, aholi daromadlari, daromadlar, xarajatlar, ijtimoiy soha, korxonalar.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri mulkdorlar sinfini vujudga keltirishga yordam beradigan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Kichik biznes jamiyat hayotining barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga o'z ta'sirini ko'rsata oladi. O'zbekistom o'zining yangi iqtisodiy islohotlar yo'lini joriy etish va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini keng rivojlantirib, o'zining qonun qoidalariga suyangan holda tadbirkor, ishbilarmon va biznesmen kishilarga qulay shart-sharoit yaratib berishga intilmoqda.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati o'zini erkin iqtisodiy sharoitda qaror topishini isbotladi. Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatini muayyan bilimlarga asoslanib tavakkal qilingan va shaxsiy mulk ishtirok etgan faoliyat turi sifatida qarash mumkin. Sodaroq aytganda, tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining bosh bo'ginini tashkil etadi. Ya'ni, tadbirkorlikning qaror topishi natijasida alohida pul daromadlari shakllanadi. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun turli usullar bilan qo'llab-quvvatlashimiz zarur. Bu bilan nafaqat aholining pul daromadlarini oshirishga, balki mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishga erishiladi. Kichik biznes bu iqtisodiyotning yangi va quyi pog'onadan shakllanib kelayotgan, bir so'z bilan aytganda yosh tarmoq sifatida qaraladi. Ushbu tarmoqqa e'tiborni kuchaytirish iqtisodiyotni tanglik holatidan chiqib ketishning eng to'g'ri yo'li bo'lib xizmat qiladi. Xususiy tadbirkorlikni tashkil etishdan maqsad iqtisodiyotdagi sust faoliyat yuritayotgan tarmoqlarni faollashtirish hamda integratsiyalashuv yordamida tarmoqlarni yangi muhitga o'rgatib borishdan iborat. Xususiy tarmoqni rivojlantirish istiqbollari haqida ta'kidlaganimizda biz, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutayotganimizga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Chunki rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy tarmoq odatda, kichik biznes, tadbirkorlik hamda xizmat ko'rsatish sohalarida rivojlangan. Bunday davlatlarda xusuiy tarmoqning YaIMdagi ulushi 50-60%ni tashkil etadi.

Mahnat bilan band bo'lgan aholining 65-70%i esa aynan mana shu sohada faoliyat ko'rsatadi. Shu bois, biz aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilishini va u joylarda iqtisodiy turmush tarzi va faollikni oshirish naqadar muhimligini inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan xususiy sektorni, aynan kichik va xususiy biznes faoliyatini rivojlantirish naqadar zarur ekanligini bilishimiz mumkin.

Bugungi kunda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2021 yilda 54,9 foiz, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari 27,0 foizni tashkil etdi, shuningdek, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 74,4 foizi ham shu sohada faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi vaqtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdo, xizmat ko'rsatish va aloqa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini ham qamrab olganligi ham ma'lum. Ayni paytda mamlakatimizda bu sohada hali ishga solinmagan juda katta salohiyat va imkoniyatlar mavjud ekanini, dunyodagi taraqqiy topgan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulot hajmida yetakchi va hal qiluvchi o'rinni egallayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bu yo'nalishda qilinadigan ishlarimiz naqadar ko'p ekanligidan dalolat beradi. Hukumatimiz tomonidan 2021 yilda qabul qilingan "Kichib biznes va xususiy tadbirkorlik" Davlat dasturida belgilangan vazifalar ham tadbirkorlik faoliyati erkinligi ishonchli tarzda himoya qilinishini ta'minlash, mazkur yo'nalishda juda qulay ishchanlik muhitini yaratish, bu sohadagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish chora tadbirlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni huquiy va institutsional ta'minlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlariga asoslangan sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiyyadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ishtirok etishi, ularning mintaqaviy va jahon bozorlariga chiqishi masalalarini o'z ichiga oladi. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirish va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamochimizki, kichik biznes subyektlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar asl maqsadini uning o'ziga xosligi bilan izohlashimiz mumkin. Xususan,

- kichik biznes korxonalarini o'zining tuzilishiga ko'ra va ixchamligi sababli yirik korxonalarga nisbatan bozor talablariga tezroq moslashadi;
- yangi ish o'rinlarini yaratish yirik korxonalarga nisbatan ko'proq foyda beradi;
- jamiyatda siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi bosh omil o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bajara oladi;

- raqobat muhitini yuzaga keltiradi hamda iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashi bilan moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarini samarali taqsimlanishiga yordam beradi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ahamiyati yuqori ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. *Xalq so'zi gazetasi, 13 dekabr 2017 yil*
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 30.09.2021 yildagi PF-6318-son
3. Sul'tonov Sh.A. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va ularning tasnifi. // *Servis. – Samarqand, 2010. № 1. – B. 49-55.*
5. Sul'tonov Sh.A., Raxmatov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotni rivojlantiridagi roli. // *Samarqand, 2019 yil 22-23 fevral.*
6. Ishimbayev R.N. "Criteria and princiole of capability"// *Maista Przyslosci, November P 334-336*
7. Axmedov A.M. "Государственная поддержка услуг в Узбекистане" // *Экономика и социум Россия, Саратов декабр 2021*

Internet va statistika ma'lumotlari

1. <http://www.stat.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.mineconomy.uz>

O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIĞI – IJTIMOİY TAJRIBANI
O'ZLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSI SIFATIDA

*Qarshiboyeva Gulnoza Abduqodirovna, psixol.fan.fal.dok.
Saloxiddinova Aziza Oybek qizi, magistr
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning bilish faolligi – ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning psixologik asosi to'g'risida so'z yuritilib, bilish tafakkurning bilinayotgan predmetga yaqinlashuvi, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan, to'la va mukammal bilimga qarab harakat qilishdan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Bilish, tafakkur, predmetga yaqinlashuvi, fikr, to'la va mukammal bo'lmagan bilim, cheksiz jarayon.

Аннотация: В статье говорится о познавательной деятельности учащихся - психологической основе овладения социальным опытом, знание есть приближение мышления к познаваемому объекту, мысль переходит от незнания к знанию, от полного и несовершенного знания, полное и представляет собой никогда - завершающий процесс движения к совершенному знанию.

Ключевые слова: Знание, мышление, приближение к объекту, мысль, полное и несовершенное знание, бесконечный процесс.

Annotation: The article talks about the cognitive activity of students - the psychological basis for mastering social experience, knowledge is the approximation of thinking to a cognizable object, thought moves from ignorance to knowledge, from complete and imperfect knowledge, complete and represents a never - final process of movement towards perfect knowledge.

Keywords: Knowledge, thinking, approaching an object, thought, complete and imperfect knowledge, endless process.

Insoniyat azal-azaldan o'zini qurshab turgan olam haqida tobora ko'proq narsalarni bilishga intilib kelgan. Bu esa yillar o'tib borishi bilan yangidan-yangi, murakkab ixtiro va kashfiyatlarni yaratilishiga olib kelmoqda. Bugungi kungacha insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ixtirolar ularning olamdagi narsa va hodisalarni bilmaslikdan bilishga qarab, kam bilishdan tobora ko'proq bilishga tomon bo'lgan ehtiyojlari, qiziqishlari, hamisha intilib yashashga undagan bu jarayon – bilish jarayonining nima ekanligini to'la anglab olish juda muhimdir.

Bilish nima? Bilish – moddiy olamning inson ongida in'ikos etish jarayonidir. ya'ni:

- ob'ektiv olam bizning sezgi va tasavvurlarimizga bog'liq bo'lmagan holda undan tashqarida mavjud. Ob'ektiv olam inson sezgi va tasavvurlarning manbai;

- inson dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishi mumkin.

Inson sezgi, tasavvur va tushunchalarida o'ziga bog'liq bo'lmagan tashqi olam mazmunini in'ikos ettiradi.

Bilish tafakkurning bilinayotgan predmetga yaqinlashuvi, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan, to'la va mukammal bilimga qarab harakat qilishdan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi. Bilish eskirib qolgan nazariyani yangi nazariyalar bilan almashtirib eski nazariyalarni yanada aniqlab, olg'a qarab boradi hamda voqelikning tobora yangidan-yangi tomonlarini ochadi.

Bilish ikki bosqichdan: jonli mushohada (sezish) va mavhum tafakkur (fikrlar)dan iboratdir.

Bilishning boshlang'ich bosqichi jonli mushohada, ya'ni ob'ektiv dunyoning buyumlarini bevosita sezgi a'zolari yordamida aks ettirishdir.

Ibn Sinoning fikricha, "sezish – bu shunday ta'sirki, u tashqi narsalarning o'zi bo'lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. his moddiy obrazning oynasi bo'lib, moddiy shakllarning bo'yi, uni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz in'ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi".

Faylasuflarning ta'kidlashicha, jonli mushohadaning bilishdagi roli muhimdir, uni yordamida dunyo haqida aniq bilimlar kelib chiqadi. Lekin bilishning bu bosqichi ma'lum darajada cheklangan. Bu bosqichda narsa va hodisalarning ba'zi bir tomonlari va xususiyatlarinigina bilib olish mumkin.

Mavhum tafakkur hissiy bilishdan sifat jihatdan farq qiladi. U bevosita aniq bitta predmetdan uzoqlashib, bir nechtasiga xos bo'lgan umumiylikning mohiyatini ochib beradi. Bundan tashqari sezgi obrazlari tashqi olamning in'ikosidir, ya'ni tashqi olam sezgimizga qanday ta'sir qilsa, shundayligicha aks etiladi. Tafakkur obrazlarida esa boshqacharoq, unda tashqi olamning ichki mohiyati, aloqa va bog'lanishlari hamda rivojlanish qonun va qonuniyatlari aks etadi. Falsafaga doir kitoblarda tafakkur obrazlarining uchta asosiy xususiyati ajratib ko'rsatiladi:

1. Tafakkur obrazlari mavhumlik xususiyatga ega, ya'ni tafakkur obrazlari hosil bo'lishi uchun ifoda qilinayotgan tashqi olam bevosita ko'z oldimizda bo'lishi shart emas.

2. Tafakkur obrazlari umumlashgan xususiyatga ega. Umumlashtirish esa bizga ta'sir etayotgan narsa yoki hodisaning barcha sifat va xususiyatlaridagi muhim bo'lmagan ikkinchi darajalilarni chetga surib, asosiy tomonlarini taqqoslash va fikran bir-biri bilan bog'lashdir.

3. Tafakkur obrazlari til bilan bog'liqdir. Bilish jarayonida paydo bo'layotgan har bir tushuncha til orqali ro'yobga chiqadigan ong omilidir.

Bilishning falsafiy talqiniga asoslanib, uning pedagogik-psixologik talqiniga e'tibor qaratamiz.

Bilish-psixologik aks etish jarayoni, bilimlar hosil bo'lishi va o'zlashtirilishning ta'minlovchisi. Bilish psixik bilish jarayonlari orqali amalga oshadi: sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol, nutq. Bilishning maqsadi esa xolis haqiqatga erishish bo'la oladi. Bilishning vazifasi – umumiy tarzda jamiyat rivojining muhim jihatlarini ochib berishdan iborat. Bu esa amaliy faoliyat natijasida ya'ni bilishning ikkinchi darajasini keltirib chiqaradi. Hissiy va mantiqiy bilishni bir qatorda qo'yish mumkin holda, ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki ular bir-biriga o'tadi, shu bilan birga, bir-birini to'ldirib turadi. Bilish jarayoni oldindan bilish, xayol qilish, tahmin qilish kabi fikrlash faoliyati bilan qo'shilib amaliy faoliyatda oldin qo'lga kiritilgan yutuqlarga, bilimlarga tayanib narsa-xodisalarning keyingi rivojini aniqlash imkonini beradi.

Endi esa, faoliyat tushunchasiga aniqlik kiritishimiz zarur. Chunki biz yuqorida bilish nima ekanligini ham falsafiy, ham psixologik ta'rifini berishga harakat qildik.

Agar hayvonlarning hatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan chambarchas bog'lansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirib boriladi. Hatti-harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, psixologiyada uni atash uchun maxsus atama – faoliyat atamasi qo'llaniladi. Faoliyat ehtiyoj, motiv (sabab)lar asosida kelib chiqib ma'lum bir maqsadga yo'nalgan bo'ladi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda faoliyat tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: faoliyat – kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

Faoliyat – voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish kishilarga ta'sir ko'rsatadi. Bilish ham ana shunday faoliyat turlaridan biri bo'lib, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning asosi, mahsulidir. Insonning aql kuchi haqida, uning murakkabligi to'g'risida ko'plab afsona va kitoblar yozilgan. Kundan-kunga insonning butun qudrati yangidan-yangi dalillarga olib kelmoqda. Inson o'z hayotining birinchi davrida, ya'ni bolaligida esa – dunyodagi eng yordamga muhtoj jonzotdir.

Agar bir inson bolasini hayot yo'lini tahlil qiladigan bo'lsak, o'ziga xos tarixiy davrlar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Buni insoniyat tarixini davrlashtirish bilan taqqoslaydigan bo'lsak, odamzot tarixining boshi – ibtidoiy jamoa tuzumi bilan uning bolalik davri o'rtasida o'xshashlikni yaqqol ko'ramiz. Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixining qariyb to'qson foizini (90%) qamrab olsa, odamzotning bolalik davri uning hayotining 25% (yigirma besh foizini) tashkil etar ekan. Mashhur pedagog-psixolog olim N.F.Talizina bu jihatdan hayratlanib, nega insonning bolaligi shunday uzoq davom etishi xaqidagi savolni ko'ndalang qo'yadi. Haqiqattan ham, hech o'ylab ko'rganmisiz, nega insonning bolaligi shunday uzoq davom etadi. Bu savolga har kim

turlicha javob beradi. Kimdir tabiat qonuni deya izohlasa, yana kimdir YAratganning karomati bilan bog'laydi. Biz esa bu borada chuqur tadqiqot olib borgan olimlarning tadqiqotlariga asoslanib mulohaza yuritamiz. Olimlar bu savolni echimini odamzot hayotini hayvonot olami bilan taqqoslab topishga harakat qilganlar. Hammaga yaxshi ma'lum, qarg'a 200-300 yil yashaydi, bolaligi esa hammasi bo'lib bir necha oynigina o'z ichiga oladi. Boshqa qushlar va hayvonlar ham odatda hammasi bo'lib bir necha oydan so'ng bolaligini o'zining hayvonot dunyosida mustaqil hayot tarziga almashtiradi. Inson bolaligi esa yillar, o'n-o'n bir yoshlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ko'pincha jamiyatga foyda keltiradigan tarzda tayyorlash faoliyati inson hayotining chorak qismini egallaydi. Tadqiqotlardan ma'lumki, jonivorlarda ajdodlari tomonidan egallangan tajriba, avlodlarga nerv mexanizmlari yordamida tayyor holda ko'chib o'tadi, ya'ni meros qoldiriladi. Jonivorlar tayyor xulq-atvor normalari bilan tug'iladi, unga hayot davomida orttirilgan tajriba bu normalarni aniq sharoitlardagina qo'llay olish uchun kerak bo'ladi. Inson esa tajribani meros sifatida qabul qilmaydi, uning taraqqiyoti biologik jihatga qaram bo'lib qolmaydi, aksincha ijtimoiy hayot tarzidagina shakllanadi, ularsiz inson mavjud bo'la olmaydi. Bu xaqida hayvonlar orasida o'sgan bolalar haqidagi voqealar yaqqol dalolat beradi. Ulardan biri haqida fransuz faylasufi E.Kondil'yak ham o'zining "Sezgilar haqida traktat"larida yozib qoldirgan. U litvalik ayiqlar orasida yashagan bola haqida yozadi. Bola gapira olmaydi, hech qanday aql-zakovatga ega emas, g'alati tovushlar chiqaradi, umuman, insonga o'xshamaydi.

Bu haqida ko'r-saqov tug'ilganlar ustida olib borilgan kuzatishlar ham gapirishga imkon beradi. Agar bunday bolalar bilan maxsus ish olib borilmasa, u holda o'zi o'tirishni o'rgana olmaydi, yura olmaydi hamda gapirish, fikrlash, inson faoliyatining murakkab shakllarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. Qachonki shunday ko'rish, eshitish qobiliyatisiz tug'ilganlar maktabga borganda, u holda ular bilan ish oddiy harakatlar – o'tirish, turish, yurishni o'rgatishdan boshlanadi.

N.F.Talizinaning fikricha, bularning hammasi va shularga o'xshash faktlar inson dunyoga hech qanday xulq-atvor shakllari bilan dunyoga kelmasligidan dalolat beradi. Uning taraqqiyoti ichkaridan tayyor ochiq emas yo'ldan boradi, insoniy qobiliyatlar esa garovga olinib, u tajriba yo'li orqali avlodlarga ajdodlar tomonidan to'plab boriladi (A.N.Leont'ev, N.F.Talizina). Inson ana shu sababli o'z ajdodlarini kifti(elka)sida ko'tarib yuradi, ularning ko'p asrlik tajribalaridan foydalanadi. Inson tayyor mantiqiy fikrlash bilan tug'ilmaydi, tayyor dunyo haqidagi bilimlarga ham ega bo'lmaydi. Lekin u boshqatdan mantiqiy fikrlash qonuniyatlarini, ma'lum jamiyat-tabiat qonunlarini kashf etmaydi. Bularning hammasini u hayot jarayonida o'zlashtiradi. Inson tayyor holda tarixiy bilimlarga yoki musiqa chala olish qobiliyatiga ega bo'lib tug'ilmaydi: u ularni o'tmish dunyosiga, musiqa olamiga faol kirib borish orqali egallashi mumkin.

Agar bola keyinchalik tarix fanini o'rganishda o'zining shaxsiy hissasini qo'shsa, bilingki, bu sababsiz yuzaga kelmagan. Bu dastlab bolada ota-onaning yordami bilan amaliy faoliyat jarayonida o'zlashtirilsa, so'ngra maxsus kishilar – o'qituvchilar ko'magida rivojlanib boradi. Maktabdagi ta'lim yillari – bu insoniyat tajribasining ilmiy, ahloqiy, estetik va boshqa shakllarini o'zlashtirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan yosh davridir. Bolaning kelajagi ham ana shu ijtimoiy tajribani o'zlashtirganiga, qanday o'zlashtirganiga bog'liq bo'ladi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ғозиев Э. Психология. – Т.: Ўқитувчи, 1994. –Б. 136.
2. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 63.
3. Хасан Б.И. Конструктивная психология конфликта. СПб., М. “Изд-во” 2003.
4. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists. – 2020. – Т. 1. – №. 10 (79). – С. 48-49.
5. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 459-464.
6. Қаршибоева Г.А. Ўсмирларнинг хулқ-атворидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
7. Қаршибоева Г.А. Ўқувчиларда касбий установкаларнинг шаклланишининг психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
8. Каршибоева Г. А. Эмоциональные аспекты при суицидальной поведении подростка //EDITOR COORDINATOR. – 2021. – С. 304.
9. Каршибаева Г. А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 651-656.
10. Каршибоева Г. А. Психопрофилактические меры по предупреждению суицидного поведения у подростков: Каршибоева Гульноза Абдукодировна, Джизакский государственный педагогический институт-старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 2-Махсус сон. – С. 298-305.
11. Каршибоева Г. А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением//Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 10-1 (79). – С. 48-49.
12. Каршибаева Г. А. Аспекты социально психологического исследования суицидального поведения подростков //Мир образования-образование в мире. – 2021. – №. 1. – С. 50-56.

13. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 7. – С. 54-59.
14. Каршибоева Г.А.. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. – 2021. – №. 22. – С. 84-89.
15. Каршибаева Г. А. Причины суицида и факторы риска //Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе. – 2021. – С. 90-96.
16. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.
17. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)
18. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
19. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
20. Каршибаева Г.А., Валиева Ч. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.
21. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқнинг олдини олишда амалга оширила-диган психопрофилактик чора-тадбирлари. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” илмий услубий журнал, 2021 йил, махсус сон. 298-305 ст.
22. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р. Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.
23. Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.
24. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқни пайдо бўлишида ижтимоий функциялар бузилишининг психологик ҳолатлари. Psixologiya ilmiy jurnali/ Вухоро. №4, 2020 101-104 бб
25. Umida IBAIDULLAYEVA, Rustam ABDURASULOV The influence of the level of conflict of adolescents on their psychological level/
26. R Abdurasulov, U Ibaydullayeva METHODS OF OVERCOMING INTERNAL CONFLICTS BETWEEN TEENAGERS/Архив Научных Публикаций JSPI, 2020
27. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). Ota-ona va farzandlar ortasidagi inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam korsatishning oziga xos xususiyatlari.

- Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 471–473. Retrieved from
28. Qarshiboyeva, G.A., Ibaydullayeva, U., Oila psixologiyasi// O'quv qo'llanma/ 2022, b.256
29. Ibaydullayeva, U., OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI NIZONING PSIXOLOGIK OMILLARI//Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali.
30. Абдурасулов Рустам Абдураимович Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, The influence of motivation on the formation of personality traits//Journal of Physical Education and Sport (JPES)
31. Ibaydullaeva Umida, he Effect of the Level of Conflict on the Characteristics of Adolescents//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology
32. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Низолашув даражасининг характерни шаклланишидаги аҳамияти//Замонавий тадқиқотлар, инновацияларнинг долзарб муаммолари ва ривожланиш тенденциялари: ечимлар ва истиқболлар Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами
33. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Ўсмирлар характер хусусиятларига низонинг таъсири//Ишлаб чиқаришнинг техник, муҳандислик ва технологик муаммолари инновацион ечимлари // Халқаро миқёсидаги илмий-техник анжуман материаллари//Жиззах Политехника Институту//2021/10//267-270
34. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Роль отношения родителей к ребенку при разрешении конфликтов//журнал Вестник интегративной психологии/2021/10//132-135ст.
35. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Низоли вазиятларда ўсмирларнинг хулқ-атвор типлари хусусиятлари//журнал Психология//БухДу/2021/10//95-100б
36. Ibaydullaeva Umida, Peculiarities of providing psychological assistance in crisis situations between parents and children//International Journal For Innovative Engineering and Management Research//2021/2//236-238p
37. Абдурасулов Рустам Абдураимович, Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Ўсмирлар тарбиясида оиланинг ўрни//“Ўзбекистонда оила масалаларини илмий-амалий тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлари” мавзусидаги ONLINE Республика илмий-амалий конференцияси//2020/11//104-108б
38. Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш//Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б
39. Абдурасулов Рустам Абдураимович, Ибайдуллаева Умида Рустамжоновна, //Ўсмирлик даврида шахс шаклланишига таъсир этувчи омиллар//Хотин-

қизларнинг фан, таълим, маданият ва инновацион технологияларни ривожлантириш соҳасидаги ютуқлари // Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари//2019/5//167-169б

40. Ibaydullaev T. G. PHILOSOPHICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS OF THE CLASSIFICATION AND GENESIS OF CLOTHES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 754-757.

41. Ibaydullayev T. G. ETHNIC CLOTHS AS A MAIN FACTOR OF NATIONAL CULTURAL DEVELOPMENT //EurasiaScience. – 2019. – С. 119-120.

42. Ибайдуллаев Т. ГАРМОНИЯ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ШВЕЙНОЙ КУЛЬТУРЫ И СОВРЕМЕННОСТИ // Научно-просветительский журнал "Наставник". – 2021. – No 1. – С. 92-95.

43. Ibaydullaev T. A study of national clothes and games as an individual part of cultural heritage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 6. – С. 13-15.

44. Ибайдуллаев Т. КЛАССИФИКАЦИЯ УЗБЕКСКОГО ТРАДИЦИОННОГО КОСТЮМА (В РАЗРЕЗЕ АНАЛИЗА ЖЕНСКИХ КОСТЮМОВ) //InterConf. – 2021.

45. Ибайдуллаев Т. Г. Философско-культурные основы древнего казахского и киргизского костюма //Онтологические и социокультурные основания альтернативного проекта глобализации.—Екатеринбург, 2021. – 2021. – С. 118-121.

46. Ибайдуллаев Т. Г. УЗБЕКСКАЯ НАЦИОНАЛЬНАЯ ОДЕЖДА В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ //Культура в евразийском пространстве: традиции и новации. – 2020. – С. 56-62.

47. Qarshiboyeva, G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.

48. Каршибаева, Г. А., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.

49. Qarshiboyeva, G.Хаётни севиб яшанг!. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-48.

50. Qarshiboyeva, G. Психологик маслаҳат. Архив Научных Публикаций JSPI.

51. Qarshiboyeva, G., & Abdurasulov, R. Oquvchi sportchilarning intilish darajasi. Архив Научных Публикаций JSPI.

52. Каршибаева, Г. А.Особенности суицидального поведения в подростковом возрасте. Молодой ученый, (7), 663-665.

53. Каршибаева, Г. А.Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.

54. Каршибаева, Г. А. Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
55. Каршибаева, Г. А., Норбекова, Б. Ш., & Туракулов, Л. Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).
56. Каршибаева, Г. А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый, (5), 581-584.
57. Karshiboeva, G. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением. EurasianUnionScientists, 1(10 (79), 48-49.
58. Karshibayeva, G. Diagnostics and Preventive Measures against the Suicidal Behavior of Teenagers. YOUNG SCIENTIST USA.
59. Каршибаева, Г. А., Б. У. Расулов, Д. Р. Расулова, О. Э. Эшмуратов. Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка : непосредственный // Образование и воспитание. — 2018. — № 2 (17).
60. Abdurasulov R.A., Karshiboeva G.A, Turakulov L.T. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION

OILA FUNKSIYALARNING IJTIMOYIY TUZILMA SIFATIDA BIR QATOR PSIXOLOGIK JIHLARI

*Qarshiboyeva Gulnoza Abduqodirovna, psix.fan.fal.dok.
Baratullaeva Dilnoza Habibullo qizi, magistr
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Maqolada oila funksiyalarning ijtimoiy tuzilma sifatida bir qator psixologik jihatlari haqida soʻz yuritilib, oilada shaxs voyaga yetadi, ongi, fikri, dunyoqarashi shakllanadi, hamda inson oʻzini faqat oilada baxtli tinch-totuv maskan sifatida qabul qiladi. Mamlakatimizda ham oilalarning ijtimoiy muommolarini yechish, farovonlikni taʼminlash orqali moddiy-maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash bilan ularning psixologik himoya qilishimiz ham mumkin boʻladi.

Kalit soʻzlar: ongi, fikr, dunyoqarash, baxtli tinch-totuv maskan, ijtimoiy muommolar, farovonlik, moddiy-maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash, psixologik himoya.

Аннотация: В статье говорится о ряде психологических аспектов функционирования семьи как социальной структуры, в семье человек взрослеет, формируется его разум, мысли, мировоззрение, и человек воспринимает себя как счастливое и спокойное место только в семья. В нашей стране можно будет решить социальные проблемы семей, обеспечить их благополучие, защитить их психологически материальной и моральной поддержкой.

Ключевые слова: сознание, мысль, мировоззрение, счастливое спокойное место, социальные проблемы, благополучие, материальное и духовное обеспечение, психологическая защита.

Annotation: The article talks about a number of psychological aspects of the functioning of the family as a social structure, in the family a person grows up, his mind, thoughts, worldview are formed, and a person perceives himself as a happy and peaceful place only in the family. In our country, it will be possible to solve the social problems of families, ensure their well-being, protect them psychologically with material and moral support.

Key words: consciousness, thought, outlook, happy peaceful place, social problems, well-being, material and spiritual security, psychological protection.

Har qanday jamiyatning maʼnaviy negizi-oila. Davlatning rivojlanishida oilaning mustahkam boʻlishi bevosita oilaning ijtimoiy rolining muhim ekanligidan dalolatdir. Sogʻlom oilaviy munosabatlarning shakllanishi avvalo, jamiyatning ijtimoiy tartibini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Oilada shaxs voyaga yetadi, ongi, fikri, dunyoqarashi shakllanadi, hamda inson oʻzini faqat oilada baxtli tinch-totuv maskan sifatida qabul qiladi. Mamlakatimizda ham oilalarning ijtimoiy muommolarini

yechish, farovonlikni ta'minlash orqali moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash bilan ularning psixologik himoya qilishimiz ham mumkin bo'ladi. Xususan yoshlarga oid davlat siyosatida ham — oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar berish tizimini rivojlantirish alohida qayd etib o'tilgani bejiz emas.

Oilaviy hayot islom dinida ham muqaddas sanalib barcha yo'l va ko'rsatmalar berilgan. Barcha zamonlar va makonlarda insoniyatga ikki dunyo saodat yo'lini ko'rsatib beruvchi dini — Islom orqali oilaviy hayotning mukammal ta'limotlarini joriy qildi. Ushbu ta'limotlarga ixlos bilan amal qilganlar oilaviy baxt nashidasini surib keldilar va kelmoqdalar. Oila va undagi munosabatlar hamisha tashqi psixologik ta'sirida bo'ladi. Hozirgi vaqtda oilalarda sog'lom psixologik muhit yaratishda quyidagi psixologik himoya choralarini ko'rishimiz mumkin:

- sog'lom turmush tarzi, jismoniy faollik orqali tashkil qilish;
- boy tarixiy an'analarimiz, qadriyatlarimizga asoslangan milliy tarbiyaviy;
- intellektual avlodni tarbiyalashda internet madaniyatni, axborot iste'moli madaniyatini oilaviy munosabatlarda;
- psixogigyena, nazorat orqali;
- yoshlarni axborot-psixologik immunitetini rivojlantirish.

Shu sababli, biz oilaviy farovonlikning eng muhim omillarini quyida sanab o'tishimiz mumkin:

1. Er-xotinlarning (umuman oila a'zolari) psixologik muvofiqligi;
2. Oilani yaratadigan odamlar ehtiyojlar majmuasini qondirishga intilishadi

Nikohdagi muvaffaqiyatsizlik ko'p jihatdan sherik tanlashda xatolar bilan belgilanadi: tanlangan kishi aslida shaxsiy xususiyatlarga ega emas yoki uning psixofiziologik xususiyatlari, qarashlari va qadriyatlarining uyg'unligi. Er va xotinning tarbiyaning turli siyosiy, madaniy, diniy qarashlarini aks ettiruvchi biologik va axloqiy omillar nuqtai nazaridan bir-biriga mos kelishi, juda muhimdir.

Oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlarga internet tarmog'i va boshqa shu kabi omillar shuningdek yosh avlodni tarbiyalashda shunday qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Mafkuraviy siyosiy ziddiyatlar ta'siri ko'lami kengayib yosh avlodni ham o'z domiga tortib bormoqda. Biror siyosiy tuzilma yoxud birlashma tashkilot, davlat haqida turli vositalar orqali o'zgartirishga intilish avj olmoqda. Internetda keng tarqalayotgan videoo'yinlarning ayrimlari, kinolar, multfilmlardagi obrazlar hamda o'zi ham shu qahromonga o'xshashga uning harakatlarini takrorlashga intiladi. Oilaviy hayotda shaxs o'zini daxlsiz his qilishiga katta to'siqlar paydo bo'lmoqda, bu turli ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari orqali yot g'oyalar tarqalib quyidagi omillarda namoyan bo'lib boryapti:

- tug'ilishning kamayishi,
- ajralishlar sonining ko'payishi,

- ajralishlar salbiy oqibatining kishilar hayotiga ta'sirchanligini ortib borishi,
- nikohsiz oilalarning ko'payishi va boshqa qator salbiy hodisalar yuz bera boshladi.

Ma'lumki insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgani sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-biri bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslar aro munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi, hozirgi zamon fantexnika taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi sanoat munosabatlari, vositalari qishloq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos yangicha talablar qo'ymoqda.

Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatida inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Oila ijtimoiy tuzilma sifatida bir qator funksiyalarni bajarishi to'g'risida muayyan tasavvurga egamiz. Shundan kelib chiqqan holda oiladagi erkak va ayolning alohida o'ziga xos funksiyalari nimadan iborat ekanligi haqida savol tug'ilishi tabiiydir. Sharq xalqlarining ko'pchiligida, jumladan bizning o'zbek oilalarda ham erkaklar xonadon boshlig'i hisoblanadilar.

Shuningdek oiladagi ma'naviy-maishiy muammolarni hal etish ham asosan erkaklarning zimmasidadir. Tashqi ta'sir faktorlari ko'payib ketganligi bois, erkak yana bir muhim funksiyaga, ayniqsa o'g'il bola tarbiyasiga ma'sul ekanligini ba'zan unutib qo'yayotgan bo'lsa, ba'zan esa bunga vaqt ortitrolmayapti. Ayolning oiladagi fundamental funksiyasi esa bola tug'ib tarbiyalash, ro'zg'or yuritish, oila mablag'larini, oila byudjetini oila a'zolarining ehtiyojlariga qarab to'g'ri taqsimlay bilishi hisoblanadi. Shuningdek, farzandlar ongi va xatti-harakatida orastalik, chevarlik estetik didni shakllantirish, mehnatkash va xushxulq qilib tarbiyalash ham onaning vazifasidir. Shu bilan birgalikda har ikkala jins vakillari uchun oiladagi yuzaga kelgan va kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini ola bilish funksiyasi ham mavjuddir. Bugun esa oilada otaning mavqeyini ham yuksaklarga ko'tarishni talab etmoqda. Chunki millat, xalq va jamiyat har bir oilalar taqdiriga befarq emasdir.

Bugun ba'zi bir o'zbek ayollari oilada hukmronlikni da'vo qilmoqda. Yangi kelinlar, yosh onalarning oilada gegemonlikka intilishi, o'z fikrini eriga o'tkazishga harakat qilishni normal holat deb bo'lmaydi. Erini bolalari orasida izza qiluvchi, hatto bolalarini otasi aytganini bajarmaslikka undovchi ayollar, afsuski, ko'payib bormoqda.

Erkaklarning vazifalarini bajarishi barobarida ayolning xarakterida erkaklashuv belgilari yuzaga kelmoqda. Dag'allashuv hissizlik, hattoki, so'kinishga moyillik belgilari sezilmoqdaki, natijada qizlarimiz erkaksimon, o'gillarimiz qizsimon bo'lib o'sish xavfi yuzaga kelmoqda.

Ayollarning ijtimoiy faoliyatdagi faollashuvi, uning oilaviy munosabatlariga ta'sir etishuviga olib kelishi mumkin bo'lgan muammolar kelib chiqmoqda, ayniqsa boshqaruv tizimidagi ayol salohiyati va uning mavqeyining shaxsiy fazilatlariga ta'siri masalari sezilmoqda, bu jarayonda shaxsiy fazilatlarda ayollik fazilatlari (nazokatlilik, shirinso'zlik), erkaklik fazilatlari (qat'iyatlilik, qattiqqo'llik, tutgan joyidan kesishga intilish) ga erishish lozimligi ko'rinadi, yo'qsa ish faoliyatida samara kamdek tuyulishi mumkin.

Ayolning asosiy vaqti oila byudjetiga hissa qo'shishga sarflanayotgani bois, farzandlar tarbiyasi o'ziga yarasha bo'lib qolib, ko'pgina noxushliklar vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bolalarning shaxsiy muammolariga befarqlik, uning ichki dunyosi, manfaatlari, qiziqishlariga nisbatan loqaydlik ona va bola o'rtasida begonalashuv jarayonini keltirib chiqarmoqda. Erkaklar oilada o'z funksiyalarini munosib bajarishi uchun ularning muammolarini aniqlashi va hal qilishga harakat qilmoq lozim.

Shuningdek, ular ruhan tushkunlikka tushganida, turli shaxsiy muammolarga duch kelganida ularni birlashtirib turuvchi markazlar, himoya qiluvchi tashkilotlar yo'q. Otalari, akalari bilan gaplashish noqulay va yoqimsiz bo'lgan mavzularda dardkash topolmay qiynalishadi, maxsus maslahatxonalariga va yetuk psixologlarga ehtiyoj sezishadi. Respublikamiz yetakchi psixolog olimlaridan G'.B.Shoumarov o'z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotin munosabatlarida o'zaro qovushish muhim ro'l o'ynaydi deb ko'rsatadi. U o'zaro qovushishlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo'linishini e'trof etadi. Ular:

- 1) bilogik qovushuv;
- 2) psixologik qovushuv;
- 3) sotsial qovushuv.

Ba'zi hollarda mijoz turi jihatdan kelin-kiyovlar mos kelmasa-da, lekin ular orasida hissiyot kuchi, psixologik-pedagogik bilim saviyasi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, tarbiya va madaniy saviya darajasi, o'zaro munosabat maromlari ularning o'zaro qovushishini, oilaning mustahkamligini ta'minlay oladi. Kelin-kiyovlarda altruizm (mehr-muhabbat) xudbinlikdan ustun bo'lsa, har qanday tafovut, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tyg'dirmaydi. Shuningdek, psixologik qovushuvda markaziy o'rinni shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan fe'l-atvor va xarakter egallashi alohida ta'kidlanadi.

Shunday ekan turmushga chiqayotgan har bir qiz psixologik savodxonlikka ega bo'lishi, oilaviy muammolarni ijobiy hal qila olishi, har qanday sharoitda turmush

ortog'i va bolalariga sog'lom psixologik muhitni yarata olishi hamda oilaviy munosabatlarda namunalilik ko'rsatib farzand tarbiyasidagi beminnat xizmatlari bilan o'z hisssalarini qo'shmoqliklari lozimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Akramova F.A. Oilada ma'naviy muhitni shakllantirishda xotin-qizlarning roli. - T.: «Nixol Print», 2016. -42-b.
2. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. - T.: «Shams ASA», 2014. -185-b.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygozlari talabalari uchun // Muallif: - T.: —Fan va texnologiyal, 2008. - 170 b.;
4. Shoumarov G.B., I.O. HaydarovN.A. Sog'inov; G.B. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik T.: «Sharq», 2015. 296 b.;
5. Сулейманова Т.Г. Ўсмирлик даврига хос суицидал хулқнинг психологик коррекцияси имкониятлари. – Т.: ТДПИ, 2011. –71-72-б.
6. Умаров Б.М., Усмонов Э.М. Педагогик кадрларнинг ота-оналар билан ишлашнинг айрим психологик масалалари (Психологические аспекты совершенствование подготовки учительских кадров в педвузах и университетах в условиях непрерывного образования). Тезисы докладов научно-практической конференции. Часть 4. – Т., 1994.
7. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists. – 2020. – Т. 1. – №. 10 (79). – С. 48-49.
8. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 459-464.
9. Қаршибоева Г.А. Ўсмирларнинг хулқ-атворидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
10. Қаршибоева Г.А. Ўқувчиларда касбий установкаларнинг шаклланишининг психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
11. Каршибоева Г. А. Эмоциональные аспекты при суицидальной поведении подростка //EDITOR COORDINATOR. – 2021. – С. 304.
12. Каршибаева Г. А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 651-656.
13. Каршибоева Г. А. Психопрофилактические меры по предупреждению суицидного поведения у подростков: Каршибоева Гульноза Абдукодировна, Джизакский государственный педагогический институт-старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 2-Махсус сон. – С. 298-305.
14. Каршибоева Г. А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением//Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 10-1 (79). – С. 48-49.
15. Каршибаева Г. А. Аспекти социально психологического исследования суицидального поведения подростков //Мир образования-образование в мире. – 2021. – №. 1. – С. 50-56.

16. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 7. – С. 54-59.
17. Каршибоева Г.А.. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. – 2021. – №. 22. – С. 84-89.
18. Каршибаева Г. А. Причины суицида и факторы риска //Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе. – 2021. – С. 90-96.
19. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.
20. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)
21. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
22. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
23. Каршибаева Г.А., Валиева Ч. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.
24. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулкнинг олдини олишда амалга оширилган психопрофилактик чора-тадбирлари. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” илмий услубий журнал, 2021 йил, махсус сон. 298-305 с.
25. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р. Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.
26. Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.
27. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулкни пайдо бўлишида ижтимоий функциялар бузилишининг психологик ҳолатлари. Psixologiya ilmiy jurnali/ Buxoro. №4, 2020 101-104 бб

ЎҚУВЧИЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Одилжоновна Холбуви Зокиржон қизи, магистр
Жиззах давлат педагогика институти*

Аннотация: Мақолада ўқувчиларида соғлом турмуш тарзини ривожлантиришнинг психологик–педагогик омиллари, психологик тадқиқотларда шахснинг саломатликка нисбатан валеологик омил сифатидаги муносабатини ўрганишнинг устуворлиги замонавий инсон ҳаёт тарзининг ўзгариши ва ҳар хил касалликлар билан хасталанишнинг юқори даражаси сабабларини аниқланганлиги тўғрисида сўз юритилган.

Калит сўзлар: шахснинг психик саломатлиги, ўқувчиларнинг фаоллиги, саломатлик мезони, саломатлик ижтимоий қадрият, шахс, қадрият сифати, психологик саломатлик, зиддиятли, стрессли муҳит, қадр-қиммат.

Аннотация: В статье говорится о психолого-педагогических факторах формирования здорового образа жизни у студентов, приоритетности изучения отношения человека к здоровью как валеологического фактора в психологических исследованиях, причинах изменения образа жизни современного человека и высокой заболеваемости. различных заболеваний.

Ключевые слова: психическое здоровье человека, активность студентов, критерий здоровья, социальная ценность здоровья, личность, качество ценности, психологическое здоровье, конфликт, стрессовая среда, ценность.

Annotation: The article deals with the psychological and pedagogical factors in the formation of a healthy lifestyle among students, the priority of studying a person's attitude to health as a valeological factor in psychological research, the reasons for changing the lifestyle of a modern person and high morbidity. various diseases.

Key words: human mental health, student activity, health criterion, social value of health, personality, value quality, psychological health, conflict, stressful environment, value.

Жаҳондаги психологик тадқиқотларда шахснинг саломатликка нисбатан валеологик омил сифатидаги муносабатини ўрганишнинг устуворлиги замонавий инсон ҳаёт тарзининг ўзгариши ва ҳар хил касалликлар билан хасталанишнинг юқори даражаси сабабларини аниқлаш. Инсон турмуш тарзининг ижтимоий ва психологик омилларини ўрганиш, инсонларда Соғлом турмуш тарзини ошириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Шу билан бирга шахснинг психик саломатлиги, ўқувчиларнинг фаоллиги саломатлик мезони, саломатлик ижтимоий қадрият, шахснинг ўз соғлиғига

муносабати қадрият сифатида тадқиқ этиш каби тадқиқотларга алоҳида аҳамият бериб ўқувчи-ёшлар маълум психологик саломатликка эга, аммо таълим жараёнида зиддиятли, стрессли муҳит мавжудлиги сабабли у безовталанади ва натижада инсон ҳимоя механизмларининг турли хил таъсири туфайли ўз соғлиғининг қадр-қимматини англаш қийинлашади. Шу муносабат билан, ўқувчиларда Соғлом турмуш тарзи ривожланишининг психологик-педагогик детерминантларини тизимли ўрганиш лозимлиги мазкур илмий-тадқиқот ва илмий-амалий муаммога юқори долзарблик бахш этади.

Бугунги кунда ёш авлод саломатлигини сақлаш нафақат соғлиқни сақлаш ташкилотининг балки, тарбиячи педагогларнинг ҳам олдидаги энг муҳим актуал муаммоларидан биридир. Шу билан бирга, маълумки, ҳар қандай касаллик ёки соғлом турмуш тарзидан четлашиш, ҳатто қисқа бўлса ҳам, организмнинг реактивлигини ўзгартиради, марказий асаб тизимининг функционал ҳолатини ёмонлаштиради, иш қобилиятининг пасайишига, юқори чарчашга ва натижада ўқув натижаларини пасайтиришга сабаб бўлади. Мавжуд хавотирли вазият болалар таълими жараёнида уларнинг соғлиғини сақлаш ва шу билан унинг муваффақиятини таъминлаш, шунингдек соғлом турмуш тарзи асосларини рағбатлантириш учун мақбул шарт-шароитларни яратиш бўйича янги, ностандарт ёндашувларни излашни талаб қилади.

Жисмоний тарбия жараёни кўп қирралидир. Бу жараёнда таълим ҳам, тарбия ҳам берилади. Жисмоний тарбия жараёнида таълим бериш ҳаракат кўникмалари, малакаларини ҳосил қилиш, такомиллаштиришга қаратилган бўлади. Шу билан бирга, шуғулланувчиларни жисмоний ривожланишига кўрсатмаларни илмий педогогик ҳолатда очиб беради. Жисмоний тарбия таълимотида жисмоний сифатларга (куч, тезлик, чидамлилиқ ва ҳ.к.) алоҳида ўрин берилади. Чунки, ҳаракат фаолиятлар фақат тириклик, тетиклик, бақувватликни сақлашгагина қаратилмасдан, балки мураккаб бўлган жисмоний меҳнат, машқлар, спорт турларида ишлатиладиган ўта мураккаб амалий ҳаракат фаолиятларни мақсадли бажаришга йўналтиради.

Жисмоний тарбия жараёнида машқларни шакл ва мазмун жиҳатдан ижро этишда усуллар асосий ўринда турса-да, улар кўпроқ маданият тушунчаси билан ҳам бевосита боғлиқ бўлади. Бунда асосан икки йўналиш кўзга ташланади, яъни:

1. Машқларнинг чиройли қилиб бажарилиши, ўзгаларнинг диққатини жалб этиши, шуғулланувчининг гавда тузилиши ва нафис ҳаракатлари. Масалан, бадий гимнастика машқлари, баландликка сакрашлар, сувда сузиш ва трамплиндан айланиб сакрашлар, тўпни дарвозага тепиб киритишлар ва ҳ.к.

2. Машқ-ўйинлар ва спорт турларида оммавий бўлиб бажаришлар (жамоа, гуруҳ ва ҳ.к.), байрамлар, нуфузли спорт мусобақаларида кўргазма – намоиш чиқишлар. Бу икки ҳолатда ҳам санъат билан (муסיқа, рақс ва ҳ.к.) жисмоний

машқлар, спортнинг уйғунлашиб кетиши жисмоний маданият тушунчасини билдиради.

Шу сабабдан фанларда жисмоний маданият (физкультура) умуминсоний маданиятнинг таркибий қисми деб саналади. Шу жиҳатдан қаралса жисмоний маданият ҳам ўз ичига турли оммавийтарбиявий жараёнларни ўзига қаратиши билан мустақил йўналишларга эгадир, яъни:

- ўқувчи ва талаба ёшларнинг жисмоний маданияти;
- катта ёшдаги кишилар жисмоний маданияти;
- хотин-қизлар жисмоний маданияти;

grammatikasini o'zlashtirishlarida asosan artikl va zamonlar qiyinchilik tug'dirishini aytganlar. Darhaqiqat, o'zbek tilida aynan artikl so'z turkumi bo'lmagani uchun uni qo'llashda va tarjima qilishda qiynaladilar. Artikl qoidalarni yod olish kerak. Biroq qoidalardagi talaygina istisno holatlari o'rganuvchilarga, ayniqsa maktab yoshdagilarga, uni o'zlashtirishni murakkablashtiradi. [4]Tarjimasi aniqroq qilib o'rgatilsa, o'quvchilar artiklni qo'llashda ko'p qiyinchiliklarga uchramaydilar. Masalan: noaniq artikl bir, qandaydir bir deb, aniq artikl esa o'sha, haligi deb tarjima qilinadi deb o'rgatish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, artiklning ishlatilish holatlarini bolalarga misollar yordamida qayta-qayta tushuntirilsa, ingliz tilidagi bu yordamchi so'z turkumini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni kamaytirib bartaraf etsa bo'ladi. Ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklardan yana biri predloglardir. O'zbek tilida predloglar kelishik qo'shimchalari bilan ifodalanadi. Ingliz tilida esa kelishik qo'shimchalari predloglar orqali ifodalanadi. Jumladan, o'zbek tilidagi o'rin-payt kelishigi, ingliz tilida in, on, at predloglari bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: in — in January, in 2015, in a week on — on Monday, on January 15, on birthday at — at the weekend, at 10 o'clock O'rin payt kelishigining qo'shimchasi, o'rin joyini bildirganda ham ingliz tilida yuqoridagi predloglardan foydalanamiz. Masalan: in — in Uzbekistan, in Madrid, in our week on — on the sofa, on the table at — at the station, at school ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibining o'xshash emasligi. Ma'lumki, ingliz tilida so'z tartibi qat'iydir, aksariyat hollarda darak gap boshida doim ega turadi ketidan esa kesim keladi. O'zbek tilida esa gap bo'laklari o'rni almashtirsak ham ma'nosi o'zgarmaydi. Tarjimada esa o'quvchilar qiyinchiliklarga uchraydilar. Metodistlar fikriga ko'ra, ingliz tili grammatikasini o'rgatishda, avvalambor, grammatika minimumini to'g'ri tanlash va ingliz tili grammatikasini o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Ingliz tili grammatikasini o'ziga xos qiyinchiliklari va xususiyatlari quyidagilar: ingliz tilidagi noto'g'ri fe'llar mavjudligi, ingliz tilidagi gap qurilishni qat'iyligi, ingliz tilidagi artikillar, predlog va zamonlarning ko'pligidir. Shu kabi xususiyatlar ingliz tili grammatikasini o'zbek tili grammatikasidan farqlaydi. J. Jalolov fikriga ko'ra, grammatikani o'quvchilarga o'rgatishda asosan ikkita yo'ldan foydalanishimiz mumkin: 1. Induktiv. 2. Diduktiv. Induktiv usulda o'quvchilarga avval qoida so'ngra esa misol beriladi. Diduktiv usulda esa avval misol so'ngra qoida beriladi. Maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda avvalo bolalar uchun rang-baranglikka e'tibor berishimiz zarur. Rasmlar asosida yoki qo'shiq va she'rlar orqali ham ingliz tili grammatikasini o'rgatishimiz mumkin. Maktablarda kuzatilayotgan muammolar qatorida o'quvchida darsga nisbatan passivlik, zerikish, diqqatni jamlay olmaslik kabi jihatlar ham mavjud. Ingliz tilini o'rgatishdagi leksik qiyinchiliklarga kelsak, ular quyidagilar: ingliz tilidagi deyarli barcha so'zlar turli ma'nolarni anglatadi. Ya'ni bir so'z birdan oshiq ma'noni anglatadi. M. Norovanning ta'kidlashicha, ingliz tilida bitta so'z maksimal 23ta ma'noni

berar ekan. Ingliz tili lug'atining ma'lum qismi boshqa tillardan kirib kelganligi; Ingliz tilining idiomalarga boyligi hamda bir qancha boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash hamda grammatikadan foydalanish natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil [1]
2. Mehri Norova. Tarjimada leksik birlik va leksik transformatsiyaning qo'llanilishi.[2]
3. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.[3]
4. www.ziyonet.uz. [4]

МАКРО И МИКРОЭЛЕМЕНТЫ В ФИЗИОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА

проф. О.Р.Абдурахмонов, доц. А.Н.Зулфикаров, И.И.Юлдашев
Университет Турон Зармед, г. Бухара, Узбекистан

Ключевые слова: Минеральные вещества, несбалансированное питание, макроэлементы, микроэлементы.

АННОТАЦИЯ

Раскрыто значение минерального баланса в организме человека и значение макро- и микроэлементов в его жизнедеятельности. Установлены источники происхождения минеральных веществ, их значимость для организма, проблематика нарушения баланса. Раскрыто значение минерального баланса в организме человека. Болезни, связанные с дефицитом минералов стали значимым, приводя к инвалидности, повышая уровень смертности и создавая тем самым увеличивая проблемные аспекты здравоохранения.

ABSTRACT

The significance of the mineral balance in the human body and the importance of macro- and microelements in its vital activity are revealed. The sources of origin of mineral substances, their significance for the body, the problems of imbalance, dosages have been established. The importance of mineral balance in the human body is revealed. Diseases associated with mineral deficiencies have become significant, leading to disability, increasing mortality and thus creating an increasing problematic aspect of health care.

ВВЕДЕНИЕ

Минеральные вещества относятся к жизненно необходимым компонентам питания с весьма разнообразными физиологическими функциями. Они играют важную роль в пластических процессах, формировании и построении тканей организма, в частности, костей скелета. Минеральные вещества также необходимы для поддержания кислотно-щелочного равновесия в организме, создания определенной концентрации ионов водорода в тканях и клетках, межтканевых и межклеточных жидкостях, а также для придания им осмотических свойств. Большой дефицит любого неорганического вещества в организме проявляется специфическими симптомами и даже может привести к летальному исходу из-за нарушения функций организма. Как правило, у людей с нарушениями питания наблюдается недостаток различных элементов. Впрочем, дефицит одного питательного вещества тоже встречается. Например,

у жителей отдельных регионов мира наблюдается дефицит йода, а у больных с патологическим кровотечением – дефицит железа.

МАТЕРИАЛЫ И СПОСОБЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Причины недостаточности минеральных солей в организме человека:

- дефицит продуктов, богатых минеральными веществами, в питании;
- однообразное питание с преимущественным включением в рацион одних продуктов в ущерб другим;
- изменения минерального состава пищевых продуктов, обусловленные химическим составом земли и воды отдельных географических районов, поэтому существуют эндемические заболевания, распространенные на данной географической территории, связанные с изменением количества минеральных солей в питании (эндемический зоб, кариес зубов, гипертоническая болезнь и др.);
- некомпенсированная повышенная потребность в минеральных веществах, обусловленная изменившимися условиями труда, климата, физиологическими особенностями (беременность, кормление грудью и др.);
- несбалансированное питание. Изменение в рационе белков, жиров, углеводов и витаминов нарушает усвоение минеральных солей даже при их нормальном содержании в пище; имеет значение также сбалансированность в питании самих минеральных веществ;
- заболевания, ведущие к ухудшению всасывания минеральных солей из кишечника (болезни органов пищеварения), их повышенным потерям (инфекционные болезни, ожоги, кровопотери), нарушению их обмена (болезни эндокринных желез);

Минеральная недостаточность – это состояние, вызванное пониженной концентрацией в организме необходимых для здоровья минеральных веществ. Это может привести к нарушению той или иной функции организма.

Шесть макроэлементов необходимы людям в количествах, исчисляемых граммами. Четыре из них в виде катионов: катионы натрия, калия, кальция и магния. Два – в виде сопутствующих анионов: хлорид-анион и анион фосфора. Суточные потребности составляют от 0,3 до 2,0 г. От этих макроэлементов зависят функции костей, мышц, сердца, мозга. Следующие микроэлементы необходимы человеку в небольших количествах: хром; медь; фтор; йод; железо; марганец; молибден; селен и цинк.

Дефицит кальция во многих случаях развивается на фоне дефицита витамина D, необходимого для нормального всасывания кальция из пищи. У взрослых дефицит микроэлементов (кроме йода, железа и цинка) при обычном питании развивается спонтанно не так часто; дети более уязвимы, поскольку

они быстро растут и потребности в минеральных веществах у них постоянно изменяются. Дисбаланс микроэлементов может зависеть от наследственных заболеваний (например, гемохроматоз, болезнь Вильсона), диализа при почечной недостаточности, парентерального питания, ограничительных диет, назначаемых при врожденных нарушениях метаболизма, а также от использования различных популярных диет.

Дефицит натрия и калия может привести к нарушениям нервной деятельности и сердечного ритма. Нарушения сердечного ритма являются следствием пониженного содержания калия. Дефицит натрия и калия также часто связан с приемом мочегонных препаратов, вымывающих натрий из организма. Эти средства применяются для лечения гипертензии (повышенного артериального давления) с целью снижения риска сердечнососудистых заболеваний. Прием мочегонных уменьшает содержание натрия в плазме крови. Побочным эффектом некоторых лекарств этого ряда является также дефицит калия. В результате может понизиться содержание этого элемента в плазме (гипокалемия).

Общее содержание магния в организме человека около 25 граммов. Он играет важную роль в образовании более трехсот ферментов. Магний принимает участие в энергетическом и электролитном обмене, выступает в качестве регулятора клеточного роста, необходим на всех этапах синтеза белковых молекул. Особо важная роль магния в процессах мембранного транспорта. Магний способствует расслаблению мышечных волокон (мускулатуры сосудов и внутренних органов). Важнейшее значение магния состоит в том, что он служит естественным антистрессовым фактором, тормозит процессы возбуждения в центральной нервной системе и снижает чувствительность организма к внешним воздействиям. У 30% населения магний недостаточно поступает с пищей. Хронический дефицит магния часто отмечается у больных сахарным диабетом, артериальной гипертензией, атеросклерозом, эпилепсией, остеопорозом и т.д. Известны физиологические состояния, сопровождающие всю жизнь повышенную потребность в магнии: тяжелый физический труд и физическая нагрузка у спортсменов, эмоциональное напряжение, частое и длительное пребывание в сауне, недостаточный сон, авиационные перелеты. Недостаток магния возникает при приеме кофеина, алкоголя, наркотиков и некоторых лекарственных средств, например мочегонных, которые способствуют удалению магния с мочой. Нервная система чутко реагирует на уровень магния в организме. Пониженное его содержание может вызвать беспокойство, нервозность, страх, а также бессонницу и усталость, снижение внимания и памяти, в ряде случаев - судорожные припадки, тремор и другие симптомы. Часто люди жалуются на "беспричинные" головные боли. В норме в

сыворотке крови содержится 1,2-2,0 ммоль магния. Дефицит магния приводит к развитию гипомагниемии (состояние, при котором содержание магния в крови составляет менее 0,8 ммоль). Снижение этого показателя до 0,5 ммоль приводит к уменьшению содержания в крови кальция и иногда калия. Некоторые симптомы гипомагниемии (судороги, конвульсии) на самом деле вызваны гипокальциемией. Дефицит магния также излечим. Его симптомы полностью или в значительной степени исчезают уже через 2 дня лечения. Дефицит магния устраняется за счет потребления продуктов, богатых этим элементом. Если он возник в результате длительного истощения организма, назначаются также инъекции сульфата магния (2,0 мл 50%-ного раствора $MgSO_4$). При тяжелых формах, сопровождающихся конвульсиями, магний вводят с помощью инъекций или капельниц. Для внутривенных вливаний берут 500 мл 1%-ного раствора (1г/100 мл) сульфата магния, который вводится постепенно в течение 5 часов.

Около 20% населения Земли склонны к дефициту цинка. Нехватка этого элемента может привести к нарушениям работы внутренних органов, ухудшению состояния волос, ногтей и кожи. Ломкие волосы, высыпания на коже, проблемы со зрением и частая раздражительность – первые сигналы нехватки цинка. Но определить его можно и по другим симптомам. Признаки дефицита цинка: - раздражительность, утомляемость, бессонница; - гиперактивность; - депрессивные состояния; - предрасположенность к алкоголизму; - снижение остроты зрения; - потеря вкусовых ощущений, - расстройство обоняния; - снижение аппетита; резкое похудение; - накопление в организме железа, меди, кадмия, свинца; - проблемы с кожей: воспаления, угри, фурункулёз, экзема, дерматит, псориаз, трофические язвы, плохое заживление ран; - тусклый цвет волос, перхоть, замедление роста волос и их выпадение; - снижение уровня инсулина; - задержка роста и позднее половое созревание у детей (особенно у мальчиков); - расслаивание ногтей, появление на них белых пятен. Участвует в работе более 200 ферментов, отвечает за сохранность белка и ДНК, участвует в развитии вторичных и первичных половых признаков, участвует в формировании спиральной структуры РНК.

Медь является необходимым микроэлементом для жизнедеятельности человеческого организма. Большая ее часть находится в печени, головном мозге, сердце, почках и скелетных мышцах. Медь способствует образованию коллагена, всасыванию железа и играет важную роль в производстве энергии. Рекомендуемая суточная норма составляет 900 мкг для подростков и взрослых. Дефицит меди наблюдалось у грудных детей, которых кормили коровьим молоком вместо грудного из-за низкого содержания меди в коровьем молоке.

Поскольку этот элемент накапливается в печени, ее недостаточность развивается медленно.

Нехватка меди в организме может привести к повышенному риску развития инфекционных заболеваний, остеопороза, нарушений неврологических функций и роста. Также на фоне ее дефицита может возникнуть депигментация волос и кожи. Недостаточное употребление меди приводит к нейтропении, то есть, к снижению уровня нейтрофилов в крови, основной функцией которых является борьба с инфекционными заболеваниями.

Молибден - жизненно важный микроэлемент, необходимый для нормальной работы всего организма. Он входит в состав некоторых металлоферментов (ксантиноксидаза/дегидрогеназа, сульфитоксидаза, альдегидоксидаза), участвующих в важнейших процессах метаболизма, включая функционирование цитохрома С, метаболизм пуринов и др. Молибден обуславливает течение следующих метаболических реакций в организме:

- ускоряет процессы окисления пуринов, из которых состоят белки и их соединения;
- участвует в процессах образования различных ферментов, в том числе и фермента, нейтрализующего токсины в человеческом организме;
- связывание молибдена с определенными веществами в крови приводит к тому, что повышается осмотическая устойчивость мембраны эритроцита к различным повреждающим факторам.

Соединения молибдена попадают в организм с пищей и легко всасываются в желудочно-кишечном тракте.

Дефицит молибдена у человека наблюдается лишь в условиях продолжительного искусственного парентерального питания. Клинические проявления дефицита молибдена: раздражительность, тахикардия, ночная слепота; биохимические - снижение концентрации мочевой кислоты и сульфатов в сыворотке и моче и повышение концентрации сульфитов, оксипурина, ксантина и гипоксантина в моче. Эти проявления снижались при добавлении в инфузионный раствор молибдатов. Очень редкие рецессивные врожденные заболевания, связанные с нарушением биосинтеза молибденового белкового кофактора в большинстве случаев приводят к летальному исходу в раннем детстве.

Фосфат содержит атом фосфора, а сульфат – атом серы. Организм получает достаточное количество сульфата из белков. Фтористые соединения оказывают положительное влияние на крепость костей и зубов.

Никель обнаружен в поджелудочной железе, гипофизе. Наибольшее содержание обнаруживается в волосах, коже и органах эктодермального

происхождения. Подобно кобальту никель благотворно влияет на процессы кроветворения, активирует ряд ферментов. Много никеля в растительных продуктах, морской рыбе и продуктах моря, печени. В организме человека кобальт выполняет разнообразные функции, в частности оказывает влияние на обмен веществ и рост организма, и принимает непосредственное участие в процессах кроветворения; он способствует синтезу мышечных белков, улучшает ассимиляцию азота, активизирует ряд ферментов, участвующих в обмене веществ; является незаменимым структурным компонентом витаминов группы В, способствует усвоению кальция и фосфора, понижает возбудимость и тонус симпатической нервной системы. Содержание в суточном пищевом рационе 10-100 мкг. Потребность 40-70 мкг. Кобальт содержится в плодах яблони домашней, абрикоса, винограда винного, клубнике, орехе грецком, молоке, хлебопродуктах, овощах, говяжьей печени, бобовых.

В организме человека алюминий накапливается преимущественно в печени, головном мозге, костях. Алюминий способствует развитию и регенерации эпителиальной, соединительной и костной ткани, воздействует на активность пищеварительных желез и ферментов, в гомеопатии применяется окись алюминия, называемая глинозем и значительно реже – алюминиево-калиевые квасцы. Суточная потребность в алюминии 2-50 мг, содержание в суточном пищевом рационе 20-100 мг. Хлебопродукты – основной источник поступления алюминия в организм.

Дефицит селена связан преимущественно с недостаточным содержанием микроэлемента в рационе. Снижение концентрации селена в организме также может быть связано с недоношенностью, острыми воспалительными заболеваниями и длительным полным парентеральным питанием. Симптомы дефицита селена включают мышечную слабость, боли в мышцах, воспаление мышечной ткани, увеличение объема и повышенную хрупкость эритроцитов, дегенерацию поджелудочной железы и псевдоальбинизм. Снижение уровня селена также связано с патологическими состояниями, включая онкологические процессы, бесплодие, нарушения иммунной функции. Критически низкое употребление селена с продуктами питания вызывает такие тяжелые осложнения, как болезнь Кешана – кардиомиопатию.

Одним из незаменимых микроэлементов является марганец. Марганец активно влияет на обмен белков, углеводов и жиров. Важной также считается его способность усиливать действие инсулина и поддерживать определенный уровень холестерина в крови. В присутствии марганца организм полнее использует жиры, повышается усвояемость меди. Так же микроэлемент регулирует процессы кроветворения, усиливает синтез гормонов щитовидной

железы – тироксина и трийодтиронина, участвует в синтезе интерферона и укрепляет иммунитет и поддерживает нормальную свёртываемость крови.

За контроль и поддержание многих жизненных функций марганец еще называют микроэлементом-менеджером. Дефицит марганца приводит к различным формам анемии, нарушениям функций воспроизводства у обоих полов, задержке роста детей, проявлениям дефицита массы тела и др. В настоящее время дефицит данного минерала является довольно распространённым явлением, что связано с неправильным и несбалансированным питанием, а также загрязнённой окружающей средой.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Дефицит железа вызывает анемию (снижение числа эритроцитов), симптомами которой являются усталость и одышка. Дефицит железа возникает из-за неполноценного питания, быстрого роста организма и чрезмерной потери железа. В человеческом и коровьем молоке содержится мало железа, поэтому в группу риска развития анемии попадают новорожденные, у которых железо участвует в кроветворении и наращивании мышечной массы. Материнское молоко предпочтительнее коровьего, поскольку у ребенка усваивается около 50% железа, содержащегося в грудном молоке (против 10%, которые усваиваются из молока коровы). Еще одна из причин дефицита железа – потеря крови во время менструации или кишечного кровотечения. Основные симптомы железодефицита – анемия, повышенная утомляемость, слабость.

Нехватка йода – это огромная медицинская проблема, в основном причиной является, не хватает этого элемента в почве. Единственная функция, выполняемая йодом в организме, – это участие в выработке гормона щитовидной железы. Дефицит йода чаще встречается там, где в почвах содержится мало этого элемента. Выращенные на таких землях сельхозпродукты также бедны йодом. Суточная норма потребления йода составляет 0,10-0,15 мг. Йододефицит возникает при потреблении менее 0,05 мг йода в день. В результате может развиваться узловатая зоб. Это заболевание остается проблемой стран Восточной Европы, ряда районов Индии и Южной Америки, а также Юго-Восточной Азии. Дефицит йода во время беременности может привести к развитию у плода врожденного гипотиреоза, следствием которого является задержка умственного развития, выпадение языка изо рта, иногда глухота, немота и хромота.

Йододефицит диагностируется путем измерения концентрации йода в моче. Уровень выше 0,05 мг на 1 грамм креатинина считается нормальным; уровень ниже 0,025 мг сигнализирует о проблеме.

Если в рационе содержится достаточное количество цинка (16 мг в день), то дневной уровень этого элемента в моче составляет около 0,45 мг в день. При пониженном содержании цинка в пище (0,3 мг в день) его уровень в

моче составляет 0,150 мг в день. Содержание цинка в плазме крови остается неизменным даже при дефиците этого элемента в рационе. Кроме того, на уровень цинка в крови и моче влияют различные факторы, и получить четкую картину по нему не представляется возможным.

Дефицит селена диагностируется на основании анализа плазмы крови (в норме – 70 нг/мл) и числа эритроцитов (в норме – 90 нг/мл). Показателем также является уровень активности фермента глутатион–пероксидазы в тромбоцитах (маленьких клетках, отвечающих за свертываемость крови).

Дефицит натрия, калия, кальция, фосфатов и железа обычно лечится путем внутривенных инъекций недостающего минерального вещества. Йододефицит можно легко предотвратить или устранить, употребляя в пищу продукты, обогащенные йодом. Столовая соль обогащается йодистого калия (100 мг на 1 кг соли). В развитых странах проблема узлового зоба была почти полностью решена именно путем йодизации соли. В странах третьего мира практикуются также инъекции синтетических препаратов йода. Узловой зоб – излечимое заболевание, а врожденный гипотиреоз нет!

При дефиците селена взрослым назначается ежедневный прием 100 мг. Селен поступает в организм в виде селенометеонина. Заболеваемость болезнью Кешана в Китае снижается путем добавления в детский рацион 1,0 мг селенита натрия в неделю.

ЗАКЛЮЧЕНИЯ

Лучшая профилактика минеральной недостаточности у здоровых людей – потребление рекомендованной дозы минералов. Во многих странах действуют специальные программы по лечению населения и производству обогащенных минеральными веществами продуктов. Дефицит калия встречается, в основном, у лиц, принимающих мочегонные препараты. Минеральная недостаточность часто связано с каким-то заболеванием. В этом случае требуются не превентивные меры, а непосредственно лечение. Специальная профилактика дефицита кальция не требуется, однако добавки, содержащие это вещество, широко применяются для предотвращения остеопороза. Для профилактики дефицита магния, цинка, меди, марганца и молибдена достаточно сбалансированной диеты или прием препаратов, содержащих эти минеральные вещества.

ЛИТЕРАТУРА

1. Петров В.И., Спасов А.А. Российская энциклопедия биологически активных добавок. – М.:, Гэотар-Медиа, 2007. - С. 21-25.
2. Комиссия ЕС «EU Commission Decision of Juli 30 th, 1997 (97/534/EC)75/320/ ЕЕС on prohibition of the use of material presenting risks as regard of transmissible spongiforme encephalopaties. -1997.
3. О.Р.Абдурахмонов, А.Н.Зулфикаров, К.Х.Расулов. РОЛЬ КОЭНЗИМА В ФИЗИОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА. Новости образования: Исследование в XXI веке. №5 (100). December 2022 г. Part 1. 494-503 p.
4. Abdurakhmonov O., Islomov A.. Ways to intensify the heat exchange process during heating of liquid carbohydrates. APITECH-IV – 2022. Journal of Physics: Conference Series 2388 (2022) 012179. IOP Publishing. doi:10.1088/1742-6596/2388/1/012179.
5. О.Р.Абдурахмонов, Х.М.Юлдашев. Влияние физико-химических свойства хлопкового масла на процесс осаждения твердых частиц. Научный импульс. №4 (100). November 2022. Part 2. 911-914 p. -Scientific Impulse, 2022 - nauchniyimpuls.ru
6. О.Р.Абдурахмонов. Аралаштиргич курилмасининг асосий параметрлари. Научный импульс. №4 (100). November 2022. Part 2. 877-885 p. - Scientific Impulse, 2022 - nauchniyimpuls.ru
7. Gorovaia, A., & Klimkina, I. (2002). Cytogenetic testing in evaluation of the ecological situation and the effect of natural adaptogens on children and adult health. Tsitologiya i genetika, 36(5), 21-25.
8. Энциклопедия биологически активных добавок к пище. – М.: ООО «Издательство Новая Волна», 2003. - 528 с.
9. Проблемы и перспективы Российского рынка БАД. - М: Ремедиум, 2012. – 20 с.
10. Энциклопедия биологически активных добавок к пище. – М.: ООО «Издательство Новая Волна», 2003. - 528 с.
11. Дрыгина Л.Б., Трофимова И.В., Саблин О.А., Никифорова И.Д. Современные методы диагностики, профилактики и лечения остеопороза. Методическое пособие. СПб: ВЦЭРМ им. А.М. Никифорова МЧС России, 2011. 86 с. (с. 8).

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH YO'LLARI

Ernazarova Xolida Madaminjonovna

Namangan viloyat To'raqo'rg'on tuman

6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +9989939382530

Annotatsiya: Maqolada nutq tushunchasi, nutq o'stirish metodikasi, uning ahamiyati, o'quvchilar nutqini rivojlantirish yo'llari, metodikasi, nutqni egallashning qator aspektlari, nutq o'stirish yo'nalishlari, o'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan talablar, ta'lim-tarbiya jarayonida nutq o'stirishga erishish orqali o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko'nikmalar, inson kamoloti, buyuk allomalar, ma'naviy meros, sharqona ta'lim va tarbiya, adabiy til normalari, tafakkur va notiqlik san'ati, ta'lim sifati.

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini

kengaytirish tub islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi.

Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy nazariy tomoni lug'atlarda, darslik va o'quv va metodik qo'llanmalarda izoh berib, atroflicha yoritilgan.

Forobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning *eng birinchisi jismlarga*, ya'ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. *Ikkinchisi ilm grammatikadir*. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. *Uchinchi ilm mantiqdir*. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilinmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz".

O'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasi o'z nutqi orqali harakatga keltiradi. Nutq va uni o'stirish tushunchasi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilap nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi,

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini oʻzlashtirish.
2. Jamiyatimizning har bir aʼzosi uchun zarur boʻlgan muhim nutq malakalarini, yaʼni oʻqish va yozish malakalarini oʻzlashtirish.

3. Oʻquvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Nutq oʻstirishda uch yoʻnalish aniq ajratiladi:

- 1) soʻz ustida ishlash;
- 2) soʻz birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bogʻlanishli nutq ustida ishlash.

Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza boʻlib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bogʻlanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Nutq oʻstirishda izchillik toʻrt shartni, yaʼni izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil turlarini umumiy maqsadga boʻysundirish koʻnikmasini oshirish bilan taʼminlanadi. Nutq turlari. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular oʻz fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda oʻylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, «oʻylangan» (fikrlangan) nutqdir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi.

Fikrni ifodalash usuliga koʻra nutq ogʻzaki va yozma boʻladi. Ogʻzaki nutq koʻpincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida boʻladi. Oʻquvchilar nutqiga qoʻyilgan talablar.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. Oʻquvchilar nutqi mazmundor boʻlsin.
2. Nutqda mantiqiylik boʻlsin.
3. Nutq aniq boʻlsin.
4. Nutq til vositalariga boy boʻlsin.
5. Nutq tushunarli boʻlsin.
6. Nutq ifodali boʻlsin.
7. Nutq toʻgʻri boʻlsin.
8. Nutq madaniyatli boʻlsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар.
2. Расулова З. (2021). Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 416-426 бетлар.
3. Dilova N.G. (2021). O'quvchilarning shaxsiy sifatleri - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 558-566 betlar.
4. Расулова З.Д. (2021). Талабаларнинг креативлигини ривожлантиришда масофавий таълимнинг ўрни. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 439-448 бетлар.
5. Dilova N.G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Mirzaxmedova Soxiba Xabibullayevna
Namangan viloyat To'raqo'rg'on tuman
6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +9989934958390

Annotatsiya: Bugungi kunda o'quvchilarda hisob-kitob ko'nikmalarini shakllantirish, ularni kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish boshlang'ich ta'limdagi matematika fani o'qituvchilarining asosiy vazifalardan biridir.

Kalit so'zlar: intellekt, tartib-intizom, fanlar integratsiyasi, umumiy kompetensiya, kognitiv kompetensiya.

Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang'ich kursning asosiy o'zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursda geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi.

Boshlang'ich sinf matematika kursi maktab matematika kursining organik qismi bo'lib hisoblanadi. V–XI sinflarda o'qitiladigan matematikaning eng asosiy va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan elementar tushunchalari beriladi. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan va boyitilgan holda o'qitiladi.

Demak, boshlang'ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi. Boshlang'ich matematikaning tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar, algebra va geometriya elementlarining propedivtik kurslari asosiy bo'lim shaklida o'qitilmasdan arifmetik material bilan qo'shib o'qitiladi.

2. Boshlang'ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan, oldin I-o'nlikni raqamlash o'qitilsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o'qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin ko'p xonali sonlar ichida.

Bularni o'qitish bilan birga raqamlash, miqdorlar, kasrlar, algebraik va geometrik materiallar qo'shib o'qitiladi.

3. Nazariya va amaliyot masalalari o'zaro organik bog'langan xarakterga ega.

4. Matematik tushuncha, xossa, qonuniy bog‘lanishlarni ochish kursda o‘zaro bog‘langan.

5. Har bir tushuncha rivojlantirilgan holda tushuntiriladi.

Masalan, arifmetik amallarni o‘qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi, keyin amalning xossalari, keyin komponentlar orasidagi bog‘lanish, keyin amal natijasi, oxirida amallar orasidagi bog‘lanish beriladi.

6. Asosiy tushunchalar va natijaviy tushunchalar o‘zaro bog‘lanishda berilgan.

Masalan, qo‘shish asosida ko‘paytirish keltirib chiqarilgan.

Boshlang‘ich matematika kursi o‘z tuzilishi bo‘yicha o‘z ichiga olgan, arifmetik, algebraik va geometrik materialdan iborat qismlarni .

Boshlang‘ich matematika kursida arifmetik materialning konsentrik joylashuvi saqlanadi.

Ammo, amaldagi dasturda konsentrlar soni kamaytirilgan: o‘nlik, yuzlik, minglik, ko‘p xonali sonlar. Shuni ham aytish kerak, material shunday katta guruhlashganki, unda o‘zaro bog‘langan tushunchalar, amallar, masalalarni qarash vaqt jihatdan yaqinlashtirilgan.

Arifmetik amallarning xossalari va mos hisoblash usullarini o‘rganish bilan bir vaqtda arifmetik amallar natijalari bilan komponentlari orasidagi bog‘lanishlar ochib beriladi. (Masalan, agar yig‘indidan qo‘shiluvchilardan biri ayrilsa, ikkinchi qo‘shiluvchi hosil bo‘ladi.) Komponentlaridan birining o‘zgarishi bilan arifmetik amallar natijalarining o‘zgarishi kuzatiladi.

Algebra elementlarini kiritish, chuqur, tushunilgan va umumlashgan o‘zlashtirish maqsadlariga javob beradi: tenglik, tengsizlik, tenglama, o‘zgaruvchi tushunchalari konkret asosda ochib beriladi.

1-sinfdan boshlab sonli tengliklar va tengsizliklar ($4=4$, $6=1+5$, $2<3$, $6+1>5$, $83<8-2$ va hokazo) qaraladi.

Ularni o‘rganish arifmetik materialni o‘rganish bilan bog‘lanadi va uni chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

2-sinfdan boshlab $(x+6)-3=2$ va h.k ko‘rinishdagi tenglamalar qaraladi.

Tenglamalarni yechish, oldin tanlash metodi bilan, so‘ngra amallarning natijalari bilan komponentlari orasidagi bog‘lanishlarni bilganlik asosida bajariladi.

O‘zgaruvchi bilan amaliy tekshirish o‘quvchilarning funksional tasavvurlarini egallashlariga imkon beradi.

Geometrik material bolalarning eng sodda geometrik figuralar bilan tanishtirish, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, arifmetik qonuniyatlarni, bog‘lanishlarni ko‘rsatmali maqsadlariga xizmat qiladi. (Masalan, to‘g‘ri to‘rtburchakning teng kvadratlarga bo‘lingan ko‘rsatmali obrazidan ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossasini bog‘lanishi ochib foydalaniladi...).

1-sinfдан boshlab to'g'ri va egri chiziqlar, kesmalar, ko'pburchaklar va ularning elementlari, to'g'ri burchak va hokozo kiritilgan.

O'quvchilar geometrik figuralarni tasavvur qila olishni, ularni nomlari, katakli qog'ozga sodda yasashlarni o'rganib olishlari kerak. Bundan tashqari, ular kesma va siniq chiziq uzunligini, ko'pburchak perimetrini, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat va umuman har qanday figuraning yuzini (paletka yordamida) topish malakasini egallab olishlari kerak.

1. *Ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma'lumot.* Pedagogik tarbiyalashga oid ish tajribalarni o'rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonini chuqur tadqiq qilmay turib pedagogikani rivojlantirib bo'lmaydi. Hozirgi ta'lim-tarbiya pedagogikani ilmiy bilishning umumiy metodi bilan qurollantiradi, ammo boshqa har qanday fan kabi pedagogika fanining ham xususiy tadqiqot metodlari mavjud.

Ilmiy tadqiqot metodlari - bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasida butun pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlarning o'zidan foydalaniladi.

2. *Kuzatish metodi.*

Kuzatish metodi – odatdagi sharoitda kuzatish natijalarini tegishli qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish metodidan o'quv-tarbiya ishining u yoki bu sohasidagi ishning qanday borayotganini o'rganish uchun foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari haqida majbur qilinmagan tabiiy sharoitda faktik material to'plash imkonini beradi.

Kuzatish vaqtida tadqiqotchi o'quv jarayonining odatdagi borishiga aralashmaydi. Kuzatish aniq maqsadni ko'zlangan reja asosida uzoq yoki yaqin vaqt oralig'ida davom etadi. Kuzatishning borishi, faktlar, sodir bo'layotgan voqealar, jihozlar kuzatish kundaligiga qayd qilinib boriladi.

Foydalaniladigan kuzatish metodlaridan biri ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirishdan iborat.

3. *Tajriba*

Tajriba - bu ham kuzatish bo'lib, maxsus tashkil qilingan, tadqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va tizimli ravishda o'zgartirib turiladigan sharoitda o'tkaziladi. Pedagogik Tajriba o'qitishning va tarbiyalashning u yoki bu usulining, ko'rsatma – qo'llanmalarining samaradorligini tadqiq qilishda qo'llaniladi.

Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi tadqiq qilinishi kerak bo'lgan masalalarni aniq ifodalab olishi, bunday masalalarni hal qilinishi maktab amaliyotida va pedagogika fani uchun ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi o'rganish predmeti bo'lmish masalaning nazariyasi va tarixi bilan, shuningdek, shu soha bo'yicha amaliy ish tajribasi bilan tanishib chiqadi. Tadqiqotda

ilmiy farazni o'rni katta ahamiyatga ega. Butun tajribani tashkil qilish ilmiy farazni tekshirishga yo'naltiriladi. U material to'plash yo'larini belgilash imkonini beradi, tadqiqotchining faktik materialda chalkashib ketishiga yo'l quymaydi.

Tajriba natijalarini tahlil qilish, taqqoslash metodi bilan o'tkaziladi. Buning uchun ikki yoki bir necha guruh tuziladi, bu guruhlarga kirgan o'quvchilar tarkibi bo'yicha tayyorgarlik darajalari va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha imkoni boricha bir xilda bo'lishi kerak. Bir xil sinflarda tadqiqotchi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan tajriba materiali bo'yicha ish bajariladi. Taqqoslash uchun nazorat sinflari tanlanadi, bu sinflar o'quvchilar tarkibi, ularning bilim darajalari bo'yicha taxminan tajriba sinflarga teng kuchli bo'lishi kerak, bu sinflarda matematika tajriba sinflarda qo'llaniladigan metodlar, vositalar va boshqalar qo'llanilmaydi.

Tajriba natijalari haqida obektiv ma'lumotlar olishning boshqa usullaridan ham foydalaniladi:

1. Tajriba-sinov o'tkaziladigan sinflarda boshlang'ich shartlar nazorat sinfidagiga qaraganda bir muncha eng qulayroqdir; agar tajriba sinflarda bunday sharoitlarda yaxshi natijalar olingan bo'lsa, masalani tajriba hal qilishi o'zini oqlagan hisoblanadi;

2. O'quvchilarnig tarkibi taxminan bir xil bo'lgan ikkita sinf olinadi; tadqiq qilinayotgan masalaning yangi yechimi shu sinflarning bittasida qullaniladi, so'ngra boshqa mavzu materiallarida ikkinchi bir sinfda qo'llaniladi; agar bunday qo'llanishdagi yangi metod, usul yaxshi natija bersa, bu usul, metod o'zini oqlagan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.ziyonet.uz
2. Matematika. 1-sinflar uchun darslik. Toshkent-2022-y.
3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. kutubxona.adu.uz

SMART TEXNOLOGILARNI TA'LIMDA QO'LLASH – AQILLI
SINF XONA

S.P. Kutliyev¹, A.K. Xusainov², Rustamov K.R.³

¹TATU Urganch filiali assistent o'qituvchisi

²TATU Urganch filiali talabasi

³TATU Urganch filiali talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada aqilli sinf xonalarni qo'llash orqali ta'lim berish o'quvchilarni mutaxassis bo'lib yetishishida samara usuli va bu bugungi kunning talabi ekanligi haqida fikr yuritilgan

Annotation

This article argues that teaching using smart classrooms is an effective way to develop students as experts and that this is the need of the day.

Kalit sozlar: Talim, aqlli sinf xona, Google Classroom, vaqtni tejash texnologiyasi.

Aqlli sinf – bu texnologiyadan foydalangan holda juda ko'p turli xil o'qitish va o'rganish usullariga ega raqamli jihozlangan sinf. Qalamlar, qalamlar, qog'ozlar va darsliklar bilan jihozlangan an'anaviy sinfni tasavvur qiling. Endi o'qituvchilarga ta'lim tajribasini o'zgartirishga yordam beradigan bir qator qiziqarli ta'lim texnologiyalarini qo'shing!

Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'ini yangi texnologiyalarsiz tasavvur qilish mushkul. Pandemiya boshida maktablar yopilganda, biz ta'lim sohasi darhol masofaviy ta'limga qanday moslashishga harakat qilganini ko'rdik. Darslar videokonferensaloqa vositalari orqali onlayn tarzda o'tkazildi, topshiriqlar onlayn tarzda topshirildi va interaktiv ta'lim kabi boshqa virtual vositalardan foydalanildi. Ushbu moslashuvlar ta'lim kelajagining boshlanishidir.

Biz pandemiya tufayli futuristik ta'limning ozgina qismi amalga oshirilayotganini ko'rayotgan bo'lsak-da, bu sohada juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilga kelib butun dunyo bo'ylab elektron ta'lim bozori 243 milliard AQSh dollaridan oshadi. Sun'iy intellekt va virtual haqiqat kabi rivojlanayotgan texnologiyalar bilan biz ikki yildan so'ng aqlli sinflar yaratish imkoniyatini ko'rib chiqmoqdamiz.

Aqlli sinflar o'qituvchilarga o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitish uslublarini moslashtirish imkonini beradi. Bir qator texnologiyalar va aqlli sinf boshqaruvidan foydalangan holda, o'qituvchilar o'z o'quvchilarining ta'lim va

qo'shimcha ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashlari va har bir o'quvchining individual ta'lim rejasini qondirishlari mumkin.

Raqamli aqlli sinf o'qitish va o'rganish tajribasini ta'minlaydi. Bu esa talabalarga audio-vizual ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Biz fotosuratlar, grafiklar, xaritalar, oqim diagrammalari va animatsion videolar yordamida ma'lumotni tasvirlash uchun Google servis vositasidan foydalanamiz. Bu o'rganishni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Ko'rgazmali tasvirlar orqali o'rganish talabalarga mavzuni uzoq vaqt davomida o'rganish va eslab qolishlariga yordam beradi. Shu bilan birga talabalarni ommaviy axborot vositalari bilan jalb qilishda va darsning har bir qismini ba'zi maxsus effektlar va grafik taqdimotlar bilan tushuntirishga yordam beradi.

Google Classroom yozib olingan videolarni tomosha qilish, topshiriqlarni tarqatish va baholash vositasida fikr-mulohaza bildirish uchun ishlatiladi. Bu xabar almashish, forumlar va mobil bildirishnomalar orqali talabalar bilan oson muloqotni soddalashtiradi. Bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida tez-tez so'raladigan savollar sessiyasini yaratishga yordam beradi, bu yerda talabalar shubhalarini bartaraf etishlari mumkin. O'qituvchilar talabalarning taraqqiyotini kuzatishi va ularni raqamli mukofotlar bilan rag'batlantirishlari mumkin.

Ammo shuni yodda tutish kerakki, har bir aqlli sinf har xil! Qaysi vositalarni o'z ichiga olishi kerakligi haqida aniq qoida yo'q. Muayyan kontekst va talabalarning ehtiyojlariga qarab vositalar va o'qitishni farqlash har bir o'qituvchiga bog'liq.

Vaqtni tejash texnologiyasi – o'quvchilar sinfda eslatma yozishni odat qiladilar, bu ularning e'tiborini o'rganishdan chalg'itadi. Ammo smart-klass yordamida eslatmalar va taqdimotlarni bevosita talabalar bilan baham ko'rish mumkin. Shuningdek, turli vositalar o'qituvchilarga topshiriqlarni taqsimlashda, fikr-mulohaza bildirishda va munozaralarga jalb qilishda yordam beradi. Darsni rejalashtirish o'qitishning eng ko'p vaqt talab qiladigan qismlaridan biridir. Resurslarni yaratish, ish varaqlarini chop etish va darslarni rejalashtirish har hafta o'qituvchilarning soatlab vaqtini olishi mumkin. Lekin aqlli sinflar yordam berishi mumkin. Oldindan tayyorlangan cheksiz manbalar va o'rganish imkoniyatlari bir necha marta bosish orqali mavjud, ya'ni o'qituvchilar osonlik bilan darslarni qurish, rejalashtirish va o'tkazishlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn manbalar doimiy ravishda yangilanadi va bir zumda foydalanish mumki

Ekologik toza aqlli sinflar o'rganish va o'qitish uchun aqlli gadjetlardan foydalanadi, bu esa qog'oz, qalam, siyoh, qalam va hokazolardan qisman foydalanishni yo'q qiladi. Ma'ruzalar raqamli tarzda o'tkaziladi va hamma narsa onlayn rejimda mavjud. Shuning uchun ma'lumotni yozish va chop etishga hojat yo'q. Aytishimiz mumkinki, bu tabiatni sog'lom va yashil saqlash uchun aqlli sinflarning asosiy afzalliklaridan biridir.

Yuqori samarali – Psixologlarning fikriga ko'ra, tasvirlar, grafiklar, oqim sxemalari, videolar va boshqalar kabi aqlli texnologiya elementlaridan foydalangan holda vizual o'rganish juda samarali hisoblanadi va o'quvchilarga tushunchalarni tezda tushunishga yordam beradi. Aqlli sinflar ham chalg'itishni kamaytiradi va shuning uchun talabalar ko'proq diqqatni jamlashlari va ko'proq ma'lumotni saqlashlari mumkin.

O'quvchilarni rag'batlantirish – Aqlli sinfda sifatli ta'lim berish uchun raqamli doska, proyektorlar, kompyuterlar, LED va boshqalar kabi aqlli sinf jihozlaridan foydalanadi. Uskunalar orqali ko'rsatiladigan audio/vizuallar o'quvchilarni qiziqtiradi va ularga qiziqishni oshirishga yordam beradi. Bu o'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini charxlashda ham ishlaydi. Masalan, aqlli sinfda o'quvchi urug'ning o'simlikka aylanayotganini ko'rsa, o'simlikni barcha detallari bilan qanday chizish haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Xulosa

Yuqorida aytib o'tilganidek, aqlli sinf texnologiyasi ta'lim tizimi uchun ne'matdir. Bu o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, ularni o'z tasavvurlaridan tashqari fikrlashga undaydi. Endi oylab ko'rishimiz kerak biz bilganimizdek, bugungi o'quvchilar ertangi kunning kelajagi va biz ertangi kunga sarmoya kiritishimiz to'g'ri.

Foydanilgan adobiyotlar:

1. G'ozibekov D., & Safarov S. (2022). Ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 161–164. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5279>
2. Uktam Madaminov Ataxanovich, Sadikov Mahmudjon Akmuratovich, Kutliev Sardor Pulatovich, Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Ashirova Anorgul Ismoilovna. Development and application of computer graphics training software in information technology. 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT).
3. <https://blinqnetworks.com/the-future-of-education-is-here-smart-classrooms/>
4. <https://vidhyashram.edu.in/importance-of-smart-classroom-technology/>

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ ИНФОРМАТИКИ В СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Кутлиев С.П¹., Рустамов К.Р²., Исмоилова Б.Р³.

Ассистент Ургенчского филиала ТУИТ, q.sardor.86@gmail.com

Студент Ургенчского филиала ТУИТ, kr135369@gmail.com

Студент Ургенчского филиала ТУИТ, barnoisva@gmail.com

Аннотация: Цель работы заключается в изучении теоретических аспектов использования интерактивных методов обучения на уроках информатики в средних общеобразовательных учреждениях и разработать методические рекомендации, направленные на использование этих методов.

Ключевые слова: Интерактивные методы, образования, информатика

Объектом исследования является процесс обучения информатике в средних общеобразовательных учреждениях.

Современные тенденции образования, изменяющиеся социальные требования к выпускникам школ, новые образовательные идеи привели сегодня к всплеску волны интереса к более оптимальным организационным формам проведения урока. Традиционная форма обучения уже не способна дать тот необходимый багаж знаний для выпускника, чтобы в дальнейшем из него получился отличный и компетентный специалист, способный своими знаниями выбить себе путевку в жизнь. В особенности данная проблема сказывается на школьном предмете информатика. Это связано с тем, что информатика, как наука, очень быстро развивается, год за годом вводятся все новые понятия и определения, с космической скоростью развиваются программные, компьютерные и мультимедиа технологии. Именно поэтому учителями все чаще стали использоваться интерактивные методы, которые отличаются, прежде всего, новизной, оригинальностью: каждый урок неповторим, он представляет собой творческую находку учителя. Применение в учебном процессе интерактивных методов позволяет вовлечь в образовательный процесс всех учащихся, что, как правило, становится невозможным при традиционной форме обучения. Интерактивные методы обучения как нельзя лучше соответствуют новой концепции общего и среднего образования, в которой основное внимание уделяется ученику как личности, развитию его творческих возможностей, и прививают интерес к учебе.

Гипотеза исследования состоит в следующем, что если систематически и непрерывно осуществлять использование интерактивных методов обучения на

уроках информатики, то это в значительной степени повысит уровень знаний и умений учащихся по информатике, положительно отразится на мотивационном аспекте изучения данного предмета и в целом будет способствовать повышению качества образования и личностного их саморазвития.

Для достижения поставленной цели, потребуется решить следующие задачи:

– провести анализ с состояния проблемы использования интерактивных методов обучения на уроках информатики;

– раскрыть сущности понятий интерактивных методов, рассмотреть их виды и классификации;

– показать основные виды интерактивных методов обучения, используемых на уроках информатики;

– выявить методические особенности использования интерактивных методов обучения на уроках информатики;

– рассмотреть применение интерактивных методов обучения на уроках информатики для учащихся 8 класса в контексте темы «Аппаратные и программные средства ИКТ»;

– проанализировать методику использования интерактивных методов обучения на уроках информатики в процессе изучения темы «База данных» для учащихся 9 класса.

Для эффективного применения интерактивных методов, в том числе, для того чтобы охватить весь необходимый объем материала и глубоко его изучить, педагог должен тщательно планировать свою работу:

– использовать такие методы, которые адекватны возрасту учащихся и их опыту работы с интерактивными методами;

– дать задание обучающимся для предварительной подготовки: прочитать, продумать, выполнить самостоятельные подготовительные задания;

– отобрать для занятия такое интерактивное упражнение, которое давало бы обучающемуся «ключ» к освоению темы;

– в течение самих интерактивных упражнений дать обучающимся время подумать над заданием, чтобы они восприняли его серьезно, а не механически исполнили его;

– учитывать темп работы каждого учащегося и его способности;

– на одном занятии использовать один (максимум – два) интерактивных метода, а не их калейдоскоп;

– провести неторопливое обсуждение по итогам выполнения интерактивного упражнения, в том числе актуализируя ранее изученный материал, возможно акцентировать внимание и на другом материале темы,

прямо не затронутым в интерактивном упражнении;

– проводить экспресс-опросы, самостоятельные домашние работы по различным темам, которые не были затронуты интерактивными заданиями.

Литература

1. *Пометун О.И.* Интерактивные технологии обучения: Науч.-метод. пособие. /О.И.Пометун, Л.Л.В.Пироженко.— М.: А.С.К., 2004.
2. *Грабовский А.* Интерактивные технологии обучения в подготовке будущих учителей химии/А.Грабовский // Путь просвещения.— 2007. — № 3(45).
3. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. 2-е изд. – М.: Педагогика, 1984.

РЕШЕНИЕ 5 ПРОБЛЕМ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Кутлиев С.П.¹, Рустамов К.Р.², Исмоилова Б.Р.³

Ассистент Ургенчского филиала ТУИТ, q.sardor.86@gmail.com

Студент Ургенчского филиала ТУИТ, kr135369@gmail.com

Студент Ургенчского филиала ТУИТ, barnoisva@gmail.com

Аннотация: В период дистанционного обучения учащиеся столкнулись с большими проблемами, которые влияют на качество обучения. Рассмотрим каждую более подробно и узнаем, есть ли решение.

Ключевые слова: Дистанционное образование, проблема, решение.

Проблема 1: отсутствие личного общения с преподавателем

Теперь не получится в любое удобное время найти преподавателя, чтобы он объяснил вам непонятную тему, поставил зачет во внеурочное время или проверил домашку. Все общение в строго регламентированное время, и уговорами повлиять на сроки выполнения не получится.

Решение: придется приучить себя к дисциплине и фиксированию сложных моментов на бумаге. Потом, во время занятия можно задать интересующие вопросы и ничего не упустить.

Проблема 2: технические проблемы в ходе дистанционного обучения

Система образования не может в один миг решить вопрос связи преподавателя с сотнями студентов по сети для проведения лекции. А что, если один не слышит, а другой не видит? Нужно до автоматизма довести работу технических средств и программ, чего в университетах пока не могут сделать.

Для вуза перевести всех на дистанционное обучение связано с огромными финансовыми затратами. Кроме оснащения всех преподавателей и студентов нужными техническими средствами и ПО нужно найти и подготовить специальные кадры, которые будут помогать решать проблемы технического характера в процессе обучения.

Решение: использовать уже готовые решения, популярные во всем мире. Можно взять успешный опыт онлайн-школ и курсов. Использовать опробованные средства:

- для проведения видео-конференций Skype, Zoom – здесь каждый участник может задавать свои вопросы и видеть собеседника;
- инструменты совместной работы над документами Google Classroom и Google Docs;

- платформы с готовым контентом для самостоятельной работы дома
-

Проблема 3: нет возможности развивать навыки живого общения (с преподавателями, учащимися, администрацией вуза)

Поиск друзей и знакомых по интересам, налаживание связей и полезных контактов, даже возможность списать или договориться насчет конспекта – всего этого теперь нет в дистанционном обучении.

Эта же актуальная проблема ДО в РФ вызывает трудности для учителя при дистанционном обучении: отсутствие живого контакта не дает понимания, чем живет и дышит современная молодежь, чтобы развиваться в том же направлении.

Решение: теперь придется надеяться только на себя. А что до живого общения – придется искать его в других местах: кафе и кино, театрах и выставках. Впрочем, никто не мешает скооперироваться со студентами своего курса и сделать хорошей традицией собираться для отмечания сессии вместе.

Проблема 4: не все профессии можно освоить дистанционно

Сначала мы сталкиваемся с тем, что не любую профессиональную практику можно пройти дистанционно. Например, медицинскую, строительную, на производстве и т.д.

Но теперь перед нами стоит еще более сложная проблема: оказывается, что не каждую профессию в принципе можно освоить удаленно.

Как делать вскрытие или осматривать место преступления по сети? Как лечить животных и делать уколы пациентам? Как проводить буровые работы и проводить археологические раскопки?

Решение: для таких профессий чаще всего существует смешанная система обучения, когда часть занятий проходит дистанционно, а часть вживую. Поэтому не пугайтесь и смело учитесь удаленно.

Проблема 5: отсутствие само-мотивации и самодисциплины

Не у всех достаточно силы воли и поддержания мотивации к обучению. Все это осложняется еще и тем, что часто студенты выбирают профессию неосознанно. Они еще не сталкивались вживую с той профессией, которую выбрали для себя. Отсюда и отсутствие осознанного желания скорее к ней приступить, к чему приведет лишь успешное обучение.

Для других хорошим мотиватором является регулярный контроль преподавателя и личный контакт с педагогическим составом.

Особенно это важно для первокурсников, которые еще не приновились к местным правилам и обычаям и не знают, насколько важна самостоятельная

работа. А ведь в школе к этому не готовят (домашнее задание не в счет, оно ни в какие рамки не идет с тем, что задают в университете).

Решение: пробуйте найти свою мотивацию к обучению – для этого существуют разные техники. Работайте над самодисциплиной. Если не удастся, соберите группу единомышленников, чтобы помогать друг другу.

Литература

1. <https://zaochnik.ru/blog/problem-distantcionnogo-obuchenija-i-puti-ih-reshenija/>
2. «Термины и определения дистанционного обучения», Лаборатория дистанционного обучения Российской Академии Образования.
3. Теория и практика дистанционного обучения: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учебн. заведений / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева; Под ред. Е. С. Полат // М.: Издательский центр «Академия», 2004.

NATURALISM ACCORDING TO EMILE AND STEPHEN CRANE'S THEORY

*Supervisor: Yuldasheva F.F.
Senior Teacher of UzSWLU
To'rayeva Gulzodabegim,
Student of UzSWLU*

Annotatsiya: Mazkur maqolada siz naturalism yo'nalishi haqidagi ma'lumotlarni Emile Zola va Frank Norris kabi naturalistlarning shu yo'nalish bilan bog'liq nazariyalari asosida o'rganishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Naturalizm, inson ruhi, nonaturalistlar, g'ayrioddiy bilimlar, ilmiy uslub.

Abstract: In this article, you can learn about naturalism based on the theories of naturalists such as Emile Zola and Frank Norris.

Key words: Naturalism, human spirit, non-naturalists, supernatural knowledge, scientific method.

Аннотация: В этой статье вы можете узнать о натурализме, основанном на теориях натуралистов, таких как Эмиль Золя и Фрэнк Норрис.

Ключевые слова: натурализм, человеческий дух, нон-натуралисты, сверхъестественное знание, научный метод.

In modern philosophy, the term “naturalism” does not give specific meaning and arose in the first half of the last century from America. The major part of philosophers would accept naturalism as “human spirit” and this theory is not accidental, but some little part of philosophers can view the term with negative meaning by announcing themselves as “non-naturalists”¹. On account of their idea, there are some misunderstandings among people.

The main purpose of Naturalism includes a cautiously comprehensive appearance of modern society, many times focusing attention on lower-class characters in an urbanized scene or a wide-ranging prospect of a piece of coexisting life. This kind of life is often determined by philosophers scientifically which emphasizes the effects of environment to characters much more reliably than other reasons.

One type of literature that tries to get proofs about scientific rules of prejudice and impartiality to its searches of human spirit is naturalism. It is different from realism which pays attention to a literary approach more, naturalism indicates a theoretical site that is clearly explained in Émile Zola's studies.

¹ Daniel C. Denett's article "Philosophical issues", // Britannica Council Press 2017, p. 10-12

According to Zola's theory "human beasts"², it means characters, can be learnt by their relationship with their surroundings. "The experimental Novel" was written as the result of Claude Bernard's model as well as Hippolyte Taine's (a historian) consideration that human beings as "products" should be learnt fairly without converting or shifting their nature.

In addition to Zola's observation, American naturalists include Stephen Crane and Frank Norris. Also, naturalists used a variety of methods in order to write their novels completely. They described people's passions and instincts together with the ways how characters would survive in difficult situations which were governed by nature and forces of environment. Even though, they applied collective details and techniques by the realists, naturalists had their own specific method in mind when they wanted to begin writing about any event.

Stephen Crane's " The Open boat " is one example of them. "The Open boat" is a semi-fictional story based on true events. He was aboard the Commodore when it sank. He survived in the ocean for 30 hours before landing on the coast of Florida. Within the story, the narrator describes nature as neither a friend nor an active enemy. Rather, nature is merely indifferent to his existence. He and his friends who are on the boat are exceeded by the power of the nature.

Mankind sometimes live indifferent under pressure on or forcing acts which are expressed as an example of nature. In " The Open boat " by S. Crane the view of the romantic vision that " Nature never did betray the heart that loved her "³ 3illustrates definite appearance of the world. The rules of heredity and atmosphere affect to the individual's life. Universe sets out an image of fruitless attempts that out of the human desire.

Actually, naturalism is relatively scientific method that learns and teaches all beings and events around us. The principle of the nature somehow denies supernatural knowledge but it makes allowance for it that natural objects influence by the so-called supernaturalism. In the nature, there is unity of objects, a regularity of the world and evidence-based laws without one of them, another one does not exist.

REFERENCES:

- 1) Daniel C. Denett's article "Philosophical issues", // Britannica Council Press 2017, p. 10-12.
- 2) The MLA Handbook for Writers of Research Papers, // British Council Press, 7th ed. (2009), section 5.6.2.
- 3) Bitter Tastes "Literary Naturalism and Early Cinema in American Women's Writing", // University of Georgia Press 2016, p. 25-26.

² The MLA Handbook for Writers of Research Papers, // British Council Press, 7th ed. (2009), section 5.6.2.

³ Bitter Tastes "Literary Naturalism and Early Cinema in American Women's Writing", // University of Georgia Press 2016, p. 25-26

CHARLES DICKENS ROMANIDAGI BOLALAR MEHNATI

Ilmiy rahbar: Muhammedova Xulkar PhD

O'zDJTU talabasi: Isroilova Durdona

Annotatsiya: Ushbu maqolada Charles Dickensning hayoti va uning "David Copperfield" romanidagi bir nechta o'tkir ijtimoiy muammolar, ayniqsa, bolalar mehnati va uning oqibatlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Qirolicha Viktoriya davrida vujudga kelgan ba'zi muammolar haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, Qirolicha Viktoriya davri, bolalar mehnati, mehnat uylari, ayollar.

Ingliz adabiyoti nafaqat Yevropa balki, butun dunyo adabiyotlari ichida o'z o'rniga ega hisoblanadi. Shu tilda ijod qilgan yozuvchi va shoirlar o'zlarining o'tkir qalamlari va boshqalarga o'xshamagan yozish uslublari bilan ajralib turgan va ko'plab kutubxonlar qalbidan ham joy olgan. Ayniqsa, Qirolicha Viktoriya davrida yozuvchilar anchagina ko'paygan va ular real voqealarni yoki ijtimoiy muammolarni o'z asarlarida yoritib berishgan.

Bilamizki, 19-asr Qirolicha Viktoriya hukmronligi davri bo'lib, shu davrda bir qator ijtimoiy muammolar mavjud bo'lgan. Jumladan, Anglya 3 tabaqa: yuqori, o'rta va quyi sinflarga bo'lingan edi va bu odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. Zodagon odamlar umuman jismoniy mehnat qilmagan, aksincha xizmatkorlarni yollab ishlatganlar. Bu o'z navbatida bolalar mehnati ayollarining ishsizligiga olib kelgan. Shuningdek, nochorligi uchun ko'cha va xarobalarda yashaganligi sababli, turli kasalliklarga chalilib erta vafot etgan.

Charles John Huffam Dikkens(1812-1870) ingliz yozuvchisi va tanqidchisi bo'lgan. U 1812-yil 7-fevralda Anglyaning Portsmutida boy bo'lmagan oilada 8 farzandning 2-chisi bo'lib dunyoga keldi. Oilaning nochorligi tufayli u kelajakda jentlmen bo'lishni va bilim olishni juda xohlagan. Shu sababli, yosh bo'lishiga qaramasdan, Varren Blakning tovar omborxonasida haftasiga 6 shilling uchun ishlay boshladi. Bir necha oydan so'ng, John Dikkens kreditorlari bilan kelishuvga erishdi va qamoqdan ozod bo'ldi. Yosh Charles ham shu sababli qora fabrikada ishini to'xtatdi va Wellington House akademiyasiga yuborildi. Ammo uning 2 ta mashhur romani "Katta umidlar" "Great expectations" va "David Kopperfield" "David Copperfield" romanlari fabrikadagi og'ir hayoti haqida so'zlar va u buni hech qachon esdan chiqara olmasdi. Boshqalar qatori u ham adabiy faoliyatini jurnalist sifatida boshlagan. U "Parlament oynasi" va "Haqiqiy quyosh" jurnallarida ish boshlagan. Keyinchalik, u 1833-yilda u "Parlament oynasi" "Morning Chronicle" gazetasining jurnalisti bo'ldi va "Boz" taxallusini qo'llay boshladi. Keyinchalik, shu taxallusi ostida "Boz ocherklari"

“Sketches of Boz” asarini yozdi. 1836-yil aprel oyida Dickens Caterina Hogartga uylangandan so‘ng, shu oyda juda muvaffaqiyatli asarlaridan biri “Pikvik klubining maktublar”ini nashrdan chiqardi va shu ondan Dikens ijodga sho‘ng‘ib ketdi. Shuningdek, u teatr ishqibozi bo‘lganligi sababli pyesalar yozdi va 1851-yilda Qirolicha Viktoriya oldida ham chiqish qildi. Dickens qizg‘in ijod qilardi va ko‘plab mamlakatlarga sayohat qildi. Jumladan, Amerikada barchani teng huquqli bo‘lishiga da‘vat qildi. U ijodining gullayotgan vaqtida 1870-yil 58 yoshida insultdan vafot etadi va Westminster Abbeyda dafn qilinadi.

Yana bir ulkan muammolardan biri bu bolalar mehnatidir. Sanoatning rivojlanishi mehnat talabini o‘shiga olib keldi va buning natijasida bolalar ham ko‘mirchi, mo‘ri supuruvchi, xo‘jalik ishchilari va uy xizmatkorlari va hattoki, temir yo‘l ishchisi bo‘lishga majbur bo‘ldi. Bolalar mehnati 1800-yillarning boshlarida mehnat sharoitlarini yaxshilashga harakat qilinmagani sababli jiddiy muammoga aylandi va buni oqibatida minglab bolalar o‘z orzulari va maqsadlaridan ayrilib, faqat mehnat qilishga jalb qilindi. Ulardan eng og‘ir ish bu ko‘mir konlarida ishlash edi. Bolalar shaxtalarda kuniga 12-18 soat ishlashlari natijasida kasalliklarga chalingan. Bunday og‘ir mehnat sharoitlari nafas olish muammolarining rivojlanishiga va shu tufayli sodir bo‘ladigan jarohatlarning ko‘payishiga olib keldi. Charles Dickens ham o‘z asarlarida Qirolicha Viktoriya davrining nochor odamlarini himoya qilish va o‘sha davrni tanqid qilish vositasidan foydalanib, ko‘pgina islohotlarga katta hissa qo‘shgan. Uning “Katta Umidlar” “Great Expectations”, “Pikvik klubining maktublari” “The Pickwick Papers”, “Oliver Twist” “Oliver Twist” va boshqa asarlarida ham aynan o‘sha davr muammolari, ayniqsa bolalar mehnatini yoritib o‘tgan. Shundan so‘ng, kitobxonlar bu asarlarni o‘qib, yozuvchining haq bo‘lganiga guvoh bo‘lishgan. Charles Dickensning “David Copperfield” nomli avtobiografik asarida ham o‘zining boshidan kechirganlarini va o‘sha zamon muhitini kitobxonlarga tasvirlaydi. David, romanning bosh qahramoni, otasining bevaqt o‘limidan so‘ng dunyoga kelgandi. Ularning Pegotty ismli xizmatkori bo‘lib, u juda mehribon va onasiga har tomonlama ko‘mak berar edi. Xususan, Davidni tarbiyalashda ham Pegottyning hissasi beqiyos bo‘lgan. Davidning fikricha, ular shu vaqt baxtli edilar, ammo to‘satdan uning onasi Klara turmushga chiqishi bilan Davyning hayotidagi eng qorong‘u va zulmatli kunlari boshlanadi. Bolaning o‘gay otasi Janob Murdstone qattiqqo‘l va yomon inson bo‘lib chiqadi, biz buni ismining ma‘nosidan ham bilib olishimiz mumkin, ya‘ni “murd”-qattiq, “stone”-tosh degan ma‘noni bildirib, yozuvchi bu yerda bir so‘z bilan aytganda, toshbag‘ir demoqchi bo‘lgan. U doim bahonalar bilan Davidni urar, ona va bolaning munosabatlarini buzishga harakat qilardi. Keyinchalik, bu urinishlar oqibatida David dunyodagi eng yomon maktablardan biri deb tasvirlangan “Salem House”ga jo‘natiladi va u yerda u bolalarga ta‘lim berishdan ko‘ra, ularni qiynash va xo‘rlashga guvoh bo‘ladi. Buni ilk bor kegan o‘quvchilarga direktorning aytgan so‘zlaridan bilib olishimiz mumkin:

"Come fresh up to the lessons, I advise you, for I come fresh up to the punishment. I won't finch. It will be of no use your rubbing yourselves; you won't rub the marks out that I shall give you." "Darslarga tetik va tayyorlanib kelishingizni maslahat beraman, aks holda o'zim jazolashda tetik bo'laman. Men chiday olmayman. O'zingizdagilarni o'chirishdan foyda bo'lmaydi. Chunki men sizlarga beradigan baholarni o'chira olmaysizlar."¹

Bu bilan yozuvchi shu davrdagi ba'zi maktablarning ta'lim tizimining qanchalik pastligini va bolalarning azoblanishini tasvirlagan, chunki u ham hayoti davomida shunday qiyinchiliklarga duch kelgandi. David bu maktabda Stirfort ismli bir bola bilan tanishib, u bilan do'stlashadi. Keyinchalik, u maktabda ekanligida onasi zaif va nozik bo'lgani uchun kasallikni yenga olmay erta vafot etadi. David shu payti bu hodisadan juda tushkunlikka tushib qolgandi, chunki bu uyda unga mehribonlik qiladigan odam endi yo'q edi. Uning o'gay otasi va uning singlisi Davidga hamma narsa qilishi mumkin edi va shunday ham bo'ldi. Pegotty uydin haydaldi, David esa 10 yosh bo'lishiga qaramay, Londonda og'ir ishda ishlashga da'vat qilindi. Mr. Murdstone bolaga ishlash uchun shunday deydi.

"Education is costly; and even if it were not, and I could afford it, I am of opinion that it would not be at all advantageous to you to be kept at school. What is before you, is a fight with the world; and the sooner you begin it, the better. Those terms are, that you will earn enough for yourself to provide for your eating and drinking, and pocket-money. Your lodging (which I have arranged for) will be paid by me. So will your washing!". "Ta'lim olish pulli, men boy emasman va senga pul bera olmayman. Menimcha, maktabda qolishing sen uchun foydali emas. Undan oldin, sen o'zing uchun kurashishing kerak va buni yaqin orada boshlaysan. Yeb-ichishing va kunlik xarajatlaring uchun o'zing pul ishlab topasan. Men senga Londonga borish pulingni to'layman. Sen esa u yerda idishlarni yuvasan"²

Tez orada David Londonda Janob Grinby bilan hamkorlikda ochilgan o'gay otasining katta omboriga jo'natiladi va u yerda boshqa bolalar bilan birga bo'sh shishalarni yuva boshlaydi. Yozuvchi bu jarayonni ayanchli tasvirlaydi:

"It was a crazy old house with a wharf of its own, abutting on the water when the tide was in, and on the mud when the tide was out, and literally overrun with rats. Its panelled rooms, discoloured with the dirt and smoke of a hundred years, I dare say; its decaying floors and staircase; the squeaking and scuffing of the old grey rats down in the cellars; and the dirt and rot-tenness of the place; are things, not of many years ago, in my mind, but of the present instant". "Bu ahmoqona eski uy edi, suv bilan yonma-yon joylashgan, to'liq bosganda esa loyga botadigan va tom ma'noda kalamushlar bosib

¹ Charles D. David Copperfield. Oxford. Oxford University Press, 2016- 278 b

² Charles D. David Copperfield. Oxford. Oxford University Press. 2016- 456 b

ketgan joy edi. Uning yuz yillik kir va tutundan rangsizlangan panelli xonalari, deyshga jur'at etaman; uning chirigan eshiklari va zinapoyalari; yerto'lalarda cho'zilib ketgan eski kulrang kalamushlarning g'ichirlashi va shitirlashi; Bu joyning iflosligi va chiriganligi ko'p yillar oldingi emas, balki hozirgi paytdagi narsalardan dalolat berardi"³

David 10 yoshida har narsani ko'rsa, hayratlanish qobiliyatini deyarli yo'qotadi va asosiysi bolaligidan ayriladi, chunki o'z tengqurlari qatori o'ynay olmaydi yoki ota-onasiga erkalik ham qila olmaydi. U shu paytda o'zini butunlay umidsiz his qilar, o'zining orzulari qanchalik uzoqqa ketayotganini ko'rib, juda tashvishlanar, ba'zida hech kim yo'q paytlari hech nima qilolmagani uchun yig'lab ham olar edi. David haftasiga 6 shilling olardi. Bu yozuvchi ishlagan Varren Blak omborxonasidan olgan pul bilan bir xil. Demak, u shu paytlari o'z hayotini va shu davrning eng katta ijtimoiy muammolaridan birini o'zi boshidan kechirgan holda kitobxonlarga so'zlab bermoqda. Shuningdek, Dikensni otasi qamoqqa tushishida kreditorlar aybdor bo'lganligi uchun bu romanda ham ularni juda yomon Janob Mikavberni uyiga har kuni keladigan deb tasvirlagan.

David yosh bo'lishiga qaramay juda zehni o'tkir bola edi. U o'z o'tmishini o'ylab iztirob chekardi. Bu davrda birgina azob chekayotgan bola David emasdi, bunday hollar oddiy hol sifatida qaralib, faqat ota-onasi boy, puli bor bo'lgan odamlarning bolalari o'qiy olardi. Qolganlari esa Davidga o'xshab ishlar va pul topishi kerak edi. Bu jarayonga davlat ham oddiy qarar va hech qanday chora ko'rmagan edi. Buning oqibatida, minglab yetim, nochor bolalar boshpana va yegulik topolmay qiynalardi. Bu romanda ham haftasiga u 6 shilling uchun ishlagan, lekin u pulga bir marta to'yib go'shtli ovqat yesa bo'lardi, xolos. Shu davrda bola huquqlari oyoq osti qilingan va romanda ham bitta David emas uning sheriklarini ham yosh ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, bu ishlar qahramonimiz ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'zini yolg'iz, zaif hisoblay boshlaydi va ishga borib kelganda ham hech kim bilan gaplashmaydi. Kunlar shu tarzda bir xil o'taveradi, lekin bir kuni uy egasi Janob Mikavber oilasi bilan Londonni tark etishiga to'g'ri keladi va David ham ammasi haqida eslab, Pegottyga uning yashash manzili va pul so'rab xat yozadi. Chunki uning yagona najotkori ammasi edi. Pul kelgandan so'ng, u Doverda yashashini bilib, ammasinikiga o'tlanadi. David yo'l davomida ham juda qiynaladi, puli ham qolmaydi. Ohiri, o'z ammasining uyiga yetib keladi, lekin ammasi uni tanimaydi. Negaki, David juda yomon ahvolda edi. Ular tanishishgandan keyin David unga hamma bo'lgan voqeani aytib beradi.

³ Charles D. David Copperfield. Oxford. Oxford University Press, 2016- 692 b

Bugungi kunga ham aloqador bo'lgan ushbu roman dolzarbligini yo'qotmadi. Charles Dickens bu asarida Viktoriya davrini iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini tanqid qilgan zabardast yozuvchilardan biri hisoblanadi. U bizga Viktorian ingliz jamiyatidagi hayotni to'laligicha ko'rsatib bergan va bolalarning ta'lim olmasdan faqatgina ishlashiga qarshi chiqqan. Shuningdek, bu masala inson huquqlari me'yorlariga ham kirmasligini aytib, bolalarning mehnatini kamaytirishga harakat qilgan. Shuning uchun ham uning romanlari hanuz kitobxonlar qalbini zabt etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dickens Ch. The Pickwick Papers. Oxford: Oxford University Press, 1998. -330 b
2. James L. "The nineteenth Social-Novel in England", in Encyclopedia of Literature and Criticism. London; Routledge, 1990. -150 b
3. Dickens Ch. The life and adventures of Nicholas Nickleby. Oxford. Oxford University Press, 1999. -450 b
4. Marcus S. Dickens from Pickwick to Dombey. New York: Basic Books, 1965.-250 b

MUSTAQIL TA'LIM OLISH UCHUN FOYDALI METODLAR

*Ilmiy rahbar: Yuldasheva F.F.
O'zDJTU katta o'qituvchisi
Isroilova Durdona
O'zDJTU 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari til o'rganuvchi talabalari uchun mustaqil ta'limni darsdan so'ng tashkil qilishdagi metodlar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, har bir metodning afzalliklari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, metod, individual o'rganish, guruhda ishlash, muhokamalar.

Annotation: This article discussed the methods of organizing self-study after classes for students who are learning languages in higher education. Furthermore, the benefits of each method are explained in detail.

Key words: self-study, method, individual study, working with group, discussions,

Аннотация: В данной статье рассказывается о методах организации самостоятельного внеурочного обучения студентов высших учебных заведений. Кроме того, подробно объясняются преимущества каждого метода.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, метод, индивидуальное обучение, групповая работа, дискуссии.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda barcha fandagi ma'lumotlarni faqatgina dars jarayonida yetkazib berish juda qiyin. Ayniqsa, bu ma'lumotlar boshqa chet tillarini o'rganish bo'yicha bo'lsa, bunday vaziyatda talabalar ham o'z ustida ishlashlariga to'g'ri keladi. Chunki, 80 minut davomida berilgan mavzuni to'laqonli o'rganish mushkul ish. Shuning uchun, dars soatlari davomida qamrab olinmagan mavzu va topshiriqlarni, talabalar o'zlari yetarlicha o'rganishga, va darsdan tashqari vaqtlarda o'z ustida izlanish va ijodkorlikka mustaqil o'rganish yo'li bilan erisha oladi. Talabalar ushbu jarayonda mustaqil fikrlash, mustaqil ravishda ishlash ko'nikmalarini o'rganishlari va uni keyingi bosqichlarda, ayniqsa, ilmiy faoliyatida ishlatishlari mumkin.

Hozirgi kunda mustaqil ta'lim olish uchun juda ham ko'p metodlar mavjud bo'lib, ularning ichida eng samarali metodlardan biri bu individual ishlashdir. Bunda, bilimga o'zi qo'shimcha, ya'ni darsdan tashqari ishlash orqali erishiladi. Bu metod orqali talabalar o'zi qiziqqan ma'lumotlarni topishi va o'rganishi mumkin. Shuningdek, ular bu ishni qilish orqali hech kimning yordamisiz vazifani bajargan bir mustaqil inson sifatida o'zini ko'ra oladi. "Ta'lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog

talabalarning mustaqil fikrlashi uchun sharoit yaratishi lozim, aks holda talaba ongi tayyor shablonlar, streotiplarga shu qadar o'rganadiki, ular oxir oqibat har qanday noto'g'ri yoki yod g'oyalarga ergashib ketaveradigan bo'lib qoladi"¹

Ushbu metod 6 bosqichdan iborat. Avvalo, matn ko'zdan kechiriladi, ya'ni uning mundariyasi va bo'limlari bilan tanishib chiqiladi. Keyingi bosqichda mavzu yuzasidan savollar shakllantiriladi. Xususan, Men matndan nimani o'rganishim kerak? Yoki menga bu matnning qayerlari kerak yoki muhim? degan savollarni berishimiz kerak. Savollar tuzganimizdan so'ng ularga javobni matn ichidan qidirishimiz va shu joyni belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Matni o'qish jarayonida savollar bitta joyda yoki butun matn ichida joylashishi mumkin. Shuning uchun, turli esda qolarli sxema va chizmalar orqali shu joyni belgilab qo'yish savolning javobini yozayotganimizda yordam beradi. Ohirgi bosqichda esa yozilgan va o'rganilgan bilimlar umumlashtiriladi.

"Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish va ularni raqobatbardoshligini ta'minlash, amaliy va nazariy bilimlarni mukammallik darajasiga olib chiqish muhim ahamiyatga ega"². Bu raqobatbardoshlik va mustaqil o'ranishning samarali metodlardan biri bu guruh bo'lib ishlashdir. Talabalar darsdan bo'sh vaqtlarida 2-6 talik kichik guruh tuzish orqali mustaqil bilim olishlari mumkin. Guruhdagi a'zolarining inoqligi va qiziqishlarining o'xshashligi bu jarayonni yanada zavqli qiladi. Bunda dars davomidagi o'tilgan narsalarni barcha a'zolar mustahkamlab, ko'plab yangi ilmlarni o'rgana olishadi. Bu jarayonda ularga darsdagi eslatma va konspekt daftaridan foydalanish yoki o'zaro eslatmalarini solishtirish juda katta foyda beradi. Guruh kutubxonaga borib, mavzu ustida tadqiqot olib borishi yoki ba'zida professor ustozlardan ko'mak olishi ham mumkin. Kutubxonada guruhdoshlar kelishgan holda mavzuni qismlarga bo'lib o'qish va o'z qismini guruhdoshlariga aytib berish orqali ham ma'lumotlarni ko'proq esda qolishini ta'minlasa bo'ladi va albatta, bu vaqt ham tejalishiga ham olib keladi. "Guruh bo'lib ishlash o'rganuvchilarda samaradorlikni oshiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilib, muammolarni hal qilishda va turli xil odamlar bilan moslashib ishlashda ham yordam beradi."³

Keltirib o'tilgan metodlar talabaning faqatgina darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, ularning mustaqil ravishda ma'lumotlarni o'rgana olish maqsadida qo'llaniladi. Bu metodlarning yana bir afzalliklaridan biri shundaki, bu talabada o'zini ustida ishlashga, kreativlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini yaxshilashga, o'rganan

¹ Quvondiqova M.I. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. "Tafakkur manzili"- 2022. 381-b

² Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. T.: -O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006 y. 166-b

³ Avlaev O.U. Jo'rayeva S.N. Ta'lim metodlari. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, Navro'z, 2017. -208 bet

narsalarini o'rgatishga juda katta yordam beradi. Talabalar o'zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib, bittasini tanlashlaru va mustaqil ravishda ham samarali ta'lim olishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quvondiqova M.I. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. "Tafakkur manzili"- 2022. 381-b
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: -O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006 y. 166-b
3. Avlaev O.U. Jo'rayeva S.N. Ta'lim metodlari. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, Navro'z, 2017.-208 bet

MUSIQA MADANIYATINING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

*Dinora Soporboyeva San'atovna**Xorazm viloyati Shovot tumani**1-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda musiqa san'ati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, musiqa madaniyati tushunchasi va umumta'lim maktablarida musiqa madaniyatini o'qitish metodikasi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, epik, lirik, dramatik, tovush, ton, ijro, oktava, madaniyat

Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Musiqa (yun. mousiche — muzalar san'ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi mu'ayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari — Imom G'azoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir. Musiqa asarlari mazmunida musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika musiqaning „botiniy“ tabiatiga ancha

yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tari-xiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi.

Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g‘urur hamda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir. Musiqa tinglash badiiy ta’limning muhim vositalaridan biri bo‘lib, u darsning barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Tinglash bolalarda hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda musiqa tili, ifoda vositalari, janr va shakllarini o‘rganish muhimdir. U musiqani badiiy-g‘oyaviy jihatdan to‘g‘ri idrok etib, estetik zavqlanishga imkon beradi. Tinglash qoidalari sinfdagi jimlikni ta’minlab, o‘quvchilarni musiqani diqqat-e’tibor bilan eshitishga o‘rgatib, onglik va faollikni rivojlantiradi hamda musiqa madaniyatini shakllantiradi.

Darslar davomida har bir musiqiy asarda muayyan voqelik, his-tuyg‘u va mazmun bo‘lishi haqida o‘quvchilarga dunyoqarashiga mos tarzda tushuntiriladi. Shu orqali bolalarda musiqiy taassurot va tinglash ko‘nikmasi shakllanadi. Tinglash faoliyatini butun dars davomida olib borish o‘quvchining asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida muayyan bilimlarga ega bo‘lishiga yordam beradi, tinglash madaniyatini shakllantiradi.

O‘quvchilarning faolligini oshirish va tinglash malakasini shakllantirish uchun “Topqirlik” mashqidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avvalgi darslarda tinglangan kuy-qo‘shiqlar karnaycha- (katak, tasvirlar)lar ostiga joylashtiriladi. Bolalar istalgan karnaychani tanlab, undan yangragan ohangning nomi va muallifini aytishadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni diqqatni tezkor jamlashga o‘rgatib, xotirasini mustahkamlaydi.

Tinglanadigan musiqiy asar tuzilishi, badiiy-g‘oyaviy mazmuni jihatidan o‘quvchilarning yosh xususiyati va o‘quv dasturiga mos bo‘lishi, yangrash vaqti 1-1,5 daqiqadan oshmasligi lozim. Tinglash jarayonini quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- 1) Bolalar diqqatini jamlash. Asar haqida o‘qituvchining kirish so‘zi;
- 2) O‘qituvchi ijrosidagi yoki CD formatdagi asarni tinglash;
- 3) Asarni suhbat orqali musiqiy, badiiy-g‘oyaviy jihatdan tahlil qilish;
- 4) Asarni yaxlit qayta tinglagach, o‘quvchilarning taassurotlarini eshitish.

Tinglanadigan asarlardan parchalar (mashq-qo‘shiqlar) kuylash, chapak va cholg‘u asboblarini chalib, ularga ritmik jo‘r bo‘lish va musiqaga mos harakatlar bajarish chog‘ida bilim va malaka takomillashib, mustahkamlanadi. 5—7-sinf o‘quvchilari mustaqil fikr yuritadigan, aqlan va jismonan rivojlangan, musiqiy va

estetik didi shakllangan bo'ladi. Shu bois bu yoshdagi bolalar zamonaviy musiqa san'ati va uning ko'zga ko'ringan vakillari ijrosini tinglaydi. 7-sinf o'quvchilari bilan tinglash faoliyatini amalga oshirish jarayonida diqqatni jamlash, musiqani anglash, uni idrok etish, cholg'ularni va musiqiy janrlarni bir-biridan farqlashga o'rgatish tavsiya etiladi. Tinglash asnosida o'quvchilarga quyidagi mazmunda bir nechta topshiriqlar berish lozim:

1. Kuyning xarakterini toping.
2. Kuy qaysi cholg'uda ijro etilgan?
3. Kuyning o'zbek milliy kuylariga o'xshash jihatlari bormi?
4. Ushbu asar siz avval tinglagan kuylardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
5. Asarni tinglash jarayonida tasavvuringizda qanday rang yoki obrazlar gavdalandi?

Bu kabi topshiriqlar orqali o'quvchilarning badiiy ijodkorlik va tinglash ko'nikmasi shakllanadi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga eng tushunarli va sevimli bo'lgan faoliyat turi jamoa bo'lib kuylashdir. U musiqa san'ati janrlari orasida ommaviyligi bilan ajralib turadi. O'quvchilarning musiqiy didi va estetik qarashlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish o'quvchilarni jipslashtiradi.

Jamoa bo'lib kuylashda o'quvchilarning ovozini zo'riqtirmaslik, ovoz sifatlari(tembr, diapazon)ni o'stirish va rivojlantirish maqsadida kuylashdan oldin, albatta, barcha sinflarda ovoz sozlash mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Bunday mashqlarni prima, tersiya va kvinta oralig'ida bajarish, o'quvchilarning ovozini 0,5 tondan ikkinchi oktava - mi tovushigacha ko'tarish maqsadga muvofiq. Boshlang'ich sinflar uchun o'yin tarzida chapak chalib ovoz sozlash mashqlarini o'tkazish yaxshi natija beradi. Milliy ohanglarimizdan tuzilgan ovoz sozlash mashqlarining ham foydasi katta. Mashqlarni guruhlarda bajarish o'quvchilarni o'zaro hamjihatlikka va hamkorlikka o'rgatadi.

Ovoz sozlash mashqi uchun quyidagi kuydan foydalanish mumkin:

Bolalarning ovoz boylamlari kattalarnikidan ancha farq qilib, baland pardalarda jarangdor yangraydi. Ularning ovozi o'z navbatida soprano yoki diskant (o'g'il bolalardagi eng baland ovoz) va alt ga bo'linadi. Soprano yoki diskant deb bolalarning yuqori ovoziga aytiladi. Bunday ovoz yengil, o'zgaruvchan, yumshoq yangragani sababli qo'shiqlarda asosiy kuy yo'lini ta'sirchan ijro etadi. Uning diapazoni birinchi oktava -do dan ikkinchi oktava —sol gacha bo'lgan oraliqni egallaydi. Alt esa pastroq ovoz bo'lib, birmuncha yo'g'on va kuchli tembrga yaqinligi bilan ajralib turadi. Diapazoni kichik oktava -sol dan ikkinchi oktava —re gacha bo'ladi. Jamoaviy kuylash vokal-xor ijrochilik mahorati bilan uzviy bog'liq bo'lib, hamohanglik, so'z, talaffuz, musiqiy badiiy vositalar, nafas olish, tovush hosil qilish va uni shakllantirishdan

iboratdir. Bu jarayonda o'quvchilarda gavdani to'g'ri tutish, yuz, bo'yin, yelka mushaklarini erkin qo'yib, kuylayotgan paytda halqum va pastki jag' tomoqni siqmasligi, boshni erkin tutishni nazorat qilib borish va shu tarzda kuylash malakasini shakllantirish tavsiya etiladi. Jamoa bo'lib kuylashda legato, ya'ni ohangning bir tekis bog'lanishi; non legato — bog'lamasdan alohida ijro etish (tovushlar orasida nafasni ushlash); stakkato — tovushlarni uzib, qisqa ijro etish (tovushlar orasida nafas olmaslik) kabi ijro uslublaridan keng foydalanish o'quvchilarning ijro mahorati va zehnini o'stiradi. Musiqa savodi faoliyat turida mavzu asosida bilim berish bilan birga, nota daftarlariga turli mashqlar bajartirish tavsiya etiladi. O'quvchilar topshiriqlarni nota daftarlarida bajarib, notalar va ularning cho'zimi, yozilishi kabilar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akrashina O.A. Методика музыкального воспитания в школе. Москва, Просвещение, 1983-yil.
2. Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'p ovoqli kuylash. – Toshkent, “G'. G'ulom.” Nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti, 1997-yil.
3. Rajabova D. Fortepiano mashg'ulotlari. – Toshkent, O'qituvchi, 1994-yil.
4. Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent, “San'at” – 2001-yil.
5. Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008 – yil.

INFORMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR

Ibrat Inoyatov Ibodullayevich
Xorazm viloyati Shovot tumani
19-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya: Mazkur maqolada informatika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: AKT, pedagogik texnologiya, interaktiv usullar, savollar, bahs, tarmoqlar, baliq skeleto

O'quv jarayonida AKTdan foydalanish o'quv va mustaqil ta'limni kuchaytirishning oqilona va chuqurligini oshirishning oqilona usuli hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar asosida o'qituvchining yangi bilimlarning o'quvchilar tomonidan muayyan o'quv topshiriq, masalalarni yechishi bo'yicha muammoviy vaziyatlarni tashkil qilishi va shu yo'nalishda o'quv jarayonini boshqarishi tamoyili yotadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini hosil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki mazkur usullar o'quvchilarning diqqatini qo'yilgan muammolarning mohiyat-ahamiyatini anglab olishga va ularning yechimi ustida mustaqil, tanqidiy muhokama yuritishga yo'naltiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta'riflash va bo'lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, baxs va boshqalar nazariy-metodologik mavqeini egallaydi.

Pedagogik texnologiyalardan biror bir fanni o'qitish jarayonida foydalanish o'qituvchidan informatika va axborot texnologiyalari fani asoslarini yaxshi bilishni, uning qonun-qoidalari va usullarini amaliyotda qo'llay bilish malakasiga ega bo'lishini talab etadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o'qitish metodikasida asosiy o'rinlardan yana birini o'qitish usullari egallaydi.

O'qitish metodlarining muammosini qisqacha "qanday o'qitish kerak?" degan savol yordamida ifoda qilish mumkin. Lekin shuni e'tirof etish lozimki, ushbu savolga javob olish uchun "Nima uchun o'qitish kerak?", "Nimalarni o'qitish kerak?" va "Kimlarni o'qitish kerak?" kabi savollar bo'yicha yetarlicha axborotga ega bo'lish kerak. Ana shundagina o'qitish maqsadi va mazmuniga, o'quvchilarning fikrlash

faoliyati darajasiga to'liq javob bera oladigan o'qitish metodlarini tanlash masalasi xal etilishi mumkin.


O'qitishning maqsadi va vazifalari o'qitish metodini yagona ravishda aniqlamaydi. Ma'lum bir mazmun bir necha metod bilan o'rganilishi mumkin. Bunda albatta xar bir metod yordamida o'qitish maqsadlariga erishiladi.

O'qitish metodlari ko'p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko'plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo'yicha jamlanadi.

Ma'lumki, "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba'zi bir umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro'lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni xisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim.


Quyida bir nechta zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yoritib o'tamiz.

Quyida "Tarmoqlar(klaster) usuli" ga misol



“Baliq skeleti” texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, informatika darslarida "Power Point "dasturi mavzusida uning imkoniyatlari muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar.

“Baliq skeleti”ni to‘ldiring.



Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.

Informatik optimum metodi.

Optimum- eng yaxshi degan ma'noni bildiradi .Bu metoddan o'quvchilar bilimni o'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash uchun foydalanish o'rinlidir.Bunda eng so'zi asos qilib olinadi va har bir savol shu so'z bilan boshlanadi.

Masalan: Eng katta kompyuter xotirasi?

Eng ko'p ishlatiladigan dastur?

Eng kichik kompyuter qurilmasi?

Eng ko'p foydalaniladigan kompyuter qurilmasi?

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tavsiyalardan dars mashg‘ulotlarini olib borishda foydalansa o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshishi barobarida ta'lim sifati ham yuqori bosqichga ko'tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxojayeva N.N. “Pedagogika va pedagogik mahorat”- T.: TDPI, Nizomiy 2003 yil.
2. Avliyoqulov N. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”- T.: , 2001yil.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari”- T.: O‘qituvchi 2004 yil.
4. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Qarshi, 2000 yil.
5. Saidaxmedov N.S. “Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash namunalari”- T.: PTM , 2000 yil .
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot”- T.: Fan, 2005 yil.
7. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti.
8. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lim portali.

**MILLIY BREND TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA KORXONALARDA
BRENDING MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH**

Abasova Gulirano¹

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

II kurs magistranti, MEKP-01

Abstract: The article analyzes the actual problems of national branding in detail. Brand essence is theoretically detailed and economically based. What should be considered when creating a brand? Enriched with interesting charts and infographics.

Key words. brand, branding, branding process, national brand, competition, analysis, diagram, infographic, association, marketing, advertising.

Annotatsiya: Maqolada milliy brendingning dolzarb muammolari batafsil tahlil qilinadi. Brend mohiyati nazariy jihatdan batafsil va iqtisodiy jihatdan asoslangan. Brend yaratayotganda nimalarga e'tibor berish kerakligi to'g'risida fikr yuritilgan. Qiziqarli diagramma va infografiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar. brend, brending, brending jarayoni, milliy brend, raqobat, tahlil, diagramma, infografika, asotsiatsiya, marketing, reklama.

Kirish. Mamlakatimizning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tishga asoslangan hozirgi siyosati, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilish va korxonalaridagi iqtisodiy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Har bir korxonada raqobatda kutilmagan tadbirlarni amalga oshirish natijasida biznes sohasida yangi rivojlanish yo'llari ortib bormoqda. Iste'molchilar va mahsulot yetkazib beruvchilar orasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari orasida tartibga solishning bugungi bosqichida tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish, sotish strategiyasini takomillashtirish, shuningdek brending siyosatini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy kompaniyalarda brending mexanizmini amalga oshirish siyosatini o'rganish masalalari bo'yicha chet el olimlaridan D.Aaker¹, Kumar V, Tomas Gad² va boshqalarning bar qator asarlari ushbu sohadagi tadqiqotlarga bag'ishlangan. MDH mamlakatlari iqtisodchilarining asarlarida ham marketing strategiyasini rejalashtirish muammolari o'z aksini topgan bo'lib, ulardan V.E.Demidov, P.S.Zavyalov, N.E.Kapustina, A.N.Romanov,

¹ Аакер Д. Создание сильных брендов. – М.: Издательский дом Гребенникова, 2013; Аакер Д., Кумар В. и др. Маркетинговые исследования: 7-е изд. / Под ред. Божук С.; Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2014. – 848 с.; Аакер Д. Стратегическое рыночное управление. – СПб.: Питер, 2021;

² Thomas Gad – 4DBranding//[*www.4dbranding.com*](http://www.4dbranding.com)/

E.A.Utkin, E.P.Golubkov, G.A.Bagiev, L.T.Danchenok, V.A,Shegorstev, G.L.Gardariki, Igor Mann va boshqalarni alohida ko'rsatish mumkin. O'zbekistonlik marketolog olimlar, xususan A.Bekmuradov, M.Yusupov, J.Jalolov, A.Fattahov, Sh.Ergashxodjaeva va boshqalar ham marketing nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqdalar. Shu bilan bir qatorda xorijiy kompaniyalarda branding mexanizmini tashkil etish va amalga oshirish siyosati yetarli o'rganilmagan. Shuning uchun ushbu mavzuni chuqurroq o'rganishga va tahlil qilishga harakat qilindi.

Metodologiya. Ushbu maqolaning metodologiyasini abstraksiya, deduksiya, tasniflash, umumlashtirish, qiyosiy, dinamik qator, nazariy talqin va tahliliy uslublardan foydalanilgan. Shuningdek, ushbu mavzu yuzasidan to'plangan ma'lumotlar qayta ishlanib jadvallar, diagramma va infografikalar tayyorlandi. Xususan, abstraksiya usulida bir nechta xorijiy brendlar tanlab olishib ular bo'yicha tahlillar olib borildi. Umumlashtirish metodi orqali milliy brendlarimizni umumiy jihatlari nimalardan iborat bo'lishi kerakligi ochib berildi.

Tahlil va natija. Yuqori texnika va texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy biznes olamini raqobatbardosh brendlarga aylantirib yubordi va bu bilan bozorni egallashda afzalliklar yaratdi. Zamonaviy brendlar kompaniya faoliyatida muhim komponentga aylandi. Kompaniyaning brend belgilari ishonch, mustahkamlik, iste'molchilarda ma'lum bir darajada ularga nisbatan umidvorlik yaratildi. Brendlar iste'molchilarning ongini zabt etish strategiyalarini kuchaytirdilar. Brendlar mahsulotga o'xshab ishlab chiqarilmaydi, ular iste'molchilar tafakkurida shakllanadi, shu bilan birga mahsulotga nisbatan emotsional bog'liqlik yaratadi.

D. Aaker brendning ikkita darajali tizimini yaratadi. Bu erda markazda mahsulotni berib, atrofida unga bog'liq bo'lgan asotsiatsiyalarni belgilaydi (1-rasm).



1-rasm. A.Akerning brendni tashkil etadigan tizimlari³

³ Аакер Д. Создание сильных брендов. – М.: Издательский дом Гребенникова, 2013

Brendning iste'mol ko'lami qanchalik keng bo'lsa, iste'molchi bilan oradagi munosabatlar ham shunchalik yaxshi bo'ladi. Masalan, "Беседа" choyini olaylik, mahsulotning asotsiatsiyasi xalqning choy ichish urf-odatlariga, oilaviy choy atrofida yig'ilib o'tirishlariga bog'lagan. Bunday munosabat brendning "Беседа" deb atalishiga monan bo'lgan.

Milliy brendning rivojlanishi ham brending jarayonini qay darajada tashkil topganiga bevosita bog'liq. Brending jarayoni – bu boshqaruv faoliyatining majmui bo'lib, brending tizimida operatsiya va protseduralarning o'zaro, uyg'un mos ravishda ta'minlovchi usul va uslublardan iborat.

Brending jarayoni davriy xususiyatga ega bo'lib, quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- 1- Bosqich. Xaridorlarning ehtiyoji va qiziqishi asosida axborot ma'lumotlarini yig'ish va uni tahlil qilish, savdo markasiga bo'lgan munosabatini o'rganish, hamda raqobatchi brendlarning xatti- harakatlarini kuzatish;
- 2- Bosqich. Brendning straregik barqarorligini ta'minlab berish uchun qarorlar ishlab chiqish va uni qabul qilish;
- 3- Bosqich. Qabul qilingan qarorlarni amalda qo'llash;
- 4- Bosqich. Boshqaruv qarorlarining amalda qo'llanilish jarayonini nazorat qilish;
- 5- Bosqich. Qarorning bajarilishini muvofiqlashtirish.

Umuman, korxonada brend qurish texnologiyasining asoslari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

1. Brendning mohiyatini aniqlash.
2. Brend nomini tanlashda ratsional va emotsional aspektlarni inobatga olish.
3. Brend mohiyati va asotsiatsiyalarini turkumlanishini tahlil qilish.
4. Brendning ustunliklarini uni pozitsiyalashda hisobga olish.
5. Brend va uning atrofida o'rab turgan omillarni ketma-ketligini modellashtirish.



2-rasm. Brend mohiyati va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar⁴

⁴ Muallif ishlanmasi.

Brendingda empirik marketing strategiyasi ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu marketing bo'yicha brend – bu empirik havotirlikning yo'naltiruvchisidir, ularga nomlar, logotiplar, ishoralar, marketing voqealar, iste'mol qiluvchilar bilan aloqa va boshqalar kiradi.

Bunga formula qilib, “Brend = Identifikator”, ya'ni brend kimga tegishli ekanligi va shu orqali brend sifatini belgilab berishga qaratilgan bo'lishini aytishimiz mumkin. Yana “Brend = Xavotirlik”, bu insonning his-tuyg'uga javob beradigan organlariga ta'sir etib, aql-idrok va yurakni zabt etishga qaratiladi.

1-jadval

Brendingda empirik marketing strategiyasiga asoslanga empirik model⁵

His-tuyg'u	Brend reklamasi eshitayotgan iste'molchilarning eshituvchi va ko'ruvchi retseptorlariga ta'sir etish uchun qaratiladi. Video ketmaketlik ularga shunday bir kuch orqali ta'sir etishi mumkin-ki, iste'molchilarning bu brend to'g'risidataassuroti ko'tarilishi mumkin. Masalan, “Tide” kompaniyasining reklamasida o'z obrazini tog'dagi tozalik va musaffolikka ko'tarib, asotsiatsiyalarini esa: tog' havosi, gullar ustidagi shudring va tog' cho'qqisidagi qorlar bilan bog'lagan.
Sezish	Bunda reklama o'z brendini sezish, emotsional holatini ko'tarishga, tomoshabinlarni shu obrazga kirishiga harakat qiladi. Masalan, “Camay” sovuni o'z reklamasida sovunga tegishingiz bilan o'zingizni Parijda, Eifel minorasining oldida bo'lib qolgandey ko'rsatib bergan.
Fikrlash	Bunda brend o'z iste'molchilarini fikrlashga undaydi. Unda ko'pincha kadr ortidagi tekstlar va tushuntirishlar beriladi.
Harakat	Bunday reklama rolklari harakat orqali hayot tarzingiz o'zgarishini ko'rsatadi. Masalan, soqol olish uchun mo'ljallangan “Gillette” brendi o'zining yangi Max-3 mahsulotini yaratish uchun 6 yil va 750 mln. doll. sarf qildi. Video ketmaketlikda bir qo'lning soqol olish uchun bo'lgan harakati samolyotning uchishi bilan solishtirilgan.
O'zaro bog'lash.	Bunday reklamada ite'molchini brend o'ziga bog'lab qo'yadi. Masalan, “Harley – Davidson” mototsikllari o'z reklamasida oddiy uch kishini mototsikl mingandan keyin baykerlarga aylantirib, siz ham ularning bittasi bo'lishingiz mumkinligi haqidagi ehtiyojini tug'dirish uchun harakat qilgan.

Xulosa. Brendlar mahsulotga o'xshab ishlab chiqarilmaydi, ular iste'molchilar tafakkurida shakllanadi, shu bilan birga mahsulotga nisbatan emotsional bog'liqlik yaratadi. Brending – tovarni bozordagi faoliyatini oshirish uchun qo'llanilib, tovar belgisi, markasi, qadog'i, reklamasi va boshqalar bilan birgalikda, mahsulotni

⁵ Muallif ishlanmasi

raqobatchi kompaniyalardan ajralib turishiga va o'ziga xos obraz yaratishiga yordam beradi.

Sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga qaramay, o'zbek ishlab chiqaruvchilarining odatiy muammosi – ular qadoqlash, qadoq dizayni va reklamadan to'g'ri va samarali foydalanishmaydi. Tashqi ko'rinishidan sifatsiz bo'lgani uchun, biz ishlab chiqargan mahsulotlar qo'shni mamlakatlar bilan raqobatlasha olmayapti. Qachongacha o'zbek iste'molchisi: “O'zbekiston mahsulotlarini sotib olish o'rniga, yaxshisi Qozog'istonning mahsulotidan (yog', pishloq) ola qolay” degan fikr bilan yashaydi. Rossiyaning mahsulotlari haqida gapirmasa ham bo'ladi. Ular allaqachon chiroyli qadoqlanib, reklama qilib berilgan.

Ko'pchilik, fransuzlarning “Grey Goose”i bilan ruslarning “Столичная” aroqlari o'rtasidagi farqini kuchli marketing va reklamaning to'g'ri yo'lga qo'yilganidan deb bilmaydi. Vaholanki shunday, aynan yuqoridagi 2 omil tufayligina “Grey Goose” o'z sohasida yetakchi. Aroq bozori faqat brending asosida ushlab turiladi. Bir xil tarkib, bir xil ta'm va bir xil texnologiya. Hammasi bir xil, faqat “Grey Goose” dagi elitpozitsiya va elit reklamalardan boshqa. Shuning uchun “Grey Goose” premium klassdagi tovar, “Столичная” bo'lsa odatiy iste'mol uchun deb e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. Pearson Education, Inc., publishing as Prentice Hall, United States of America 2012 y.;
2. Ден С. Кеннеди. Жесткий бренд-билдинг. Изд.: Алпина паблишер, 2017.-290 стр.;
3. Лейни Т.А., Семенова Е.А., Шилина С.А. Бренд-менеджмент. М.:Дашков и Ко, 2018. – 134 с.
4. Басовский Л.Е. Маркетинг: Курс лекций. –М.: ИНФРА-М, 2019. – 219с

DEMOGRAFIK JARAYONLAR VA ULARNING SALBIY-IJOBIY OQIBATLARI

Isomiddinov Sardorbek Davronbekovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Psixologiya va ijtimoiy munosabatlar fakulteti

Sotsiologiya yoʻnalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyo boʻylab muhim ahamiyat kasb etib borayotgan demografik jarayonlar va ularning keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlari, va bu salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotgan tabiiy va sunʼiy omillar, bu salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun ayrim mamlakatlar tajribasi va kerakli fikr va xulosalar haqida soʻzboradi.

Kalit soʻzlar: demografiya, aholining tabiiy kamayishi, tabiiy oʻsish, sunʼiy oʻsish, emigratsiya aholi oʻsishining salbiy taʼsirlari

Bizga maʼlumli demografik jarayonlar va ularning ijobiy va salbiy oqibatlari hamisha ham juda muhim ahamiyatga ega hisoblanib kelgan. Demografik jarayonlar haqida fikr bildirishdan oldin demografiya oʻzi nima va bu soʻz qanday mohiyatga ega ekanligi haqida qisqacha maʼlumot bergan holda oʻzimizda tushincha hosil qilishimiz lozimdir.

Demografiya: (qadimgi yunoncha: *δημος* – demos-xalq va *γράφω* - grafiya)-har yili turli sabablarga koʻra vafot etgan aholi oʻrnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga toʻldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bogʻlik holda oʻrganadigan fan. Demografiyaning paydo boʻlishi asosan 17-asrning 2-yarmidan angliyalik olim J. Graunt (1620-1674) tadqiqotlari bilan bogʻlikdir. Demografiya terminini 1855-yilda fransuz olimi A. Giyar qoʻllagan. 1882-yil Xalqaro gigiyena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy qabul qilingan. 19-asr oxiri-20-asr boshlarida keng tarqaldi. Oʻzbekistonda asosan 1960-yillardan qoʻllanila boshladi.¹ Demografiyaning maqsadi” muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo boʻlishi jarayoni va omillarini oʻrganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini koʻrsatib berishdan iborat. Aholini oʻrganish hamisha ham dolzarb vazifalardan boʻlib kelgan. Bizga tarixdan maʼlumki xalqlarning koʻchisi natijasida, yangi davlatlarning paydo boʻlishi, mintaqalarning oʻzaro savdo-sotiq qilish maqsadida aholining mexanik harakatlanishi sababli dunyo aholisining hududiy taqsimlanishida oʻzgarishlat boʻlib turgan. Shu bilan birga dunyoning turli qisimlarida urushlarning boʻlib turishi ham aholi soni va ularning qayta

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Demografiya>

taqsimlanishiga katta sabablardan biri bo'lib hisoblangan. Shu harakatlar natijasida demografik jarayonlarning dastlabki bosqichlari boshlanib kelgan. Demografiya aholi ko'payish qonuniyatlarini va shu jarayonning tarixiy shartlilikini o'rganadigan fanni bildiruvchi atama. Ushbu tushuncha ko'pincha aholining hisobini ma'lum mezonlar (masalan, jinsi, yoshi, kasbi va boshqalar) doirasida yuritadigan sotsiologlar va statistiklar tomonidan qo'llaniladi.²

Hozir kunda demografik jarayonlar dunyo bo'ylab eng muhim jarayonlardan biri hisoblanib kelinmoqda. Bu jarayonlar ko'pincha salbiy oqibatlatga olib kelmoqda. Biz tarixiy demografik muammolarning sabablarini ikkiga bo'lib o'rganishimiz mumkin. 1-aholi sonining kamayishi, 2-aholi sonining ko'payishi.

Aholi sonining tabiiy o'sishi: Aholi sonining o'sishi har bir mamlakat uchun, odatda yiliga 0,1% va 3% gacha bo'lgan foiz sifatida ifodalanadi. Tabiiy o'sish mamlakat aholisining tug'ilish va o'limini anglatadi va migratsiya hisobga olinmaydi. Butun o'sish darajasi migratsiyani hisobga oladi. Misol uchun: Kanadaning ochiq tabiiy immigratsiya siyosati sababli, Kanada tabiiy o'sish sur'ati 0,3%, umumiy o'sish darajasi 0,9% ni tashkil etadi. AQShda tabiiy o'sish darajasi 0,6% ni tashkil qiladi va umumiy o'sish 0,9% ni tashkil qiladi. Dunyodagi joriy (umumiy va tabiiy) o'sish darajasi 1,14% ni tashkil etadi va 61 yilga tenglashadi. Jahon miqyosidagi aholining soni 6,5 milliarddan 2067 yilgacha 13 milliardga etishi kutilmoqda. Dunyodagi o'sish sur'ati 1960 yillarda 2 foizga va 35 yilga ko'paygan.³ Aholi sonining tabiiy o'sishi bu asosan tug'ilish jarayonning jadallashuvi asosida yuzaga keladi.

Sun'iy o'sish: Jahon aholisining soni uning joydan joyga tabiiy ko'chishi bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlar, regionlar, shaharlar tabiiy aholisining soni esa tabiiy ko'payish ko'rsatkichlaridan tashqari migratsiya jarayonlariga ham bog'liq. Jahon aholisining soni, uning ko'payish sur'ati har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatga egadir va bu xususiyat muayyan davlatning ijtimoiy iqtisodiy tuzumi bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlar, regionlar, shaharlar aholisining soniga tabiiy ko'payishdan tashqari migratsiya jarayoni ham ta'sir etadi.⁴

Aholining tabiiy kamayishi: Dunyo aholisi ko'payish bilan bir qatorda kamayish jihatdan ham o'z dolzarbligiga ega bo'lmoqda. Aholining tabiiy kamayishini turli xil jihatlari bilan yoritib berish mumkindir va ularni quyidagi turli xil qarashlar va omillar bilan yoritib berish mumkin: yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, urbanizatsiyaning yuqori darajasi, ayollarning mavqeini o'zgartirish, urushlar va harbiy mojarolarning oqibatlari, texnologiya

² <https://uz.cultureoeuvre.com/10755423-what-is-demography>

³ <https://uz.eferrit.com/aholining-o'sish-suratlari>

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi>

ofatlar, kasalliklardan o'lim, tabiiy ofatlar shu kabi omillar aholi sonini kamayishiga sabab bo'ladi.⁵

Emigratsiya: (lot.- ko'chib ketmoq) -aholining muayyan mamlakatdan boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun (ixtiyoriy yoki majburiy) ko'chib ketishi. emigratsiya asosan, kam rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lib, u yerdagi ishsizlik va boshqalar iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy va milliy tengsizlik, siyosiy, diniy va boshqalar ta'qiblar tufayli sodir bo'ladi. Emigratsiya mamlakatlar aholisining soni va tarkibiga bevosita ta'sir etadi. Yuqorida aytib o'tilgandek emigratsiya jarayoni ta'sirida aholining soni kamayib yoki ko'payib ketishi mumkin.⁶

Aholi ko'payishining salbiy ta'sirlari: Aholi sonining ko'payib borishi bu dunyo mamlakatlari uchun turli xil salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu salbiy oqibatlar dunyo aholisining yashash tarzi, kundalik hayot kechirishining qiyinlashuvi va boshqa turli xil omillarni keltirib chiqarishi mumkin. Aholi sonining ko'payib borishi hududga nisbatan joylashuvning keskin qisqarishi, aholi zinchligining ortib borishi, oziq-ovqat ta'minotining qisqarib borishi, ishlab chiqarishning ortishi natijasida tashqi muhitning turli xil ishlab chiqarish texnologiyalari orqali zarar yetkazishi, havoning ifloslanishi va turli xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholi o'rtasida ishsizlik kamayishi va buning ortidan turli xil kelishmovchiliklar, davlat va aholi o'rtasida nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu nizolar oqibatida tabaqalashuv va aholi o'rtasida migratsiya jarayonini olib kelishiga sabab bo'ladi. Bu omillar ta'sirida davlatda bo'linish va ichki nizolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Muammoning yechimlari: Hozirgi kunda aholini ko'payishining oldini olish uchu turli xil davlatlar o'z siyosatini va qonunlarini ishlab chiqqan. Bu mamlakatlar misolida Xitoyni olib ko'rishimiz mumkin. Xitoyda oiladagi ortiqcha farzand uchun katta miqdorda jarimaga tortiladi. 1979-yildan 2015-yilgacha Xitoy hukumati "bitta oila-bitta bola" demografik siyosatni olib boradi. 2016-yildan boshlab davlat fuqarolarga ikki nafar varzand ko'rishiga ruxsat berdi. 1970-yildan boshlab Pekin oilalar sonini cheklab qo'ygan. Izohlanishicha, aholining keskin ko'payib borishi yer, suv va energetika resurslaridan xaddan tashqari yuk bo'ladi. Har doim ham aholi sonini cheklash bilan bu masalani xal qilib bo'lmaydi. Chunki tiriklik bor ekan tug'ilish hamisha davom etib keladi. Har bir davlat o'zining iqtisodiy holatidan kelib chiqib qonun va qarorlar chiqaradi. Aholining sonini nazorat qilish uchun aholining talab taklifidan kelib chiqib qonunlar qabul qilish keraldur.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda aholining o'sish va kamayishi ham ijobiy ham salbiy taraflari bilan namoyon bo'ladi. Dunyo bo'ylab aholi sonining ortib borishi

⁵ <https://sbk03.ru/uz/snizhenie-chislennosti-naseleniya-prichiny-i-problemy-sokrashchenie/>

⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Emigratsiya>

rivojlanishga qisqa muddatlarda insoniyat uchun kerakli kashfiyotlar yaratishga, mehnat kuchining ortishiga, yangi-yangi aholi turar joylari inshootlar qurilishiga jamiyatning rivojlanishining jadallashuviga ta'sir o'tkazadi.

Salbiy taraflari shundaki, aholining soni keskin ravishda ya'ni qisqa muddatda ortib borsa, oziq-ovqat yetishmovchiligi, tabiiy resurlarning, suv, elektr-energetikaga katta ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa aholi zinchligining ortishi uy-joy yetishmovchiligi kelib chiqadi va natijada aholi turmish-tarzida juda katta qiyinchiliklar vujudga kela boshlaydi bu esa davlatning ichki nizolarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Shunday ekan aholi zaruriyati uchun kerakli shart-sharoitlarni oldindan xal qilib qo'yish lozimdir. Shuni aytish joizki tiriklik va hayot bor ekan hech qachon tug'ilish va o'limning oldini to'la-to'kis holda olish mumkin emas. Tirklik bor ekan tug'ilish, o'sishning oldini olib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Demografiya>
2. <https://uz.cultureoeuvre.com/10755423-what-is-demography>
3. <https://sbk03.ru/uz/snizhenie-chislennosti-naseleniya-prichiny-i-problemy-sokrashchenie/>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Emigratsiya>
5. <https://uz.eferrit.com/aholining-o'sish-suratlari>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi>

**MATEMATIKA VA GEOMETRIYA DARSLARIDA UCHBURCHAKLAR
MAVZUSINI O‘QITISHDA O‘ZIGA XOSLIK TOMONLARI
YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYA**

Axunova Maxliyoxon Mo‘yidinovna

Temirova Sarvinoz Salohidin qizi

Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani 3-sonli o‘rta ta‘lim maktabi

Matematika fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada geometriya va matematika darslarida uchburchak haqidagi mavzularni o‘qitishda o‘ziga xos usullar, va metodik yo‘nalishlar berilgan, fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: uchburchak, teorema, nuqta, burchak, tenglik, tengsizlik.

Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Sh.M.Mirziyoyev

Har narsaning zamirida bilim yotganidek, inson hayotida ta‘limning roli beqiyosdir. Jamiyat taraqqiy etar ekan, ta‘limning sifati va muammoli vaziyati ham kun sari oshib boradi. Ayniqsa, bu jarayon aniq fanlarda ko‘zga yaqqol tashlanadi. Chunki unda muammoning yechilishi aniqlik va asosni talab qiladi. Ma‘lum qoidaga bo‘ysunadi, ma‘lum formula yordamida yechim topadi. Buni uchburchaklar misolida isbotlashimiz mumkin:


Agar A va B nuqtalar bo‘lsa ular orasidagi masofa deb AB kesmaga aytiladi. A va B nuqtalar ustma ust tushsa, ular orasidagi masofa 0 ga teng deb olinadi. Teorema: Uchta nuqta ixtiyor joylashgan taqdirda ham bu nuqtalarning istalgan ikkitasi orasidagi masofa ulardan uchinchi nuqtagacha bo‘lgan masofalarning yig‘indisidan katta emas. Bu esa bu masofalarning har biri qolgan ikkitasining yig‘indisiga teng yoki undan kichik demakdir.

Isboti: A, B, C – Berilgan uchta nuqta bo‘lsin. Agar uchta nuqtadan ikkitasi yoki uchala nuqtaning hammasi ustma ust tushsa, teoremaning tasdigi ravshan. Agar nuqtalarning hammasi xar hil va bir to‘g‘ri chiziqda yotsa, ulrdan bittasi masalan, B nuqta qolgan ikkitasining orasida u xolda $AB+BC=AC$. Bundan uchta masofaning har

biri, qolgan ikkitasining yig'indisidan katta emasligi ko'rinib turibdi. Endi nuqtalar bir to'g'ri chiziqda yotmaydi deb faraz qilaylik. $AB < AC + BC$ ekanini isbotlaymiz. AB to'g'ri chiziqqa CD perpendikulyar tushiramiz. Isbotlanganiga ko'ra $AB \leq AD+BD$ $AD < AC$, $BD < BC$ bo'lgani uchun $AB < AC + BC$. Teorema isbotlandi.

Shuni takidlaymizki, nuqtalar bir to'g'ri chiziqda yotmagan holda, uchburchak tengsizligi $C B(D) A A D B$ qat'iidir. Bu esa har qanday uchburchakda har bir tomon qolgan ikki tomon yig'indisidan kichik demakdir. [2]

Masala: aylananing har qanday vatari diametridan katta emasligini va o'zi diametr bo'lgandagina diametriga teng bo'lishini isbotlang. Yechilishi: (2-rasm) Uchburchak tengsizligiga ko'ra $AB \leq OA + OB = 2R$ shu bilan birga, agar O markaz AB kesmada o'tmasa, u holda tengsizlik qat'iy boladi. Tenglik vatar markazidan o'tgandagina, ya'ni diametr bo'lgandagina o'rinlidir.



1-rasm

Ta'rif: Bitta ichki burchagi 90° bo'lgan uchburchak to'g'ri burchakli deyiladi (17-rasm $\angle C = 90^\circ$). Uchburchakning to'g'ri burchak hosil qiluvchi AC va BC tomonlari uning katetlari, to'g'ri burchak qarshisida yotgan AB tomoni uning gipotenuzasi deyiladi. Endi to'g'ri burchakli uchburchakning xossalari ko'rib o'tamiz. 1 – teorema. Agar to'g'ri burchakli

uchburchakning to'g'ri burchagi uchidan gipotenuzaga balandlik o'tkazilgan bo'lsa:

1) balandlik gipotenuzada u hosil qilgan kesmalar orasida o'rta proporsional miqdordir;

2) har bir katet gipotenuza va bu katetning gipotenuzaga proyeksiyasi orasida o'rta proporsional miqdordir.

Isboti: Berilgan uchburchakning katetlari va gipotenuzasini, $AC=b$, $BC=a$, $AB = c$ deb, katetlarning gipotenuzaga proyeksiyalarini $AD = b_1$, $DB = a_1$ deb belgilaymiz (17-rasm). 1. $CD = h$ balandlik tushirish natijasida hosil qilingan $\triangle ACD$ va $\triangle BCD$ to'g'ri burchakli bo'ladi, chunki $CD \perp AB$. Endi $\angle CAD = \alpha$ bo'lsin. To'g'ri burchakli uchburchak o'tkir burchaklarining yig'indisi 90° ga teng bo'lganligidan $\angle ACD = 90^\circ - \alpha$ bo'ladi. U vaqtda $\angle DCB = 90^\circ - (90^\circ - \alpha) = \alpha$, ya'ni $\angle DCB = \angle CAD$. Endi $\triangle ACD$ va $\triangle BCD$ ning ikkita burchaklari o'zaro teng bo'lganligidan, $\triangle ACD \sim \triangle BCD$ bo'lishi kelib chiqadi. Bu uchburchaklarda mos tomonlarining nisbatini tuzamiz: bundan talab qilingan, $h^2 = a_1 \cdot b_1$ tenglik kelib chiqadi.

2. $\triangle ABC$ va $\triangle ACD$ lar o'xshash bo'ladi, chunki ularning har ikkalasi ham to'g'ri burchakli va ularda $\angle A$ umumiydir, yani $\triangle ABC \sim \triangle ACD$. Bu uchburchaklarda mos tomonlarning nisbati bo'ladi, bundan $b_2 = b_1 - c$ bo'lishi kelib chiqadi. Endi $\triangle ABC$ va

ΔBDC ning o'xshashligidan (ularning har ikkalasi ham to'g'ri burchakli va ularda $\angle B$ umumiydir), talab qilingan ikkinchi $a_2 = a_1 \cdot c$ tenglik kelib chiqadi. 2-teorema (Pifagor). To'g'ri burchakli uchburchakda gipotenuza uzunligining kvadrati katetlar uzunliklarining kvadratlari yig'indisiga teng.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aniq fanlar aniqlikka asoslanadi. Undagi formula va yechimlar ham aniqlik asosiga tayanadi, shu boisdan ham boshqa fanlarga nisbatan aniq bo'lganligi uchun aniq fanlar deb nomlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saydaliyev S., Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. Toshkent – 2017.
2. Azimxo'jayev T., Sotvoldiyev A., Uchburchaklar nazariyasi. Termiz – 2018
3. Xoliyev B., Toshpo'latov S., Geometriya va uchburchaklar. Nukus – 2006
4. N.N. Azizxojayeva. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo'llanma. T.: 2007.
5. J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: O'qituvchi, 2004.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA
DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB
TASHKILLASH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA**

Xalmatova Sayyoraxon Qulfidinovna

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 22- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinif matematika darslarida didaktik o'yinlar vositasida darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va ko'nikma hosil qilishlariga yordam berishdagi ahamiyati ko'rsatilgan holda didaktik o'yin namunalari va ularni o'tkazish yo'llari batafsil yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, didaktik o'yin, matematika, sonlar, geometrik shakllar.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar vositasida darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va ko'nikma hosil qilishlariga yordam beradi. Yangi darsni boshlash yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Quyida ayrim didaktik o'yinlar haqida ma'lumot berilgan. «Davom ettir» o'yinida o'qituvchi biror son aytadi, o'quvchilar esa uning tashkil qiluvchilarini aytadi: o'qituvchi 10 sonini aytsa, o'quvchilar uni 5 bilan 5 ning yig'indisi, 8 bilan 2 ning yig'indisi, 7 bilan 3 ning yig'indisi ko'rinishida aytadi va hokazo. Shu tariqa barcha o'quvchilar sonning to'ldiruvchilarini aytishi mumkin. Bu o'yin orqali o'quvchilarda sonning tarkibi haqidagi bilimlari va og'zaki qo'shish-ayirish ko'nikmasi mustahkamlanadi. «Domino» o'yini qoidasiga ko'ra o'quvchilarga dominolar tarqatiladi, undagi dominolar soniga qarab, bir xonali, ikki xonali va uch xonali va h.k sonlar aytiladi. Masalan: 1 va 2 dan iborat domino tushgan bo'lsa 5 va 22 deb aytish mumkin. O'yindan ko'zlangan asosiy maqsad sonlarni xona birliklarini ajrata olishga yo'naltirilganligidir.

«Tez javob» o'yinida o'qituvchi yoki boshlovchi qator oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror turga oid so'zni aytadi. O'quvchi esa o'sha so'zni izohlaydi. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Masalan: o'qituvchi uchburchak so'zini aytsa, o'quvchi bu so'zni: «Uning uchta tomoni va uchta burchagi mavjud», – deb izohlaydi.

O'yin shu tariqa davom etadi. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqariladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakalari rivojlanadi, shuningdek, ular atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofda sodir bo'layotgan hodisalarga qiziqishi ortadi. Bu o'yindan darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqasida foydalanish mumkin.

«Antiqqa rassom» o‘yinida ixtiyoriy 3 ta o‘quvchi tanlab olinadi va ko‘zlari bo‘nlanadi. Doskadan qo‘llarini uzmaganda turli shakllarni chizadilar. «Antiqqa rassom» o‘yidan istalgan darsda foydalanish mumkin. Bunda faqat o‘yin sharti o‘zgartiriladi. Masalan, «Qo‘l uzmasdan uchburchak chizing», «Qo‘l uzmasdan to‘rtburchak chizing», «Qo‘l uzmasdan aylana chizing» kabi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik va do‘stona muhitni yaratishning pedagogik shart-sharoitlari vujudga kelganidan so‘ng, mazkur muhitni yanada mustahkamlash maqsadida fan asoslarini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. «Ortiqchasini top» o‘yini asosida esa bir turdagi narsalar turkumiga kirmaydiganni topish vazifasi beriladi:

1. Nuqta, kvadrat, kesma, to‘g‘ri chiziq
2. Doira, uchburchak, to‘rtburchak, kvadrat
3. Dushanba, seshanba, aprel, juma
4. $2+8$, $3+7$, $5+3$, $5+5$, $6+4$.

Har bir o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, darsni samarali tashkil qilish uchun zamonaviy usullarni tatbiq etishi, bir so‘z bilan aytganda, innovatsion yondashishi bolalarga boshlang‘ich ta‘lim-tarbiya berishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Qora quti" metodi. Bunda qutiga oldindan tayyorlangan mavzu yuzasidan savollar solinadi. Bunga asosan darsda yaxshi ishtirok etmagan o‘quvchilarni qamrab olish mumkin. O‘quvchilar qutidan savol Olib savollarga javob berishadi.

"Atamalar janggi" metodi Bunda o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi. Ular "Atamalar janggi" metodi. Bunda o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi. Ular fanga oid atamalarni ketma-ketlikda aytishadi. Ayta olmay qolgan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

“Zakovatli zukko” metodi. Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Metod o‘quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda zamonaviy darslar va interfaol metodlarning ijobiy tomonlari juda ko‘p. Uni qo‘llash orqali mavzularni va matematika fanini mukammal o‘rganish mumkin. O‘qish fani betakror, uning har bir qirralari kash qilinmagan ummonga teng. Matematika fanini o‘rganib, qadrlab, uning har bir qirralarini fanda kashf qilishimiz lozim. “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat” ekanligini doimo esda saqlagan holda yurtimizga munosib farzandlarga ta’lim-tarbiya beraylik. O‘zbekiston kelajagiga yetuk va namunali shaxslar yetishib chiqishi uchun munosib hissa qo‘shaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E Matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik.) — T.: “Turon iqbol” 2016.
2. Usmanxo‘jayev T.S, Xo‘jaev F. —1001 o‘yin “Meditina” -1999.
3. Abdullayeva B va b.q Matematika —1-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2014.
4. M.Toshpo‘latova va b.q Matematika 2-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2015.

**ЎЗБЕКИСТОН ИНВЕСТИЦИОН САЛОҲИЯТИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ
ЎРГАНИШНИНГ АЙРИМ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ**

Каландаров Акбар Пулатбаевич

Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада инвестицияларнинг, жумладан хорижий инвестицияларнинг мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришдаги аҳамияти долзарб эканлиги ҳамда уларнинг мазмун-моҳияти акс эттирилган. Шунингдек, мамлакат ҳудудига хорижий инвестицияларни жалб қилишни ҳозирги кундаги ҳолати ҳамда инвестицияларни жалб қилишни фаоллаштириш чора-тадбирлар тўрисида таклифлар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар. Хорижий инвестиция, инвестиция лойиҳалари, инфратузилма, инвестиция муҳити, инвестицион сиёсат.

**SOME TOPICAL ISSUES OF STUDYING FOREIGN INVESTMENTS IN THE
DEVELOPMENT OF INVESTMENT POTENTIAL OF UZBEKISTAN**

ABSTRACT

This article reflects the relevance of investments, including foreign investments, in the development of the country's economy, as well as their essence. Also, suggestions were made about the current state of attracting foreign investments to the territory of the country and measures to activate investment attraction.

Keywords. Foreign investment, investment projects, infrastructure, investment environment, investment policy

КИРИШ

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, қайси давлат фаол инвестиция сиёсатини юритган бўлса, ўз иқтисодиётининг барқарор ўсишига эришган. Шу сабабли ҳам инвестиция - бу иқтисодиёт драйвери, ўзбекча айтганда, иқтисодиётнинг

юраги, десак муболаға бўлмайди. Инвестиция билан биларга турли соҳа ва тармоқларга, ҳудудларга янги технологиялар, илғор тажрибалар, юксак малакали мутахассислар кириб келади, тадбиркорлик жадал ривожланади.¹

¹ Ш.М.Мирзиёев. Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018-йил 28-декабр. 9-бет

Биз инвестиция деганда келгусида бирор даромад (фойда) олиш ёки ижтимоий самарага эришиш мақсадида қонун доирасида ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг турли жабхаларига инвесторлар(сармоядорлар) томонидан қўйиладанган барча турдаги мулкӣ, молиявий ва интеллектуал бойликларни тушунишимиз мумкин. Бошқача айтганда, инвестициялар-мулкчиликнинг ҳар хил қўринишларидаги моддий, молиявий ва номоддий бойликларни иқтисодий - ижтимоий даромад, самара олиш мақсадида муомалага киритишдир.

Мамлакат иқтисодиётини юксалтириш, замонавий техника ва технологиялар билан жиҳозланган янги корхоналарни барпо этиш ҳамда реконструкция қилиш учун хорижий инвестицияларни жалб қилиш катта аҳамият касб этади. Авваламбор, аҳоли бандлиги, унинг иш ҳақи ва даромадларини ошириш каби энг муҳим ижтимоий муаммоларни ечиш имкониятини беради. Шу боисдан ҳам мамлакатимизга хорижий инвестициялар жалб этаётган корхоналарни иқтисодий рағбатлантириш ва зарурий шароитларни яратиб бериш ўта муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

Хорижий инвестицияларни жалб этмай, айниқса, етакчи тармоқларда чет эл инвестициялари иштирокини кенгайтирмай туриб, иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва модернизациялаш, корхоналарни замонавий техника билан қайта жиҳозлаш ҳамда рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш мумкин эмас. Мамлакат иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб этилиши унинг иқтисодий имкониятларининг кенгайишини тезлаштириб, барча соҳаларда ички имкониятлар ва резервларни ишга солиш, янги техника ва технологияни, экспортбоп товарларни ўзлаштиришга, уларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш орқали давлатимиз иқтисодий қудратини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

2019 йил 25 декабрда қабул қилинган “Чет эл инвестициялар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 3-моддасида “Чет эл инвесторлари асосан даромад (фойда) олиш мақсадида тадбиркорлик фаолияти ва қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа турдаги фаолият объектларига қўшадиған барча турдаги моддий ва номоддий бойликлар ҳамда уларга доир ҳуқуқлар, шу жумладан, интеллектуал

мулкка доир ҳуқуқлар, чет эл инвестицияларидан олинган ҳа қандай даромад Ўзбекистон Республикаси ҳудудида чет эл инвестициялари деб эътироф этилади”.²

² Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрдаги “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни.

Хорижий инвестицияларнинг умумий таърифи Ф. Хениуснинг 1947 йил АҚШда чоп этилган ташқи савдо луғатининг 2-нашрида қуйидагича берилган: “Хорижий инвестициялар – бу бир мамлакат ҳудудидан иккинчи мамлакат ҳудудига киритилган, экспорт қилинган инвестициялар”³.

